


# SO'Z YODLASH SIRLARI



Loading...



63%

Shohruh-Mirzo RAHMANOV  
Iskandar SATTIBAEV

# SO'Z YODLASH SIRLARI

Ingliz tilidagi so'zlarni  
tezkor yodlash bo'yicha qo'llanma

"Istiqlol Nuri" — nashriyoti

UO'K: 811.111 (076.3)

81.2 Ingl

A-15

KBK 81.2 Ingl

Shohruh-Mirzo RAHMANOV va Iskandar SATTIBAEV

So'z yodlash sirlari, Toshkent - 2015 yil, "Istiqlol Nuri"-nashriyoti,  
124 bet.

KBK 81.2 Ingl

Taqdim etilayotgan kitob ingliz tilini o'rganuvchilarning oldida turgan eng katta muammolardan biri - so'z yodlash sir-sinoatlari to'g'risida yozilgan. Bu kitobni o'qib siz ingliz tilida o'zingiz uchun noma'lum bo'lgan so'zlarni oson, tez va unumli tarzda yodlash hamda ularni uzoqroq muddat esingizda saqlab qolish usullarini o'rganasiz. Kitobda ingliz tilini o'rganuvchilar uchun qiziqarli bo'lgan test savollariga to'g'ri javob berish va ingliz tiliga tarjima qilish kabi masalalar haqida ham so'z boradi.

Shuningdek, qo'llanmada mualliflarning shaxsiy tajribalari, keng foydalaniladigan usullar, hozirda ommalashayotgan mnemonik texnikalar, hayotiy misollar, test yechishga tatbiqlari, so'zlarni yodlash bo'yicha mashqlar hamda umumiy ravishda chet-tilini o'rganish bo'yicha tavsiyalar o'rin olgan. Kitob nafaqat abituriyentlar balkim ingliz tili o'rganuvchilari, o'quvchilar, talabalar va xattoki boshqa chet-tillarini o'rganuvchilar uchun so'z yodlash bo'yicha qo'llanma sifatida ishlatilishi mumkin.

To'g'ri yo'nalish va qattiq xoxish orqali ingliz tilidagi yangi so'zlarni yodlash endi siz uchun oson kechadi va ushbu kitob bu yo'lda katta foyda beradi degan umiddamiz.

*Sizga omad va zafarlar tilaymiz!*

**ISBN: 978-9943-4178-3-0**

© Shohruh-Mirzo RAHMANOV va Iskandar SATTIBAEV

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	4
Kitobdan qanday foydalanish kerak.....	7
<b>1-bob.</b> Mnemonika nima o'zi?.....	8
<b>2-bob.</b> Mato — mnemonikaning asosiy, fundamental qonuni.....	12
<b>3-bob.</b> Makon usuli.....	17
<b>4-bob.</b> Yangi tilni o'rganish - so'z boyligini oshirish demakdir.....	22
<b>5-bob.</b> Lug'at daftarini tutish san'ati.....	32
<b>6-bob.</b> So'zlarni takrorlash orqali xotirada saqlash.....	40
<b>7-bob.</b> Turli xil yodlash usullari.....	50
<b>8-bob.</b> 36 ta testga moslashgan lug'at yodlash .....	70
<b>9-bob.</b> Birdaniga 14 000 ta so'zni o'rganing!.....	83
<b>10-bob.</b> Aqliy munosabat (Mental set) .....	108
<b>11-bob.</b> Taxmin qilish hissini rivojlantiring.....	113
<b>Xulosa o'rnida</b> .....	119
<b>Ilova</b> .....	120

## KIRISH

O'quvchi ingliz tilida kitob o'qimoqda. Uning nigohi kitobga qadalgan, lekin xayoli parishon. Nega? Chunki kitobdagi juda ko'p so'zlar unga notanish bo'ladi. Lug'atni qo'lga olib, har bir yangi so'zning tarjimasini topguncha toliqib, zerikib ham ketadi. Yangi so'zlarni e'tiborsiz qoldirsa, kerakli ma'lumot e'tibordan chetda qolib ketishi mumkin. Oqibatda, na yangi so'zlarni samarali o'rganadi, na o'qiyotgan kitobini yaxshi tushunadi.

Mualliflar ham bir paytlar aynan shu muammolarga duch kelishgan va ularning maqsadi - bugungi kunda ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchilar yangi so'zlarni o'rganishlarida to'g'ri yo'lni tanlashlariga ko'maklashishdir. Qo'lingizdagi kitob aynan ingliz tilini o'rganish jarayonida uchraydigan yangi so'zlarni qanday qilib osonlik bilan yodlash mumkinligi haqida turli usullar va tavsiyalarni taqdim etadi.

Darhaqiqat, har qanday xorijiy tilni o'rganishdagi eng katta muammo bu so'z yodlashdir. Negaki, bu jarayonda siz o'nlab yoki yuzlab emas, balki minglab yangi so'zlarni o'rganishingiz talab etiladi. Sizning so'z boyligingiz tilni qay darajada bilishingiz bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kelajakda boshqa sohalardagi muvaffaqiyatlaringizga yo'l ochuvchi kalit hamdir.

Shu o'rinda ingliz tilini o'rganayotgan kishi uchun nechta so'zni yoddan bilish kerakligini ham aytib o'tish lozim. Ma'lumotlarga ko'ra, qaysi tilda bo'lishidan qat'i nazar, kundalik muloqot uchun 1200-2000 ta so'zni bilish talab qilinadi. Demak, ingliz tilida ham muloqot qilish uchun shuncha so'zni bilish kifoya bo'ladi. Pedagogik tajribamizdan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasidagi oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarini topshirish jarayonida ingliz tili fanidan test savollarini muvaffaqiyatli yechish uchun 4500-5000 ta so'z bilish talab qilinadi.

Xorij oliygohlariga kirish uchun topshiriladigan IELTS imtihonida yuqori ball olishni xohlagan o'quvchi kamida 7000 ta so'zni mukammal bilishi kerak. Ingliz tilida faoliyat ko'rsatuvchi olimlar, yozuvchilar va shoirlar 12 000-15 000 ta so'zdan foydalana olishlari aniqlangan.

Shunisi aniqki, ingliz tilini qaysi maqsadda va qancha muddat davomida o'rganishingizdan qat'iy nazar, siz albatta bir necha ming so'zni mustahkam o'zlashtirishingiz shart. Bu esa o'z-o'zidan bo'lavermaydi. Hech o'ylab ko'rganmisiz, nima uchun chet tilini o'rganayotgan o'quvchilar ko'pincha so'z yodlashni qiyin va zerikarli ish deb biladi? Bizningcha, bunga sabab ilk chet tillarini o'rganish davridagi so'z yodlash uslublarining unchalik ilg'or va qulay bo'lmaganligidir.

Shaxsiy til o'rganish tajribamizdan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, asosan, maktabda yoki boshqa ta'lim muassasalarida chet tilini o'rganayotgan o'quvchilardan yangi so'zlarni inglizcha-o'zbekcha yoki o'zbekcha-inglizcha tarzida yodlash talab qilinadi. Bunday holatda o'quvchida yangi so'zni his qila olish, ta'bir joiz bo'lsa, uning "ta'mini totish" imkoniyati bo'lmaydi.

Bizning o'z oldimizga qo'ygan vazifamiz esa, aynan shu yo'nalishda o'quvchilarga yordam qo'lini cho'zish va yangi so'zlarni jonli va rangbarang tarzda yodlash, o'rganish yo'llarini ko'rsatishdir.

Chet tilida yangi so'zlarni o'rganish bo'yicha yuzlab uslublar va qoidalar mavjud desak, mubolag'a bo'lmaydi. Biroq o'rganish jarayoniga endi kirishgan o'quvchi birinchidan, bu usullarning hammasini bilishga qodir emas. Agar ushbu usullarning hammasi jamlangan biror kitob uning qo'lga tushib qolsa ham, ularning aynan qaysi birini tanlash va undan unumli foydalanish u uchun jiddiy muammoga aylanishi mumkin.

O'quvchi bunday vaziyatda nima ham qilardi? Odatdagidek, barcha singari yodlashda qo'llarini qo'yib

## Soʻz yodlash sirlari

ro'yxatni ketma-ket takrorlaydi. Bu - juda achinarli holat. Negaki, o'quvchi eng eski, zerikarli va **UNUMSIZ** usuldan foydalanmoqda! Bunday usul miyamizning ishlash tarziga zid hisoblanadi.

Ma'lumki, zamonaviy ta'lim jarayonida *noan'anaviy usullardan* foydalangan holda dars berish va shunday usullar yordamida o'rganish keng qo'llanilmoqda. Mualliflar ham sizga o'quvchilar uchun ingliz tilini o'rganishning yanada rang-barangligini ta'minlash maqsadida o'zlari anchadan beri qo'llab, tajribadan o'tkazgan turli usullarni taqdim qilmoqdalar. Mazkur uslublar orasida *mnemonikaga* ham alohida e'tibor berilgan.

O'quvchi! Shuni unutmangki, biz sizga o'rgatmoqchi bo'lgan so'z yodlash, xotirani rivojlantirish uslublari har qancha samarador bo'lmasin, baribir, muvaffaqiyatning eng muhim omili bu - sizning tirishqoqligingiz va mehnatkashligingiz bo'lib qolaveradi! Bilingki, sizning miyangiz ajoyibdir! U juda ham katta miqdordagi axborotlarni eslab qola oladi. Asosiysi, o'sha axborotni qay tarzda qabul qilishdadir!

**Mualliflar**



**KITOB DAN QANDAY  
FOYDALANISH KERAK**

Kitobning ilk uch bobini asosan xotirani rivojlantirishga oid turli nazariyalarga bag'ishlangan bo'lib, har bir nazariyani tushunarli tarzda yetkazib berilishi uchun kerakli misollar berilgan. Ushbu boblarni tez o'zlashtirish sizga keying boblardagi yodlash usullarini amaliyotda qo'llashda katta yordam beradi. Bu uch bobni tez ko'z yugurtirib, nazariya bilan tanishib chiqish eng maqbul tanlov.

4-bob turli mnemonic texnikalar haqida bo'lib, unda siz so'zlarni oson yodlashning xilma-xil usullarini o'rganasiz. Mazkur bob kitobning eng asosiy bobini hisoblanadi. Uni iloji boricha yaxshilab, qunt bilan o'qib chiqishga harakat qiling.

Shuningdek, 4- bobda berilgan mnemonic texnikalarga qo'shimcha tarzda berilgan 7-8 - bobda ham o'ziga xos so'z yodlash usullari berilgan bo'lib, ular sizning yangi so'zlarni yanada samarali yodlashingizga albatta hissa qo'shadi.

So'z yodlash usullari bilan yaqindan tanishib chiqqach 5-bobda lug'at tutish san'ati bo'yicha kerakli ko'nikmalarni qo'lga kiritishingiz mumkin.

9-bobni yaxshi o'zlashtirish juda katta ahamiyatga ega. Chunki, shu bobda olgan bilimlaringiz yordamida siz qisqa muddat ichida 14 000 (o'n to'rt ming) dona so'zni yodlab olishingiz mumkin!!

6-bob, 10 bob, 11-boblar ushbu kitobda o'rgangan bilimlaringizga yanada mustahkamlash garovi bo'ladi. Ularni mutola'angizni oxiriga, desert uchun saqlab qo'yishni tavsiya qilamiz.



**1-bob.**

**MNEMONIKA NIMA O'ZI?**

**Mnemonika** - o'xshashlik va bog'liqlik asosida xotira hajmini kengaytirish va kerakli ma'lumotlarni eslab qolish uchun ishlab chiqilgan maxsus uslublar to'plamidir. Bunda yangi noma'lum bo'lgan tushunchalar inson ongida allaqachon ma'lum bo'lgan ma'lumotlar bilan bog'lanadi va natijada yangi ma'lumotni eslab qolish osonlashadi.

Keling, bir misolni ko'rib chiqamiz: yilning qaysi oylari 31 kun, va qaysilari 30 kun ekanligi har doim ham insonning yodida turavermaydi. Bu dalilni biz quyidagi inglizcha she'r yordamida osonlik bilan o'rganib olishimiz mumkin.

Thirty days have **September,**  
**April, June** and **November,**  
All the rest have thirty-one;  
**February** has twenty-eight alone,

Ingliz tilida shunga o'xshash misollarni yana ko'plab uchratish mumkin.

*Masalan:* **"I" before "E" except after "C"** ("E" harfidan oldin "I" harfi keladi, agar "E" harfi "C" harfidan keyin kelsa, "I" harfi undan keyin keladi) degan mnemonik qoida. Bu qoida yordamida ba'zi so'zlarning yozilishidagi xatoliklarning oldini olish mumkin.

Quyidagi so'zlar ushbu qoida asosida yoziladi: **believe, convenient, experience, mischievous, piece, relieve, sufficient, yield.**

Bu misollarda esa "E" harfi "C" harfidan keyin kelganligi tufayli, "I" harfi undan keyin yoziladi: **deceive, receipt, receive.**

Lekin shuni doim yodda tutingki, Ingliz tili istisnolarga juda

boy til hisoblanadi. Hattoki ingliz tilida "*The exception proves the rule*" ("*Istisno qoidaning to'g'ri ekanligini isbotlaydi*") degan maqol ham bor. Juda ko'p holatlarda istisnolar mavjud bo'lib, ularni yodlash kerak bo'ladi. Yuqoridagi qoidaga istisno sifatida quyidagi so'zlarni keltirishimiz mumkin:

either  
foreign  
height  
leisure  
neighbo(u)r  
seize  
their  
weigh  
weird

Bundan tashqari mnemonika jism yoki tushunchalarni vizualizatsiya qilish (ularni manzara shaklida tasavvur qilish) ma'nosida ham ishlatiladi. Yangi ma'lumotni ko'rgazmali tarzda tasavvur qilish uni eslab qolishni osonlashtiradi.

Mnemonikaning asosiy uslublari:

**A)** Esab qolinayotgan ma'lumotning *bosh harflaridan* mazmunga ega so'z va iboralar hosil qilish. Bunga qofiyalash hamda uzun so'z va ilmiy atamalarni ohangdosh so'zlar yordamida yodlash kiradi.

*Masalan*, Angliya qirollik sulolalarining tarixda qay tartibda hukmronlik qilganini yodda saqlash uchun quyidagi gapni yodda saqlash kifoya:

No Plan Like Yours To Study History Wisely.

(Norman, Plantagenet, Lancaster, York, Tudor, Stuart, Hanover, Windsor)

**B)** Yodlanayotgan so'zlar bilan bog'liq *yorqin tasvir*, manzalarni topish. *Masalan*, "**to doze off**" - *uxlab qolmoq* degan so'zni yodlayotganizda darsda o'tirib uxlab qolganingizni va keyin o'zingizga "**Oh God! I keep dozing off!**" deb tanbeh

## So'z yodlash sirlari

berayotganingizni tasavvur qiling. Boshqa holatlarda o'zingiz uchun qiziqarli bo'lgan biror qahramonni tanlab olishingiz mumkin. (*aytaylik, Mikki Mausni*).

**D)** Qolaversa, mnemonika ba'zi ma'lumotlarni eslab qolishni osonlashtirish uchun o'zingizning *topqirligingizdan* foydalanishga ham imkon beradi.

*Masalan*, Ingliz tilida soat, aniq vaqt aytilganda, birinchi 30 daqiqada past (o'tdi) so'zi ishlatiladi: 05:20 ' twenty **past** five — *beshdan yigirma daqiqa o'tdi*. Endi, agar mexanik qo'l soatiga qarasangiz, har soatning birinchi yarmida strelkalarni pastga qarab harakatlanayotganini ko'rasiz. Demak ingliz tilida **past** so'zi ishlatilganda, soat strelkalari **past**ga qarab harakatlanadi.

Soatning ikkinchi yarmida esa ingliz tilida **to** (*ta kam*) predlogi ishlatiladi: 08:43 — seventeen **to** nine — *o'n yettita kam to'qqiz*. Bu holatda 30-daqiqaga qadar **past**ga tushgan strelkaning endi **to** 60-daqiqagacha tepaga ko'tarilishini tasavvur qilamiz. Vaqtni aytishni bunday usulda o'rgangan odam uni hech unutmasa kerak.

**E)** Mavhum ma'noga ega bo'lgan so'zlarni eslab qolish ko'pchilik uchun qiyinchilik tug'diradi. Bunday so'zni yodlagan bilan, bir necha kundan keyin u unutilib ketadi. So'zni mustahkam hamda oson yodlab qolish uchun uni mnemonika uslublari yordamida yangi mazmun bilan to'ldirish lozim va yangi so'zni yorqin tasavvur yoki ma'lum his tuyg'ular bilan bog'lash lozim. *Masalan, "To be all ears" - "Butun borlig'i bilan tinglash"* degan iborani eslab qolishda, tasavvur qilingki siz gaplashayotgan insonning quloqlari ulkan quloqqa aylanadi va sizni tinglaydi. Bu tasvir orqali siz iboraning asosiy g'oyasini va ma'nosini oson eslab qolasiz.

Mnemonika uslubi chet tillarini o'rganayotgan o'quvchilar uchun juda qo'l keladi. Zero, bugungi kunga kelib,


o'quvchilarning oldida turgan eng katta muammolar - yangi so'zlarni yodlashning zerikarli ekanligi, katta miqdordagi so'zlarni qisqa muddat ichida yodlashga to'g'ri kelishi va allaqachon yodlangan so'zlarning xotirada uzoq muddat saqlanmasligidir.

Shuni ishonch bilan aytish mumkin, agar mnemonika usullari qunt bilan o'rganilib, muntazam amaliyotga tatbiq qilib borilsa, yuqoridagi barcha muammolarga yechim topiladi. Yana bir narsani alohida ta'kidlash lozimki, mnemonika usullarini puxta egallash - so'zlarni hech qanday qiyinchiliksiz osongina yodlab olish degani emas. Albatta, o'quvchidan aqliy mehnat talab qilinadi. Mnemonika esa so'zlarni yodlash jarayonini zerikarli emas, qiziqarli bo'lishiga, yodlangan so'zlarning qisqa muddat emas, balki butun umr xotirada qolishiga ko'maklashadi.

Mnemonikaning asosiy g'oyasi murakkab bo'lgan ma'lumotning miyamizda osongina yodlanish yo'lini topishga qaratilgan. Miyamiz rasm, rang, struktura, ovozlarni, turli hissiyot va tillarni eslab qolishga moslashgan. Ko'pchilik mnemonikani xotiraga yordam beruvchi uslub sifatida biladi. Lekin bir qator adabiyotlarda mnemonika - ma'nosi bo'lmagan, tartibga solinmagan axborotga ma'no berib, tartibga solib yodlash uslubi sifatida ta'riflanadi. Shuningdek, o'qilayotgan materialga qo'shimcha ma'no qo'yishga ham mnemonika deyiladi. Natijada, yodlanayotgan ma'lumot ma'noli va mantiqiy tus oladi.

2-bob.

**MATO - MNEMONIKANING ASOSIY,  
FUNDAMENTAL QONUNI**



1-rasm

Bu bobda mnemonikaning va xotiramizning asosiy qoidalari haqida nazariy tushunchalarga ega bo'lasiz. Xotiramizning 4 ta asosiy xususiyati bor. Agar bu fundamental qonunlarning bosh harflarini olib birlashtirsak, "MATO" so'zi kelib chiqadi. Endi siz bularni o'zlashtiriish uchun MATO (1-rasm), ya'ni, gazlama so'zlarini eslab qolsangiz, ularni osonroq yodda saqlaysiz. MATO so'zini kengaytirilgan shaklda ko'rib chiqamiz:

1. Makon
2. Assotsiatsiya (*Aloqadorlik*)
3. Tasavvur
4. Oraliqli takrorlash

**Makon** - ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, agarda kishi nimanidir

eslayotib qaysidir aloqador makonni yodga olsa, ma'lumotni eslab qolish nisbatan oson bo'larkan. Shuning uchun keyingi boblarda mnemonik texnikalarni ishlatayotganingizda sizga shunday makonlardan foydalanishingiz mumkin. Negaki, xotirani rivojlantirishdagi mashhur "**loki**" - "**makon**" usulining asosida ham aynan sizga tanish bo'lgan makonlardan foydalanib, yangi axborotni o'sha makonlarga tasavvuriy sayohat davomida qo'yib chiqish yotadi. Bu haqida keyingi boblarda yana to'xtalamiz. Makon tushunchasi haqida tasavvurga ega bo'lishingiz uchun bir misol: siz biror bir qo'shiq tinglayotganingizda, uni dastlab qayerda eshitganingiz yodingizga tushadi. Bu holat xotiramiz makonlarga nechog'lik bog'liqligini ko'rsatadi.

**Assotsiatsiya (Aloqadorlik)** — bu xotiraning ikkinchi asosiy xususiyati hisoblanadi. Miyamiz doimo bir narsani boshqa narsa bilan bog'lab oluvchi mashinadir. Agar men sizga Muhammad Ali desam, siz darhol uni boks bilan bog'liq holda anglaysiz. Ijodkorlik yoki kreativlik ham eski bilimni yangi bilim bilan bog'lash orqali sodir bo'ladi. Qisqa qilib aytganda, biror ma'lumotni eslab qolishingiz uchun tasavvuringizni ishlatib o'zingizga ma'lum bo'lgan boshqa bir ma'lumot bilan assotsiatsiya qilasiz (bog'laysiz).

Deyarli barcha mavzuni qanchalik yaxshi tushunishingiz ham aynan o'sha mavzu bo'yicha qancha assotsiatsiyaga (aloqador tushunchalarga) egaligingizga bog'liq ekan. Buni o'zingiz ham sinab ko'rishingiz mumkin. Avvalgi bobdagi mavzuni olib, u bo'yicha aloqador tushunchalardan turli tomonlarga ketib assotsiatsiyalarni hosil qilishga harakat qiling. Kim ko'p assotsiatsiya so'zlarni paydo qila olsa, u mavzuni chuqurroq va yaxshiroq o'zlashtirgan bo'ladi.

**Tasavvur** — Toni Buzanning tili bilan aytganda, miyamizning tili hisoblanadi. Miyamiz shu tilda fikrlaydi va ishlaydi. Agarda sizga "**telefon**" so'zi aytilsa, miyangizga birinchi bo'lib qandaydir telefon tasviri keladi. Bu tasvir yoki rasm o'zingizning telefoningiz yoki yaqinda ko'rgan boshqa

## Soʻz yodlash sirlari

biror telefon apparati bo'lishi mumkin. Inson xotirasining ishlash tarzini kompyuterning ma'lumot saqlab qolish jarayoniga qiyoslash mumkin. Garchi biz ma'lumotlarni kompyuter xotirasiga rasm, video, matn, ovoz va shunga o'xshash boshqa shakllarda joylasakda, kompyuter har qanday turdagi ma'lumotni oxir oqibatda 0 va 1 raqamidan tashkil topgan ikki sonli kodlar shaklida eslab qoladi, xolos. Shunga o'xshash, inson ham eslab qolayotgan turli bilimlar va ko'nikmalarni o'z ongidagi biror tasavvurga bog'lagan holda eslab qolishi, juda yaxshi samara beradi. Demak, agar biror yangi bilim borasida tasavvur paydo bo'lmas ekan, uni mustahkam yodlab qolish mushkul bo'ladi.

*Rasm bilan ishlash* — eslab qolish uchun juda foydali va rasmni eslatadigan so'zlar ikki barobar tez xotiraga muhrlanadi. Tasavvurga tortadigan har bir rasm bizga o'rganish jarayonini unumli va qiziqarli qiladi, aksincha, notasavvuriy axborot juda zerikarli hisoblanadi.

So'zlar bilan emas, tasvir va rasmlar vositasida fikrlang. Ona tilingizdagi muloqot jarayoniga e'tibor qilib ko'ring. Gapiroyotganingizda so'zlarni o'ylamaysiz, balki, tasvir orqali fikrlaysiz va ongingizdagi tasavvurni ifodalovchi so'zlar o'z-o'zidan kelaveradi. Bu muloqotda faqatgina ongimizdagi tasvirlar emas, balki, hissiyot, ohang, va tana harakatlari ham faol ishtirok etadi. Qolaversa, inson 80 foiz axborotni ko'z orqali qabul qilganligi bois, ko'proq ongimiz tasavvur qilishga moslashgan. Misol uchun, agar sizdan bugun soat nechada uyg'onganligingiz so'rashsa, javob berishdan oldin, tongda jiringlagan soat yoki uyg'onish holatingizni ko'z oldingizga keltirasiz. E'tiborlisi, bunday holatda jumla, ega yoki kesimlar haqida umuman o'ylamaysiz. Lekin ongingizda shakllangan tasavvur bugun soat 7 da uyg'onganligingizni aytish imkonini beradi.

Yuqoridagi fikrga tayanib aytadigan bo'lsak, yangi so'zlarni yodlash paytida ularni muayyan tasavvur bilan bog'lash orqali miyangizga yordam berishingiz mumkin. Aks holda, so'z

yodlash jarayoni juda uzoq va zerikarli ishga aylanadi. Har qanday yangi so'zni ongimizdagi biror shakl yoki tasvir bilan bog'lash, yodlashni ancha osonlashtiradi. Hattoki, ko'pchilik mavhum so'zlarni ham bermalol tasavvur qilish mumkin. Buning uchun o'sha so'zga nisbatan ongingizda paydo bo'lgan har qanday tasavvurni yaxshilab eslab qoling. Bu tasavvur ovoz, hid yoki biror musiqa sadosi bo'lishi mumkin. Keyinroq, shu yangi so'zga yana duch kelganingizda, o'sha holatni eslab ko'ring. Foydasini albatta sezasiz.

Keling kichik bir misolni ko'rib chiqaylik. Aytaylik, "**enemy**" so'zini yodlashingiz kerak. Lug'atda bu so'zning tarjimai "dushman" deb berilgan. Bu so'zga biror tasavvurni bog'lash uchun balki o'zingizga dushman deb bilgan biror shaxsni tasavvur qilarsiz. Agar birovni o'ziga dushman deb bilmaydigan baxtli insonlardan bo'lsangiz, sizga o'zingiz ko'rgan biror film tasavvur hosil qilishda yordam beradi. Bilasiz, ko'p filmlarda dushmanlik, muhabbat, nafrat va boshqa tushunchalar yorqin tasvirlanadi. O'zingiz yoqtirgan biror filmdagi bosh qahramonga dushman bo'lgan obrazni tasavvur qiling. Va shu obrazni "enemy" so'ziga bog'lang. Siz endi bu so'zni hech qachon unutmaysiz!

**Oraliqli takrorlash.** Takrorlangan ma'lumot xotirada saqlanib qoladi. Bu hammaga ma'lum bo'lgan uslubdir. Maktab davrida she'r yodlash uchun ertalab turib, she'rni yuz martalab takrorlashga to'g'ri kelardi. Shuningdek, Xullas, takrorlash nima sababdan miyamiz foydasiga ishlashini bilish uchun miyaning qanday tuzilganini eslash kerak bo'ladi. Miyamiz neyronlardan tashkil topgan. Axborot o'sha neyronlardagi sinapslar orqali harakat qiladi. Agarda shu yo'laklardan axborot o'taversa, neyronlar shishib kattalashadi va bu eslab qolishga olib keladi.

*"Takrorlash — o'rganishning onasi"*, deb bejiz aytishmagan. Takrorlash asosan, fundamental bilimlarni egallashda va tezda



## *So'z yodlash sirlari*

---

qayta eslash kerak bo'lgan xabarlar uchun juda foydalidir. *Masalan*, karra jadvalini takrorlab-takrorlab fundamental bilimlarni olganimizdan so'ng boshqa ko'paytirish amallari biz uchun osonlashadi. Lekin ko'p o'rganish faqatgina takrorlashga bog'liq emas, boshqa uslublar bilan uyg'unlashtirib ishlatilsa, yanada foydali bo'ladi. Faqat takrorlangan axborot quruq yodlash hisoblanadi va bunga odatlangan o'quvchi tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashish, nostandart qarash kabi o'ta zarur bo'lgan ko'nikmalardan bexabar qoladi. Tahlil takrorlash orqali amalga oshirilmaydi va o'quvchilarga takrorlashnigina o'rgatish ularni eng muhim qobiliyatlardan mahrum qilishga olib kelishi mumkin.

Ko'p takrorlash juda foydali hisoblanadi, bunda ma'lumotni shunchalik ko'p o'qiysizki, uni qayta eslash juda tez sodir bo'ladi. Ba'zida oramizdagi bilimli insonlarga "kitob odam" yoki "tirik ensiklopediya" deb ta'rif beramiz. Ular kitoblarni betma-bet eslab qoladi va kuchli xotirasi bilan bizni hayratga soladi. Ulardagi shunday qobiliyatning siri ham ma'lumotlarni ko'p takrorlab turishi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytsak, ushbu bobdagi asosiy tushunchalar sizning keyingi boblarda mavzularni oson tushunishingizga olib keladi.

3-bob.  
MAKON USULI



2-rasm

Oldingi bobda ta'kidlangan xotiramizning asosiy 4 ta qoidalaridan eng muhimi *Makon* qoidasi hisoblanadi. Ushbu bobda aynan *Makon* usuli bilan tanishasiz va ushbu usul mnemonika texnikalarining eng kerakli ustuni ekanligini bilib olasiz.

Yunon mutafakkiri Simonides bundan 2500 yil ilgari "Xotira Saroyi" uslubini kashf qilgan. Bu uslub xotirani rivojlantirish va uning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. U "Loki" nomi bilan ham mashhurdir. Loki so'zining lug'aviy ma'nosi "makon", "joy" deganidir. Demak, makon uslubini degan nom bizning maqsadimiz uchun ham juda mos keladi.

Makon usuli asosiy ikki g'oyani ilgari suradi:

1. Siz eslab qolishingiz uchun kerak bo'lgan tartibda, o'zingizga ma'lum makonlarni (joylarni) tanlab chiqing, ularni hammasini yaxshilab o'rganing, uni o'rni-o'rni bilan yaxshi eslab qolishingiz kerak. Tanlangan makon sizga juda yaxshi tanish bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

2. Eslab qolishingiz uchun kerakli dalillarni o'sha makonlar

## So'z yodlash sirlari

bilan bog'lang. (2-rasmda siz so'z yodlashda foydalanishingiz mumkin bo'lgan makondan namuna ko'rsatilgan).

Eplay olishingizga shubha qilayapsizmi? Bir harakat qilib ko'ring, harakat qilmay turib, qo'lingizdan kelish-kelmasligini bila olmaysizku axir. Masalan, makon sifatida o'z uyingizni olaylik. Negaki uy sizga tanish bo'lgan eng oson makonlardan tashkil topgan. Uyingizning xonalari misolida makon tuzib chiqing: oshxona, mehmonxona, dahliz, hovli, mahalladagi inshoot yoki bino, uyingizdan o'qish yoki ishxonangizga boradigan yo'ldagi joylar. Muhimi, ular ketma-ket kelsin va har birining orasidagi masofani bir xil qilishga harakat qiling. Quyidagi 10 ta raqam ro'parasiga o'zingiz tanlagan makonlarni yozib chiqing.

1.	
2.	
3.	
4.	
5.	
6.	
7.	
8.	
9.	
10.	

Agar 10 ta tanish makonni tanlab, yozib bo'lgan bo'lsangiz, unda siz yangi so'zlarni yodlashga tayyorsiz. Agar xohlasangiz, 2-rasmda ko'rsatilganidek bir xonaning ichida turli makonlarni tanlashingiz mumkin. Yoki alohida xonalarni ro'yxatga kiritsangiz bo'ladi. Bularning hammasi tasavvuringizga bog'liq.

Deylik, siz bozorga ketmoqdasiz. bozordan quyidagi mahsulotlarni olib kelishingiz kerak va aynan xotirani sinash uchun ularning yozma ro'yxatini tuzmay, faqat xotirangizga suyanishingiz lozim:

**kartoshka**  
**sabzi**  
**pomidor**  
**karam**  
**disk**  
**Koka-Kola**  
**olma**  
**o'rik**  
**gazeta**  
**yog'**

Birinchidan, uyingiz bu - **MAKON**. Oshxonadan boshlaymiz. Oshxonaga kirasiz va u yerda **kartoshka** o'sib chiqqanini ko'rasiz (sal g'alatiroq misol bo'lsada, zarari yo'q! Aynan shunday g'ayrioddiy fikrlar xotirada yaxshiroq qoladi). Keyin mehmonxonaga kirsangiz, u yerda dasturxon ustida **sabzilardan** gul yasalganini ko'rib hayron qolasiz. So'ng, hovliga chiqsangiz hamma joyga **pomidor** qip-qizil bo'lib yoyilib yotibdi, hoynahoy, shumtaka bolalar o'yin o'ynashgan. Ozgina yurib, tomorqada bahaybat **karam** o'sib chiqqanidan ajablanasiz va shu **karamni** tortib-sug'urib ko'rishga urinasiz, lekin hech ham iloji bo'lmaydi. Keyin esa, darvoza yoniga borasiz, osmondan yog'ayotgan disklar yomg'iriga duchor bo'lasiz. Yo'lingizdagi darvozani ko'rib, yana bir bor hayron qolasiz, chunki darvoza **Koka-Kolaning** rangidek to'q rangga kirib qolgan. Undan so'ng shu darvozangizdan tashqariga chiqishga uringaningizda, bilasizki, **olma va o'rik** daraxtlari birlashmasidan hosil qilingan antiqa daraxt o'sib chiqib, darvozadan

## So'z yodlash sirlari

chiqishingizga xalaqit beradi. Vo ajabo, deb amallab ko'chaga chiqasiz va har kuni kelib sut sotadigan ayolning bugun sutning o'rniga **yog'** sotayotganini ko'rasiz. "Kelib qolinglar, yog'lar bor" deya hammani oldiga chorlayotgan ayolning oldiga borsangiz, hamma yog' idishlari gazetalar bilan o'ralib chiqqanini ko'rib, yog' olish fikridan qaytasiz. (3-rasm, 65 - betga qarang)

Ana endi, bozorga borib nimalar olib kelishingiz kerakligini hech qayerga yozmasdan bir eslab ko'ringchi! Bu juda oson, shunday emasmi?

Umuman olganda, makon tizimi xuddi javonga o'xshaydi, siz o'zingizga kerakli bo'lgan ma'lumotni javon tortmalariga birma-bir joylashtirib chiqasiz va shu orqali so'zlarni tartibga keltirasiz. Agar qayta eslash kerak bo'lsa, u holda tortmaga borasiz va yana qayta eslayverasiz. Bir marta foydalanilgan makon esdan chiqib tozalanadi va uni yana boshqa tasavvur va obyektlar bilan to'ldirsa bo'ladi.

Shuningdek, aytish mumkinki, kundalik hayot uchun odatda 100 ta makon yaratishning o'zi kifoya. *Masalan*, uyingizdan tortib to o'qish yoki ishxonagacha bo'lgan yo'ldagi 100 ta makonni qayta-qayta ishlataverasiz.

Yana shuni bilish kerakki, so'z yodlaganda, bir makonda yangi so'zni yozasiz va uni bir ikki takrorlaganingizda, o'sha makondagi tasavvur ish berishi mumkin va o'sha so'z qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli xotiraga o'tganidan keyingina siz makoningizni tozalab, tasavvurni ishlatmasangiz bo'laveradi. Bilingki, tasavvur va makonni ishlatish so'zni dastlabki hazm qilishni tezlatishga xizmat qiladi. (4-rasm. 65 - betga qarang).

**1-Mashq.**

Keyingi darslarda so'z yodlash uchun makonning zarur ekanligini hisobga olsak, o'zingiz uchun qog'oz va ruchka oling-da, uyingizdan boshlab to o'qishingizga qadar 30 ta makonni tanlab chiqing. Makon tanlayotganingizda har biri tasavvur qilish va bog'lashga oson joylarni tanglang. Iloji bo'lsa, makonlar oralig'ini bir xil qilib oling.

*Masalan:*

1. Yotoqxonadagi deraza tokchasi;
2. Yotoqxonadagi kompyuter stoli;
3. Koridordagi kiyim ilgich;
4. Zaldagi katta stol;
5. Xonaning eshigi;
6. Oshxonadagi gaz plitasi;
7. Muzlatgich;
- 8.....
- 9.....
10. Mahalladagi do'kon;
- .....
- .....
- 30.

*Agar hamma kerakli makonlarni tuzib chiqqan bo'lsangiz, ko'zingizni yumib bu makonlarni hayolan kezib chiqing. Bu sizga ketma-ketlikni to'g'ri eslab qolishga yordam beradi.*

*Agar shu makonlarni tayyorlagan bo'lsangiz, ana endi siz asosiy usulni o'rganishga tayyor bo'lasiz.*

4-bob.

**YANGI TILNI O'RGANISH —  
SO'Z BOYLIGINI OSHIRISH DEMAKDIR**

*"Those who know nothing of foreign languages know nothing of their own."*

— Johann Wolfgang von Goethe

*"Chet tillar haqida hech narsa bilmaydigan odam oʻz tili haqida ham hech narsa bilmaydi."*

— Iogann Volfgang fon Gyote


Chet tilini o'rganishning eng qulay usuli bu - o'sha tilda gaplashayotganlar bilan yaqin muloqot o'rnatishdir. Xorijliklar bilan suhbat sizni til o'rganishga yanada kuchliroq undaydi. Chet tilini puxta o'rganishdagi keyingi muhim omil bu — o'quvchining o'z oldiga aniq bir maqsadni qo'ya olishidir. Bu ikki omil chet tilini o'rganishni yanada osonlashtiradi.

Odatda, yangi tilni o'rganayotgan inson uchun chet tilidagi so'zlar dastlab notanish ohangda jaranglaydi va o'quvchi uchun umuman tushunarsiz bo'ladi. Bu xuddi o'zga sayyoralikning oldingizga kelib gapirishi, siz esa uni tushunmaganingizga o'xshaydi. Biz quyida tasvirlaydigan usul esa, so'zlarni qisqa muddatda unumli yodlashga yordam beradi. To'xtang, bizni aslo noto'g'ri tushunmang! So'zlarni unumli yodlash deganda biz Garri Potterning sehrli tayoqchasi haqida gapirmayapmiz yoki "Sariq devni minib" asari qahramoni Hoshimjon singari hammasiga mehnatsiz erishasiz degani emas. Aksincha, bu usul sizning takrorlashingiz miqdorini kamaytirib, yodlash jarayonini faol bo'lishiga hamda yangi yodlangan so'zlarni gaplarda ko'proq ishlatishga yordam beradi. Agar bu usulni tushunib, yangi so'zlarni yodlasangiz, tilni yaxshi tushunishingizga ko'mak beradi.

Buning qisqacha mazmuni shundan iboratki, yangi so'zning *talaffuziga* e'tibor berib uni o'zingiz biladigan so'z bilan bog'lagan holda eslab qolasiz.

## KALIT SO'Z USULI YOKI FONETIKAGA E'TIBOR

Bu o'rinda asosiy texnika "kalit so'z" texnikasi bo'lib, buni talaffuz uslubi deb ham atashadi. Aytaylik, qaysidir so'zni o'yladingiz, misol uchun, "**a dish**" (ingliz tilida "idish" degani) endi siz uning qanday talaffuz qilinishiga e'tibor berasiz va uni o'zingizga ma'lum bo'lgan ohangdosh tushuncha bilan bog'laysiz. So'ng esa shular asosida g'ayrioddiy tasavvur o'ylab topib, tanish makonga joylashtirasiz, va paydo bo'lgan yangi tushunchaga doir gap tuzib qo'yasiz. Yangi so'z bilan hamohang gap tuzish bu yerda alohida qo'shimcha bo'lib, bunday gap tuzilganda, yangi so'zning xotirangizda saqlanishi va undan faol suhbatda foydalanish darajasi ortadi.



5-rasm

Nazariyadan aniq misollarni tushuntirishga o'tsak. Inglizcha **yangi so'z** uchun **a dish** so'zini oladigan bo'lsak, so'zning eshutilishiga e'tibor bering: a dish, a diiish /e-dish/ ... Bu sizga ma'lum bo'lgan qaysi so'zga ohangdosh? Kingadir u tish so'zi bilan o'xshash ko'rinishi mumkin. Bizningcha, **idish** so'zini **a dish** so'ziga ohangdosh va kalit so'z sifatida olsak, yaxshi bo'ladi. Qolaversa, a dish so'zining **ma'nosi** aynan "idish"dir. Keyingi bosqich bu idish so'zi hamda a dish so'zlarini **antiqa tasavvur** orqali bog'lashdir. Tasavvur qilingki, idishni bir do'stingizga berayotganingizda, do'stingiz sizga "Idish so'zining inglizchasi a dish bo'ladi" deb aytdi. "A dishning o'zbekchasi idish bo'ladi" deb gap tuzib olamiz. E'tibor bering, yangi so'z va kalit so'zlar ishtirok etgan **ohangdosh gap** yodlashni



## So'z yodlash sirlari

tezlashtiradi. Qanchalik kulgili va g'ayriodatiy holatlarni tasavvuringizda jonlantirsangiz, yangi so'z miyangizda shunchalik ko'p esda qoladi. Bu orqali yangi so'zni hech qanday qat'iy takrorlashsiz eslab qolishingiz mumkin. Bu so'zni mustahkam eslab qolish uchun uni oz-oz takrorlab, so'zlashuv nutqida ishlatish ham juda foydali bo'ladi.

Hozir esa bu metodikani yanada yaxshi tushunishingiz uchun 9 ta misolni 9 ta makonda keltirib, bu so'zlarni hozirning o'zida sizning miyangizga joylasak. Quyidagi so'zlarda dastlab yangi so'z berilib, keyin uning ma'nosi, so'ng o'sha so'zga kalit so'z, antiqa tasavvur hamda ohangdosh gaplar keltirilgan.

Biz nazarda tutgan 9 ta so'zni yodlashdan oldin, biror kengroq makon tanlab oling yoki avvalgi bobda tuzib chiqqan tanish makondan foydalaning. *Masalan*, katta bozor, mahalla guzari, maydon yoki shunchaki dars qilib o'tirgan xonangizni tanlash mumkin. Demak, so'zlarni yodlashni boshladik!

**Bizarre** /biza:/ - *g'alati*. Bu so'zni o'zbek tilidagi bozor so'ziga bog'laymiz. Shundan tasavvur qilamizki, chetellik mehmon uchun bizning bozor g'alatidek tuyuldidida, u "*bizarre bu - bozor*" deb, bozordan narsalar xarid qilaveradi.

(6-rasm)



**Push** /push/ - *itarmoq*. Bu so'z uchun o'zbekcha "*Po'sh-po'sh!*" ni tanlaymiz. Yana bozorni eslaymizda u yerda aravakash "*po'sh-po'sh*" deb aravani itarib ketayotganini tasavvur qilamiz.

(6-rasm).


**Grin**/grin/- *kulmoq*. Bu so'zni ingliz tilida hammaga tanish bo'lgan Green "yashil" so'ziga assotsiatsiya qilamiz. Ko'p kulgan odam ko'karib yoki qizarib emas, balki yashil rangga kirib ketadi. Ohangdosh gap: *Odam Grindan Green rangiga kirib ketdi.*

**Rigorous**/rigori:s/ - *qattiqqo'l*. Bu so'zga esa Tiger-yo'lbars so'zini bog'laymiz. *Rigorous tiger tashqariga chiqishingizga to'sqinlik qiladi.*

**Fiasco**/fiaskou/ (italyan tilidan ingliz tiliga kirib kelgan) - *muvaqqiyatsizlik*. Fiaskoga maska ohangdosh bo'ladi. Ballga borganingizda boshqalarni hayron qoldirish uchun maska (niqob) taqib borasiz-u, ammo sizga maska hech qanday yordam bermay, butunlay fiaskoga uchraysiz. Ohangdosh gap: *Maska - fiaskoga sababchi.*

**Eminent**/eminent/ - *mashhur*. Bu so'zga esa o'zingiz bilgan qofiyadoshini topish muammo bo'lmasa kerak - qo'shiqchi Eminem. Tasavvur qilamizki, Mashhur rep qo'shiqchisi Eminem kuylayotganda, qo'qqisdan chiroq o'chib qolib, fonogrammada kuylayotgani ma'lum bo'lib qoladi. Bir gap bilan aytganda, *Eminent Eminem couldn't sing very well.*

**Pull** /pul/- *tortmoq*. Yuqoridagi push so'zining antonimi. Bu so'zga o'zbek tilidan qofiyadosh so'z topish ham mushkul ish emas. Keling, o'zbekcha pul so'zini tanlaylik. Endi pulni biz pull qilayotganimizni, ya'ni torta-yotganimizni tasav-



(7-rasm)

vur qilamiz. *Bozordagi savdogarlar xaridorlardan pulni pull qilmoqda. They are pulling the "pul-so'm" from the people.*

## So'z yodlash sirlari

**Pool** /pu:l/- *basseyn, havza*. Bunda ham kalit so'z qilib pulni - o'zbek so'miniolamiz va tasavvurimizda basseyn ya'ni pool to'la pul ekanligidan hayron qolamiz. *There is much money or "pul" in the pool.*

**Nearly** /nieli/ - *deyarli* degan so'zning shunchaki o'zbek tilidagi tarjimasidan ham ma'nosini va qofiyadoshini topishingiz mumkin. *Nearly bu - deyarli.*

Ana endi yuqorida tushuntirilgan texnikalarni quyida 3 xil holat bo'yicha ko'rib chiqamiz!

1. *O'zbek tiliga moslashtirish.*
2. *Yodlash qiyin bo'lgan so'zlarga nisbatan qo'llash.*
3. *Umuman aloqadorlik bo'lmagan hollarda ham eslab qolish.*

### || O'ZBEK TILIGA MOSLASHTIRISH USULI ||

Ingliz tilida so'z yodlayotgan o'quvchi yana bir qiziq holatga duch kelishi mumkin. U ham bo'lsa, ba'zi inglizcha so'zlarning o'zbekcha so'zlar bilan nafaqat ohangdosh, balki ma'nodosh ekanligi hamdir. Albatta, bunga o'xshagan so'zlar sanoqli, lekin harakat va izlanishlar orqali bunday so'zlarni ko'plab topishingiz va so'z boyligingizni yanada boyitishingiz mumkin.

*Quyida shunday so'zlardan misollar keltiramiz:*

#### **Inglizcha - O'zbekcha**

<i>a dish</i>	-	<i>idish</i>
<i>to chop</i>	-	<i>chopmoq</i>
<i>the wall</i>	-	<i>devor</i>
<i>daddy</i>	-	<i>dada</i>
<i>a voice</i>	-	<i>ovoz</i>
<i>asphalt</i>	-	<i>asfalt</i>
<i>galosh</i>	-	<i>kalish</i>
<i>pistachio</i>	-	<i>pista</i>

<i>candy</i>	-	<i>qand</i>
<i>candle</i>	-	<i>qandill/shag'am</i>
<i>drill</i>	-	<i>drel asbobi</i>

Bu usulda asosiysi - so'zlarni mantiqiy bog'lashga urinishdir. So'zni yodlash paytida "nima uchun?" va "qanday qilib?" degan savollarni o'zingizga berib ko'ring. Har bir so'zning o'ziga xos jihati bo'lib, ularni shaxslarga o'xshatish mumkin. Qancha ko'p so'z yodlasangiz, shuncha ko'p tanish orttirasiz. Yanada ko'p mashq qilishingiz uchun ingliz tilidagi so'zlarning o'zbek tiliga qofiyadoshlari bilan ko'proq misollar bilan keltirganmiz (*1- ilova, 13-mashq*). Ularni ko'rib chiqib o'zingiz ham bu ro'yxatni yanada boyitishingiz mumkin.

Xo'sh, so'zlarni osonlik bilan yodlash qo'lingizdan kelarmikan? Misollarni taqdim qilishdan maqsad - turli murakkablikdagi so'zlarni mnemonik usul orqali osonlik bilan yodlab qolish mumkinligini ko'rsatib berishdir.

## **2. Yanada murakkabroq so'zlarni yodda saqlash.**

Xotiramizning yana bir ajoyib usuli bu uzun yoki ko'p bo'g'inli bo'lgan so'zlarni mayda-mayda bo'laklarga ajratib, har biri alohida yodlansa, yaxshiroq saqlanib qoladi. Aynan shuni biz yodlash murakkab bo'lgan so'zlarga tatbiq qilamiz. Unda ko'p bo'g'indan tashkil topgan so'zlarni bir qancha bo'g'inlarga bo'lib, har biri bo'yicha assotsatsiyalarni yaratamiz.

Yodlash jarayonida so'zlarni 3 ta guruhga ajratish maqsadga muvofiq, negaki har bitta so'zni yodlashda bir xil usulni qo'llash to'g'ri emas: Nisbatan tanish so'zlar - bularga odatda, ongingizda bog'liqlikni tez hosil qiluvchi so'zlarni kiritish mumkin. *Masalan*, push va pull. Nisbatan notanish va umuman notanish so'zlar deganda birinchi o'qishdanoq ongimizda o'xshash tushuncha hosil qilmaydigan so'zlar tushuniladi.

Odatda, nisbatan tanish va nisbatan notanish bo'lgan so'zlar ongingizda o'xshash tushuncha hosil qila oladi. Umuman,

## Soʻz yodlash sirlari

notanish va murakkab boʻlgan soʻzlarning oʻqilishini qayta takrorlab va ikki-uch guruhga boʻlib yodlash ijobiy natija beradi. Bunday soʻz bilan bir marta gap tuzilgandan keyin qolganlari bilan ham gap tuzib chiqish mumkin boʻladi. Masalan, ingliz tilidagi **comfortable** [kɒmfɔtbl] soʻzini olaylik. Uni osonroq eslab qolish uchun ingliz tilidan bizga maʼlum boʻlgan uchta maʼnoli boʻlakka ajratamiz: 1) come [kʰm] - kelmoq; 2) for [fɔ:] - uchun; 3) table [teibl] - stol. Endi, garchi ingliz tili nuqtai nazaridan juda toʻgʻri boʻlmasa ham, soʻzni yodlash uchun shu uchala tarkibiy qismdan gap tuzamiz: Come for table, it is very comfortable - stolni (olish) uchun kel, u juda qulay. Natijada, bunday gap tuzilgandan keyin, **comfortable** soʻzi xotirada juda oson saqlanib qoladi.

Yana bir murakkab soʻz bu - martyrdom (mertirdom) - qiyinchilik, azob chekishdegan maʼnolarga ega. Uni 3 ga boʻlamiz: mar- tir - dom, mar bu yerda mer (shahar meri), tir bu miltiq/qurol, dom esa uy degani va bularni bir tasavvurda birlashtirib, Mer oʻz uyida tirni rosa qidirib juda qiyinchilikka duchor boʻladi.

### 2-mashq.

Sizning yanada yaxshi tasavvur qilish qobiliyatingizni rivojlatirish maqsadida **TARVUZ** va **PIANINO** soʻzlarini oʻzingizga maʼlum boʻlgan makonda quyidagi texnikalar yordamida bir-biriga bogʻlashga urining.

*Bunda quyidagi noodatiy tasavvur qilish qoidalarini qoʻllashingiz mumkin.*

1. Tarvuz va pianining hajmini oshirib yuborish;
2. Ularning sonini koʻpaytirib yuborish;
3. Ikki jismni bir-biri bilan toʻqnashtirish yoki portlatib yuborish;
4. Ularning xususiyatlarini oʻta boʻrttirish;
5. Tarvuz va pianino yordamida biror hissiyotni ifodalash;
6. Ularga nisbatan rang-baranglikni qoʻllash;

**3-mashq.**

Mayday, sittersvaammuniton so'zlari uchun o'zingiz biladigan so'zlardan aloqadorlarini toping. Aloqador so'zni topishda esa quyidagi usullardan birini ishlatibko'ring.

1. Har bir so'zning talaffuzini biroz o'zgartirib ko'ring.
2. Bir undosh yoki unli tovushni boshqa tovush bilan almashtiring.
3. So'zdan oldin va keyin boshqa so'z va qo'shimchalarni qo'shing.

**3. Umuman so'zni yodlashga assotsatsiya kelmasachi?**

➡ Agarda yuqoridagi usulni qo'llab hech qanday aloqadorlik hosil qila olmasangiz, ingliz tilini mukammal biladigan insondan yordam so'rab, topishga qiynalayotgan aloqador so'zlarni hosil qilishingiz mumkin.

➡ Aytaylik, ingliz tilida murakkab va yodlash qiyin bo'lgan yangi so'zlarga duch keldingiz, masalan: **to leave** [li:v] - ketmoq. Agar siz shu so'zga aloqador hech qanday so'z topa olmasangiz, so'zni assotsiatsiyalar beradigan qismlarga bo'lib chiqing. Bu so'zni esa ikkiga bo'lamiz (LI-V): Li - bu Jet Li - mashhur aktyor, V esa V harfi. Siz endi Jet Lining qo'lida V harfini ushlab ketib qolayotganini tasavvur qiling.

➡ Agar shunda ham aloqador so'z topa olmasangiz, qo'shimcha yordamchi usullardan foydalanib, xohlasangiz ichingizda so'zni bir necha bor takrorlab ko'ring. Ko'zni yumib yangi so'zni olov bilan harfma-harf yozib chiqing. Yoki ichki ovozingiz bilan baqiring va so'zni takrorlang - bu ham yaxshi natija beradigan usul hisoblanadi.

➔ So'zni ovoz chiqarib takrorlashga urining. Bu orqali eshitish xotirangizni faollashtirasiz. So'zga e'tibor berib, miyangizga qanday tasvir kelgan bo'lsa o'sha tasvirni so'z bilan eslashga urining. Nevrologlarning ta'kidlashicha, agar yangi so'zning tasvirini nimani eslatishi bilan eslab qolsangiz, u kuchliroq va tezroq xotirada qoladi. Misol uchun, **GARGANTUAN** - juda katta degani bo'lib, gigant, ulkan so'zlariga ham sinonimdir. Bu so'zga Godzilla, Gerakl yoki bahaybat va juda katta Gorilla maymunini tasavvur qilishimiz kerak. Paydo bo'lgan tasvirni iloji boricha kuchli hissiyotlar bilan boyitishimiz lozim. **GARGANTUAN** Godzilla sizga hujum qiladi va qo'rqib ketasiz.

### 4-Mashq

Insonning ma'lum mavzu bo'yicha salohiyatini bilish uchun o'sha mavzuga oid so'z bo'yicha ko'pi bilan nechta assotsiatsiya keltira olishini aniqlash kifoya bo'ladi. Shuning uchun siz hozir Mukammal Xotira so'ziga bir daqiqa davomida nechta assotsiatsiya so'zni keltira olishingizni hisoblang. Assotsiatsiyada miyangizga kelgan har qanday so'zlarni yozib qolishga harakat qiling. Natijangizni esa do'stingizning natijasi bilan solishtirsangiz, mavzu yuzasidan kim ko'proq bilimga ega ekanligi ayon bo'ladi.

Iloji boricha tasavvur qilish qobilyatingizni va assotsiatsiya qobilyatlaringizni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar bilan ko'proq ishlang.

Quyida esa kitobimizda ta'riflangan usullarni o'zida tatbiq qilgan o'quvchining fikrlarini keltiramiz. Agar texnika to'g'ri qo'llanilsa, u albatta yordam beradi.

➡ Kitobda berilgan usullardan menga eng ko'p foyda bergani bu tasavvur qilish usulidir. Ba'zi oson so'zlar ham esimdan chiqib ketaveradi.

*"Misol uchun, **to confuse** so'zi. Bu so'z nima uchundir, doim esimdan chiqib qolar edi. Men bu so'zni yodlashda **confuse - chalkashtirmoq, aralash-tirmoq** so'zlarini tasavvur qilishga urindim. Xayolimga uyimning ostonasi keldi va u yerda chalkashib ketgan oyoq kiyimlari turar edi. Natijada, bu so'zni eshitishim yoki o'qishim bilanoq, chalkashib ketgan oyoq kiyimlari ko'z oldimga kela boshladi. Bu usuldan foydalanib vaqtga qarab so'z yodladim. 1 soatda 70 ta so'zni yodlay oldim."*

**Sharipova Nodira, talaba.**



5-bob.

LUG'AT DAFTARI TUTISH SAN'ATI

*"Learning another language is not only learning different words for the same things, but learning another way to think about things."*

— Flora Lewis

*"Boshqa tilni o'rganish faqatgina boshqa so'zlarni o'rganish emas, balki narsalar haqida boshqacha fikrlashni o'rganish hamdir."*

— Flora Lyuis

Har bir inson hayotida eng muhim lahzalar, insonlar, hodisalarni imkon boricha saqlab qolishga urinadi. Ular haqidagi ma'lumotlarni kundaligiga yozadi, ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qiladi, fotoapparat yordamida rasmga oladi. Bu urinishlarning hammasi nimaga qaratilgan? Albatta, ular hayotdagi eng muhim ma'lumotlarni uzoq vaqt, balki, butun umr saqlab qolishga intilishidir. Axir, har biringizning xotirangiz parchalari saqlanuvchi daftarlar, suratlar, video tasvirlar bor-ku, shunday emasmi?

Endi, yangi so'zlar yodlash masalasiga kelsak, ular ham o'quvchi uchun juda muhim. Chunki, aynan ular tufayli o'quvchi bilim oladi, shu bilgan so'zlari va olgan bilimlari tufayli oddiy o'quvchidan o'qituvchiga, kuchli mutaxassisga va yana buyuk olimga aylanadi. Demak, har bir o'rganayotgan yangi so'zimiz qunt bilan o'rganilish va xotiramizga muhrlanishga munosib ekan.

Lug'at tutishning ahamiyati shundaki, siz yangi so'zlarni bir joyga to'plab borasiz va ularni takrorlash kerak bo'lganda so'zlarni qayerdan topish kerakligini bilasiz. Ba'zilar ingliz tili o'rganayotganda, lug'at daftari tutish shart emas deb o'ylaydi, ammo ular qattiq adashadi. Chunki kichkina bo'lsa ham lug'at daftari o'rganilgan barcha yangi so'zlarni bir joyga jamlab, takrorlash va keyinchalik ularni yanada mustahkamlash uchun juda qo'l keladi. Shunday ekan, lug'at daftarini tutish va uni to'g'ri yuritib borish ingliz tilini o'rganishdagi asosiy omillardan biri

bo'lib qoladi.

Ma'lumki, yaxshi mutaxassis yoki ingliz tilining bilimdoni bo'lib yetishishingiz uchun siz minglab so'zlar yodlashingiz kerak. Bu haqda yuqorida so'z yuritdik. Keyingi masala, shu maqsadga aynan qanday qilib yetishish mumkin? Sizga yangi so'zlarni ko'plab va samarali yodlay olishingiz uchun asosiy yordamchi bu - lug'at dafatingizdir.

**Lug'at daftari** - har bir inson tutishi lozim bo'lgan yordamchidir. Ko'pchilikning lug'at daftari zerikarli, bee'tibor, pala-partish bo'ladi. O'quvchilar bunday tartibsizlik yangi so'zlarni eslab qolishga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida o'ylab ham ko'rmaydilar. Quyida biz ideal lug'at daftari qanday ko'rinishda bo'lishi mumkinligi haqida so'z yuritimiz:

1) Lug'at daftaringizda **turli xil rangdagi** ruchkalardan foydalaning. Lug'at tutishdagi eng katta xato -bir xil rangli ruchka ishlatishdir. Tasavvur qiling, lug'atdagi hamma so'zlar ko'k rangda yozilgan, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, manzara naqadar zerikarli! Aynan shundan keyin bola o'qishdan zerikadi-da! O'quvchining ijodkorlik, kreativlik xususiyati pasayib ketadi. Nega aynan ko'k ruchka? Bu savolga javob o'qitish metodikasiga singib ketgan odatga borib taqaladi. Unda bilamizki, o'qituvchi - asosiy bilim beruvchi, o'quvchi tinglovchi-o'rganuvchi - o'rganish esa bir tomonlama bo'lgan. O'qituvchi daftarlarni tekshirganda, o'ziga oson bo'lishi uchun qizil ruchkadan foydalangan. Demak, o'z-o'zidan qizil - o'qituvchining ruchkasi, ko'k - o'quvchining ruchkasi bo'lib qolgan. Bu narsa bizning miyamizga o'rtnashib qolgan. Oqibatda, haligi o'qituvchilar o'quvchilarga qizil ruchkalardan foydalanishni ta'qiqlab, bolaning asl qobiliyatini beixtiyor so'ndiradi. Endi tangananing boshqa tarafiga qarasaq, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bir xillik - monotonlik va monoranglik miyamiz uchun judayam zerikarli ekan. Shu asnod, miyamiz zerikkan narsaga e'tibor qaratmaydi. Rang-baranglik miyamizda uxlayotgan ajdarhoni uyg'otib yuboradi va esda qolish jarayonini yanada oshiradi.

2) Soʻzlar oldiga **rasmlar chizish**. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, agar soʻzlarning oldiga rasm qoʻyib yodlasangiz, eslab qolish ehtimoli oshar ekan. Ayniqsa, lugʻat daftaringizdagi qiyin va yaqqol tasavvurga moyil yangi yodlanadigan soʻzlarga rasm chizish kerak. Eng muhimi, chiroyli chizish emas, balki, yangi soʻzga moslab chizish kerak. Bundan uyalmaslik ham kerak. Axir, qachongacha uyilib, foydali ishlardan oʻzingizni tiyib yurasiz?! Undan tashqari rasm sizning fotografik xotirangizni biroz boʻlsa ham jonlantiradi.

3) Qoʻshimcha aloqador soʻzlarni yangi soʻzga qoʻshib boring. Lugʻatda faqat soʻzlar va ularning tarjimasini emas, balki ular bilan birgalikda **sinonim va antonimlarini** ham yozib borish juda muhim hisoblanadi. Lugʻatdagi soʻzlar oʻrtasida qanchalik koʻp aloqadorlik boʻlsa, shunchalik yaxshi esda qoladi.

Doimo inglizcha-oʻzbekcha, inglizcha-inglizcha hamda oʻzbekcha-inglizcha lugʻatlarga ega boʻling. *Thesaurus* deb nomlangan sinonim va antonimlar lugʻati - ish qurollaringiz boʻlsin. Lugʻat kitoblaridan koʻra hozirda elektron lugʻatlarni ishlatish urf boʻlmoqda. Sababi ular ancha qulay hamda foydalanish nisbatan kamroq vaqt talab qiladi.

4) **Ijodiy qobilyatingizni** ishga soling. Turli xil naqshlardan foydalaning va daftaringizni bezang. Keyinchalik, unga qaraganingizda havas bilan qaraydigan boʻling. Shu bilan birga, lugʻat yodlanganda, oʻzingiz uchun qonun-qoidalar yaratish va shu qonun-qoidalar boʻyicha lugʻat daftarini yodlashingiz yaxshi natijalar beradi. Shunday qonuniyatlardan biri bu soʻzlarni guruhlarga ajratish va ularni turli xil ruchkalar bilan yozib borishdir. Qora ruchka bilan feʼllarni, koʻk ruchka bilan otlarni, va qizil ruchka bilan sifatlarni yozish mumkin. Albatta, qaysi guruhdagi soʻzlarni qaysi rang bilan yozish sizning mustaqil tanlovingizdir.

Yoki lugʻat daftari yozishga erkinlik berib, oʻz ustingizga ishlashga harakat qiling, yangi soʻz haqidagi ilk

*taasurol*laringiz va so'z bo'yicha shaxsiy fikrlaringizni yozing. Inson odatda bir mavzu yuzasidan o'z shaxsiy fikrini yaxshi eslab qoladi.

Yana bir muhim masala bu - biror so'zni allaqachon lug'at daftariga yozilgani va uning yodlanganini unutib qo'yishdir. Ba'zida lug'atda bor so'zni yana ikkinchi yoki uchunchi marta qayta yozish mumkin. Bunga sabab, o'sha so'zning yaxshi yodlanmaganligi va uning unutilganligidir. Shunday holatni sezgan o'quvchi tezkorlik bilan ish ko'rishi darkor. Masalan, ikkinchi marta yozgan so'ziga 2X belgisini qo'yishi tavsiya etiladi. Keyinchalik bu so'zni ko'rganida yaxshiroq yodlashga urinadi. 3X yoki 4X belgisiga ega bo'lgan so'zlarni esa astoydil qaytadan ko'rib chiqish darkor bo'ladi.

Tajribamizda bir til o'rganuvchi shuni alohida ta'kidladiki, o'zini tekshirish uchun u doim so'zni yopib qo'yib, so'z haqida yozgan eslatmalarini o'qish, uning tarjimasini aytishga harakat qilar ekan. Agar so'zni bilsayu lekin tarjimasini chiqara olmasa, so'zning oldiga qizil nuqta qo'yar ekan. Agar qaysidir so'z oldida uchta qizil nuqta qo'yilgan bo'lsa, demak u so'zga ko'proq e'tibor berilishi kerak. Agar yozgan so'zini eslashga qiynalsa, uni siyohrang yozuv bilan ajratib qo'yar ekan va bu bilan shu so'z haqida yanada ko'proq axborot qabul qilish kerakligini anglab olar ekan. Garchi, xuddi siz kabi o'quvchining tajribasi haqida so'z borayotgan bo'lsada, undan lug'at daftarini yuritishda ko'p o'rnak olish mumkin, deb o'ylaymiz.

Umuman, ijodiy qobilyatingizni ishga solish degani, noodatiy uslublardan foydalanib, har bir yozadigan so'zingizni o'ziga xos tarzda qayd etish deganidir. Buning natijasida o'ziga xos so'zlar o'ziga mos usulda yodlanadi.

5) So'zlarni oldiga **gaplar tuzib ham** keting. Gaplar tuzib ketish so'zni faol ravishda yodlashga olib keladi va uni keyinchalik boshqa gaplarda ishlatilishiga olib keladi. Agar sizga qiyin bo'lmasa, yana bir qo'shimcha: o'zingiz yodlab va kundaligingizga kiritib borayotgan yangi so'zlar joylashgan

## So'z yodlash sirlari

gaplar, matn, she'r va boshqalardan parchalarni ham yozib borsangiz, natija yana ham yaxshi bo'ladi.

**5-mashq.** O'zingizning eng yaxshi ko'rgan so'zlaringizdan yangi so'zlarni o'rganishda foydalaning. O'zingiz eng yaxshi ko'rgan 10 ta va 100 ta so'zlarning ro'yxatini tuzing. Avvalo, ularning ma'nolarini aniqlash uchun lug'atdan foydalaning. Ikkinchi navbatda eng yaxshi ko'rgan so'zlaringizning sinonimlarini topib yozing. Bu jarayonda siz juda ko'p yangi so'zlarga duch kelasiz va ularning ko'pchiligi sizning sevimli so'zlaringizga aylanadi.

6) So'z bo'yicha qancha **ko'p ma'lumot olib kirsangiz** uni eslab qolish ham osonlashadi. Lug'atda yozgan so'zingiz bo'yicha keyinchalik yangi ma'lumot topsangiz, darhol uni tegishli joyga yozib qo'ying. Bu takrorlash ham miyamizdagi neyronlarning qayta qalinlashib, ma'lumotning yaxshi esda qolishiga sabab bo'ladi. Undan tashqari siz bir so'z haqida qanchalik ko'p ma'lumotga ega bo'lsangiz, u qayta eslab qolish shunchalik yaxshi bo'laveradi. Kelajakda nutqingiz va yozuvlaringizda ham uni ishlatish imkoniyatingiz kengayadi.

Yangi so'zning oldiga uni qachon va qanday yodlaganingiz yoki eslashga yordam beradigan har qanday ma'lumotni yozib borish uni tez qayta eslashga yordam beradi.

Kelinglar shu yerda ozgina nafasni rostdab olaylikda, lug'at daftaridan namunaga bir nazar solaylik. Bu namunada siz so'z yodlash borasidagi urinish va o'quvchining ijodiy qobiliyatini ro'yobga chiqarishning uyg'unlashganini ko'rishingiz mumkin. (8-rasm. 66-betdagi rasmga qarang!)

Rasmda ko'rsatilgan lug'at daftaridan shuni anglash mumkinki, biz tavsiya qilgan usullarning hammasini birdaniga har bir so'z uchun tatbiq qilish yaramaydi. *Masalan,*

ba'zi so'zlarni rasmda ifodalash oddiy o'quvchi uchun biroz mushkul bo'lishi mumkin. Biz lug'at daftari tutishni sizga o'rgatar ekanmiz, har bir qoidani qo'llash eng oson va samarali bo'lgan so'zga nisbatan ishlatishni aytib o'tmoqchimiz.

Hamma so'zga rasm chizish yoki sinonimlarini yozish kerak degan qat'iy qonundan yiroqmiz. Aksincha, moslashuvchan bo'lish lozim. Chunki, qaysidir o'rinda rasmni chizish, qaysidir o'rinda sinonimlarni yozish, va yana qaysidir o'rinda gap tuzib ketish - ijodiy qobilyatingiz hamda so'zni murakkabligiga bog'liq omillardir. Eng muhimi o'z aqliy imkoniyatlaringizni to'g'ri tomonga yo'naltira olishingizdadir!

Bu qoidalardan tashqari lug'at daftarni tutganda quyidagi holatlarga ham e'tibor berish lozim:

➡ Katta hajmli lug'at daftarini tutish muhim hisoblanadi, negaki payti kelganida eski so'zlarni qayta takrorlashga majbur bo'lib qolish mumkin. Eng katta xatolardan biri bu o'quvchining har yili yangidan lug'at daftari tutishidir. Har yili yangi lug'at daftari ishlatish bu xuddi har safar kompyuter xotirasida mavjud axborotni o'chirib, uning o'rniga yangi ma'lumotni yozishdek gap. Shuningdek, yagona lug'at tutishning boshqa bir sababi ham bor, yagona lug'at tutganingizda, qaysi so'z qayerda borligini bilasiz va shu so'zni qayerdaligini bilishingiz ham eslab qolishga yordam beradi. Yakka lug'at daftari fotografik xotirani rivojlantiradi.

➡ Ba'zi insonlar lug'at daftarini mavzular bo'yicha yodlashni foydali deb biladi. Agarda siz ham shunday fikrda bo'lsangiz, bemalol buni amalga oshiring. Bir qoida hammaga barobar emasligini hamma biladi, shuning uchun lug'atni hamma o'z ehtiyojlariga moslab ishlatishga harakat qiladi. Lug'atingizning bir varag'i kasblar bilan bog'liq, yana biri frazeologik fe'llar bilan to'la bo'lishi mumkin. Yana, lug'at daftarining oxiriga o'zingizga yoqqan va yaxshi taassurot qoldirgan so'zlarni yozib turishingiz mumkin.

➔ Soʻzga aloqador grammatik holatlarni yozib boring. Har kuni bir nechta yangi soʻz yodlaysiz. Kezi kelganda noodatiy qoidani uchratib qolsangiz, yangi soʻzning oldiga yozib qoʻyish ham grammatik qoidani va yangi soʻzni mustahkam eslashga olib keladi. Bunga koʻp vaqt sarflaysiz. Albatta, bu mehnatlaringiz natijasiz qolmasligi kerak. Aksincha, siz oʻzingiz oʻrganayotgan yangi soʻzlarni kerak boʻlsa, umrbod saqlab qolishingiz lozim.

### 5-mashq.

Ana endi ushbu bobda berilgan tavsiyalar yordamida, oʻzingizning lugʻat daftaringizni yana bir pogʻona balandroqqa koʻtaring. Bobda aytilgan tavsiyalarni birma-bir tatbiq qiling va oʻzingizning lugʻat tutish sanʼatingizni rivojlantiring. Bilib qoʻyingki, hech qachon ijodiy qobilyatingizni cheklamasdan, uni erkin qilib, lugʻat daftaringizni oʻzingiz uchun yodlashga yanada osonlashtirib moslashtiring.

## UCH XIL LUGʻAT TARKIBI

Koʻpchiligimiz bittadan koʻproq lugʻat tarkibidan foydalanamiz. Aslida, hammaning kamida 3 xil lugʻat tarkibi mavjud. **Birinchi lugʻat** tarkibidan suhbatda foydalanamiz va bu lugʻat taxminan 1000 ta soʻz atrofida boʻladi. (Ingliz tilida milliondan ortiq soʻz mavjudligi haqida taxminlar bor).

**Ikkinchi lugʻat** tarkibini biz yozma nutqda ishlatamiz. Undagi soʻzlar soʻzlashuvdagi lugʻat tarkibidan kengroqdir chunki jumlaning tuzilishi va mazmunini shakllantirish uchun koʻproq vaqt sarflanadi va yozayotgan shaxs kamroq bosim his qiladi.

**Eng katta lugʻat** tarkibi bu bizning maʼlumotni tushunish, anglashda ishlatiladigan lugʻat tarkibidir. Biz koʻp soʻzlarni

suhbatda eshitganimizda yoki o'qiganda tushunamiz, biroq o'zimiz ularni o'qimaymiz. Aslida so'zlashuvda va yozma nutqda ishlatiladigan lug'at tarkibimiz ma'lumotni tushunishda ishlatiladigan lug'at tarkibimizday boy bo'lganida yaxshi bo'lardi, biroq har doim ham bunday bo'lavermaydi. Shunga qaramasdan uchala lug'at tarkibini ham keskin kengaytirish imkoniyati mavjud.

Ko'proq kitob o'qing, yoki o'zingizga eng qiziqarli mavzu yuzasidan gazeta va jurnallar o'qish, yodlagan so'zlaringizni ishlatishning asosiy qismi bo'ladi.

Bu kitobda, umumiy aytganda, o'quvchiga ikki xil lug'at yodlash tamoyilini singdirishga harakat qilamiz. Bular: qabul qiluvchi va qayta ishlab chiqaruvchi tamoyillardir. Bularning bir biridan asosiy farqi shundaki, qabul qilish bu axborotni miyamizda saqlashdan iborat, uni yo o'qiymiz yo ko'chiramiz, yoki eshitamiz. Qayta ishlab chiqarish esa o'zimizda mavjud ma'lumotdan foydalanib yangi gap tuzib gapirish yoki yozish, yangi nutq materialini hosil qilishdan iborat. Odatda bu ikki tizim ikki xil ishlaydi, **qabul qilish** boshqa bir dunyo, qabul bo'lgan axborotni chiqarish ham boshqa bir dunyo. Lekin bu ikkalasi bir-biriga bog'liq va ularni o'rganib, rivojlantirsangiz bo'ladi. Ko'pchilikning muammosi, quruq qabul qilish, ya'ni faqat takrorlash bilan ko'p vaqti sarflaydi. Vaholanki, ikki tizimdan o'tgan so'zlarga bizning uzoq muddatli xotiramizda saqlanadi. Shuning uchun qabul qilishdan tashqari **qayta ishlab chiqarish** bilan ham mashg'ul bo'ling. Bunda asosan,

➡ takrorlanayotgan lug'at so'zlariga oldingi takrorlash bobida ta'kidlaganimizdek, o'zingizning so'zlaringiz bilan o'qib ko'ring, misollarni o'ylab ko'ring va o'zingizga bog'lashga urining. **MINDMAP** - takrorlash uskunasi, test yechish, doim savollar berish, to be at other's shoes - ya'ni boshqa insonning tuflisini kiyib ko'ring. Hissiyotni aralastiring, buni boshqalarga ham o'rgating.



6-bob.

SO'ZLARNI TAKRORLASH ORQALI XOTIRADA  
SAQLASH

*"Repetition is the mother of learning."*

— Proverb

*"Takrorlash oʻrganishning onasidir."*


— Maqol

Biz insonmiz, aql sohiblarimiz. Aqlimiz tinmay yangi ma'lumotlarni qabul qilib boradi. Bilimimiz doimiy ortib boradi. Bu jarayon turli jabhalarda ro'y beraveradi. Lekin, aynan insonligimiz tufayli unutishimiz ham mumkin. Ya'ni, bilimlarimizning ortib borishi barobarida, ma'lum muddat takrorlamagan yoki ishlatilmagan bilim va ko'nikmalarimizni unutib boramiz. Bunday unutish bizning chet tili bo'yicha bilimlarimizga ham taalluqlidir. Unutish jarayonining qanday tezlikda ro'y berishini **unutish yoyi** yordamida tasvirlash mumkin. (9-rasmga qarang).

1850-yil, nemis psixologi German Ebbinhaus birinchilardan bo'lib, inson xotirasini laboratoriya sharoitida tekshirib, unga unutishning naqadar xos ekanligini ilmiy asoslab berdi. Ebbinhaus o'z tadqiqotlarini ilmiy jurnalda e'lon qilib, xotiramizning "Unutish yoyi"ni matematik hisoblab chiqdi.

Ebbinhaus qanchalik ko'p sinov o'tkazmasin, natijalar doimo deyarli bir xil chiqavergan. O'rganishning birinchi soatidan so'ng, ma'lumotlarning 50 foizidan ko'pi inson xotirasidan o'chib ketadi. Birinchi kundan keyin esa yana 10 foiz ma'lumot yo'qotilgan, go'yoki miyamiz o'sha ma'lumotni keraksiz chiqindi deb bilib, tashlab yuborgandek. Bir oydan so'ng keyingi 14 foiz ma'lumot yo'q bo'lgan. Shundan so'ng qolgan xotiradagi ma'lumotlar qaysidir miqdorda barqaror holatga kela boshlagan - ular uzoq muddatli xotirada saqlangan va unutish tezligi ham me'yorga tushgan.

Unutish yoyi grafigidagi (9-rasmda) vertikal ustun



ma'lumotlarning yodlanish darajasini, gorizontaal ustun esa o'tgan vaqtni bildiradi. Olimlarning aniqlashicha, agarda bir marta o'qigan axborotingizni faqatgina o'qisangiz va u haqida fikr yuritmasangiz, o'qiganlaringizning 90% ni bir oy ichida unutib yuborar ekansiz. Rasmga e'tibor bilan qaralsa, shu narsa aniq bo'ladiki, hatto bir kundan keyin ham siz ma'lumotlarning deyarli 60 foizini unutib bo'lasiz. Bu - ilmiy fakt!

Beixtiyor savol tug'iladi. Yodlash yangi so'zlarning qancha muddat xotirada saqlanishiga kafolat bo'ladi? Tajriba natijalariga ko'ra, bu muddat - bir hafta.

Qolaversa, xotirangizdagi har qanday ma'lumot sekinlik bilan unutila boshlaydi. Shuning uchun doimo takrorlab turish juda ham muhim va ko'p marta takrorlaganingizdan so'ng yangi so'z sizning bir bo'lagingizga aylanib, ancha muddatgacha xotirangizdan chiqmaydi. Yana ta'kidlaymiz, siz takrorlanmagan ma'lumotlarning **90 foizini 30 kun ichida unutasiz.**

Birinchi va ikkinchi takrorlashingiz orasida iloji boricha kam vaqt o'tishiga erishing. So'zlarni soatlab takrorlash ham juda

## Soʻz yodlash sirlari

foydali emas. Bu sizni zeriktiradi, xolos. Yaxshisi avval 25 daqiqa takrorlash bilan shug'ullaning va 10 daqiqa dam olib keyin yana 10daqiqa so'zlarni qaytaring.

Bundan tashqari, yuqoridagi grafadan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, bir kunni o'quvchi takrorlash kuni etib tayinlashi lozim. Tajribadan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, har yakshanba kuni buning uchun ayni muddao bo'ladi. Bir haftada bir marta bir soatlik takrorlash sizning unuta boshlayotgan so'zlaringizni qaytadan yana 100 foiz eslashga olib keladi. Aks holda, so'zlarni takrorlamaslik ularni unutish bilan tugaydi.

Takrorlaganingizda ham sust emas, aksincha, faol takrorlash usullaridan foydalaning. Aksar abituriyentlar va o'quvchilar yo'l qo'yadigan xato - ular yangi so'zlarni shunchaki qaytarish orqali yodlashga urinishadi, xolos. Ular o'qigan ma'lumotlarini tahlil qilishga yoki amalda qo'llashga urinmaydilar ham. Bu xatoni deyarli hammamiz ham qilganmiz. Keyin esa uning noto'g'ri ekanligini tushunib yetganmiz. Demak, bunday qilmaslik uchun avvalo yodlangan so'zlarni faol ravishda takrorlash kerak. Faol takrorlashni quyidagilar tashkil qiladi:

➔ *O'qish mobaynida fikrni bir joyga jamlash, alohida e'tiborli bo'lish;*

➔ *O'qilgan materialni ovoz chiqarib qaytarish;*

➔ *O'rganilgan materiallar bo'yicha qisqacha bayon yozish;*

➔ *O'rganilgan so'zlar qatnashgan iboralar, gaplar tuzish;*

➔ *O'rganilgan so'zlarga aloqador/ma'nodosh boshqa so'zlarni qidirib topish;*

➔ *O'rganilgan so'zlarning tarixi, kelib chiqishi haqidagi*

*ma'lumotni lug'at, ensiklopedia yoki internet tarmog'idan topish;*

➡ *Yodlangan so'zlarni monitoring qilish, ya'ni, ulardan nechtasi unutilganligi, qanday so'zlar unutilganligini nazorat va tahlil qilish;*

➡ *Unutilgan so'zlarni alohida takrorlab borish;*

Albatta, ishtiyoqi baland va tasavvuri keng o'quvchi bu ro'yxatni yanada kengaytirishi va berilgan tavsiyalarga qo'shimchalar kiritishi mumkin. So'zlarni faol takrorlash va ko'p so'zlarning unutilishini oldini olish uchun bir xillikdan qochish va tasavvurga erk berish lozim. Tinmay yangi uslublarni qo'llashga urinish maqsadga muvofiqdir.

## ORALIQLI TAKRORLASH USULI

Bu uslubga ko'ra, ma'lumotni ma'lum bir vaqt oralig'ida bir necha marta takrorlash natijasida uzoq muddatga xotirangizda saqlab qolasiz. Imtihonlarga 1-2 oy vaqt qolganda, ma'lumotlarni asta-asta, lekin muntazam oraliqlarda takrorlash orqali tayyorgarlik ko'rib borasiz.

Ebbinhaus bunday muntazam takrorlashning foydasi juda katta ekanligini ta'kidlagan. Oz-oz, tez-tez muntazam takrorlash yoki o'rganish deganda, qisqa vaqtlarda takrorlab tez-tez oraliq muddatlarda takrorlashni nazarda tutmoqdamiz. Bu degani yodlanishi kerak bo'lgan bir kitobni bir yoki ikki soatlab takrorlash kerak degani emas. Maqsad - miyamizning zo'riqib ishlashini oldini olish. Yarim soatlik o'qishdan so'ng 5 daqiqa dam olib, yana 5 daqiqa oldin o'rganilgan ma'lumotlarni takrorlab, keyin yangi mavzuga o'tilsa, ma'lumotni miyada oson saqlab qolish mumkin bo'ladi. Bu usul yangi ma'lumotni muttasil 2 soat takrorlagandan ko'ra ancha unumliroq bo'ladi.


## So'z yodlash sirlari

Nega miyaga tanaffus berish kerak, degan savolga olimlar turlicha javob berishadi. Miyangiz dam olayotgan paytda aslida endigina o'rganilgan ma'lumot sizning xohishingizga bo'ysunmagan holda miyangiz tomonidan takrorlanadi va shu ma'lumot saqlanib qolgan neyronlar qalinlashadi. Ma'lumotni yana qaytib takrorlasangiz, u yanada mustahkamlashadi.

Qiziqarlisi shuki, oraliqli takrorlash allaqachon boshqa sohalarga keng tatbiq qilinmoqda. *Masalan*, nomdor Garvard Tibbiyot Maktabi professori Pris Kerfut tibbiyot talabalarini aynan shu usul orqali ko'p ma'lumotlarni eslab qolishga majbur qilgan. Bilamizki, tibbiyotda ko'p ma'lumotlarni qabul qilish, dorilar va kasalliklarning nomlarini juda qisqa fursatda yodlash kerak bo'ladi. Xullas, professor talabalarning xotirasi sustligidan toqati toq bo'lib, imtihonlardan avval faqat imtihon uchun yodlab, keyin darsni esidan chiqarib qo'ygan talabalarni mukofotlamoqchi ham bo'ldi. Kerfut o'z faniga oid savol-javoblarni ishlab chiqqan va har haftada talabalarning pochtasiga faktlarni jo'natgan. Har hafta yangi mavzuni eski mavzu bilan aralashtirib so'rab turgan. Yil oxirida esa pochta orqali xatlarni olgan talabalar xat olmaganlariga qaraganda, sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichni ko'rsatishgan.

Dunyoga dong'i ketgan institutlardan yana biri - Jon Hopkins Tibbiyot Institutida flesh-karta uslubidan keng foydalaniladi. Bunda yana takrorlash asosiy o'rinni egallab, turli xil cho'ntakbop qog'ozlarga kasallikning nomi yozilsa, qog'oz orqasiga uning nima va qanaqa kasallik ekanligiga ta'rif beriladi: Gallyutsinatsiya oldiga yozilsa, orqasiga miyamizning mavjud bo'lmagan tovush va tasvirlarni hosil qilishi qayd etilgan.

Quyidagi grafada (10-rasm) unutish yoyini qanday qilib yengish bo'yicha takrorlash tartibi ko'rsatilgan. So'zlarni aynan shu grafada berilgan tartibda yodlash shart emas, lekin so'z yodlashda ma'lum vaqt oralig'ini qoldirib yodlash yaxshi samara beradi.



10-rasm

Siz yangi ma'lumot olganingizdan keyin ozgina dam olib, 10 daqiqadan keyin bir takrorlab oling, shunda ma'lumotni bir kungacha yaxshi eslab qolasiz. Ertasi kuni ham bir marta takrorlasangiz endi ma'lumot xotirangizda bir haftagacha o'rnashib turadi. Mana shu oraliqlarni tashlab, yodlayotganingizda xotirangizdagi ma'lumot yana qaytadan 100 foiz eslanishiga erishiladi va unitish ehtimoli kamayadi (10-rasm). Bir haftadan keyin yana bir takrorlasangiz, endi bir hafta emas, bir oygacha ma'lumotni eslab qolishga erishishingiz mumkin. Bu xotirangizdan ma'lumot shundoqqina o'chib ketayotganda uni eslab qolishda yaxshi natija berishiga sabab bo'ladi. Takrorlash ma'lumotni hech qanday texnikalarsiz, mnemonikani aralash-tirmagan holda **mukammal xotiraga** o'tishiga osongina erishishga olib keladi.

Ko'pchilik tilga va so'z yodlashga jiddiy yondashmaydi. O'tilgan so'zlarni soatlab takrorlayveradi va ular til o'rganishning qiziqarli jarayon ekanini xayoliga ham keltirmaydi. Shuning uchun har qanday so'zni yodlaganingizdan so'ng uni o'zingiz uchun qiziqarli va mazmunli bo'lgan holatda takrorlashga harakat qiling.

## So'z yodlash sirlari

*Masalan*, yaqin do'stingiz bilan ingliz tilida so'zlashayotganingizda sinab ko'ring.

Agar so'zni yodlasangizu uni shunchaki takrorlayversangiz, bu so'z so'zlashuv lug'atingizga aylanmaydi. Shuning uchun ham eng yaxshi usul bu o'sha so'z bilan o'zingiz gap tuzishingiz, o'z harakatingizdagi misollarda qo'llashingizdir.

Bundan tashqari, ko'pchilik o'quvchilar so'zlarni yodlagan paytda ularni alohida yodlashga harakat qiladi. Kato Lomb 16 ta tilda bemalol gaplashadigan olim. Uning aytishicha, so'zlarni kontekstda, ya'ni matnning umumiy mazmunidan kelib chiqib, boshqa so'zlar bilan birga yodlash ancha foydali.

Yodlangan so'zning xotirada saqlanishida muhim rol o'ynaydigan omil **o'sha so'zni 6 marotaba matnda** yoki boshqa so'zlar bilan bog'liq holatda qo'llash bo'lib, bu usul juda katta foyda beradi. Har bir so'zni yodlash jarayonida hayotdan misollar keltirib chiqarish yaxshi natija beradi.

*Masalan*, **philantropist** (filantrop) - "*ko'p pulini hadya qiluvchi inson*" so'zini ko'rib chiqaylik. Bunday shaxs sifatida siz Bill Geytsni tasavvur qilib, u haqda gap tuzib ko'ring. Bu yerda ham tasavvur va ham assotsiatsiya/aloqadorlik birga kelmoqda.

Ko'pgina kitoblar yodlangan yoki o'rganilgan ma'lumotlarni xotirada uzoq muddat saqlash bo'yicha turli usullarni tavsiya qiladi. Biroq, ularning hammasini ham o'zingizning ta'lim jarayoningizga nisbatan tatbiq qilishingiz juda qiyin masala. Sizdan talab qilingan narsa yangi so'zlarni takrorlashning o'zingizga ma'qul usulini tanlab, uni o'zingizda rivojlantirishdir.

Shunday usulblardan biri - yodlanadigan so'zlarni yozib, devorning doimo ko'z tushib turadigan qismiga ilib qo'yishdir. Bu usuldan foydalanishda bir nechta omillarga e'tibor berish tavsiya qilinadi:

1) Qog'ozga yozilayotgan har bir so'zni imkon boricha turli ranglarda yozing;

2) Kunlik so'zlar miqdorini kunning uch qismiga teng bo'ling (ertalab 5 dona yangi so'z, tushlikda 5 dona yangi so'z, kechki payt 5 dona yangi so'z);

3) Yangi so'zlar yozilgan qog'ozlarni o'zingiz uchun qulay va doim ko'rishingiz mumkin bo'lgan joyga joylashtiring (televizor yoniga, ovqat stolining ustiga, idish yuviladigan rakovina yonidagi devorga, v.h.k);

4) Muhimi, oldinroq so'zlar yozib yod olingan qog'ozlarni saqlab qo'ying va ularni muntazam takrorlab boring.

#### 6 - mashq.

#### THE RULE OF FIVE - BESH QOIDA

Yuqorida aytilgan uslubga muvofiq o'zingizga kerakli bo'lgan so'zlarni takrorlashning besh qoidasi, aniqrog'i besh payt oralig'i quyida ifodalangan. Shu qoida asosida lug'at boyligingizdagi so'zlarni takrorlab turing.

**Birinchi takrorlash:** *O'qib bo'lishingiz bilan oq;*

**Ikkinchi takrorlash:** *24 soatdan keyin;*

**Uchinchi takrorlash:** *Bir haftadan keyin;*

**To'rtinchi takrorlash:** *Bir oydan keyin;*

**Beshinchi takrorlash:** *Uch oydan keyin;*



## || UNUTISH YOYINI YENGISHNING BOSHQA || USULLARI

Agar o'quvchi yetarlicha qiziqish ko'rsata olsa, unutish yoyini yengishi, va yangi olingan bilimlarning unutilish darajasini ancha kamaytirishi ham mumkin.

Unutish yoyini 7 ta asosiy tamoyil asosida yengib, malumotlarni uzoqroq muddat davomida xotirada saqlash imkoniyati mavjud.

**1. Birinchilar.** O'rganish jarayonidagi eng birinchi ma'lumot yaxshi yodda qoladi va esga keladi. Masalan, lug'at daftaringizga birinchi yozilgan so'zlar yoki birinchi eslab qolgan so'zlaringiz boshqalariga nisbatan ko'proq eslab qolinadi.

**2. Oxirgilar ham birinchi.** O'rganish jarayonidagi eng oxirgi ma'lumotning esda qolishi ham nisbatan oson. Negaki, uni yaqinda o'rgangansiz. Aytaylik, eng oxirgi yodlagan inglizcha so'zingizni eslash, qolganlarini eslashdan osonroq.

**3. Siz allaqachon bilgan ma'lumotlarga bog'langan va ularga aloqador bo'lgan so'z va tushunchalar.** *Masalan: "baby" so'zi "go'dak", "sit" fe'li esa "o'tirmoq" ma'nolariga ega ekanligini bilasiz. Natijada "babysit" fe'lini "go'dak bilan o'tirish", "yosh bolaga qarash" ma'nosiga ega ekanligini bemalol bilib olasiz.*

**4. Urg'u berilgan va boshqalaridan ajratilgan so'zlar yaxshi esda qoladi.** Shuning uchun ingliz tilida matn o'qiyotganda undagi boshqalardan ajralib turuvchi so'zlarni e'tibor bilan o'qisangiz ularni eslab qolish osonlashadi. Bunday ajralib turuvchi so'zlarni ingliz tilining izohli lug'atlarida ko'plab uchratish mumkin. Bu lug'atlarda izohi berilayotgan so'z o'zi qatnashgan gaplarda boshqalaridan ajratib yoziladi.

**5. Qiziqish ta'siri.** Qiziqish uyqudagi ajdarhoga o'xshaydi. Agar u uyg'onib qolsa, miyangizda go'yoki alohida ma'lumot kanali ochilib, barcha axborot, xotira, fikrlash va boshqalar ongingizga quyilib kelaveradi. Nimaga chindan qiziqsangiz,

u haqida yaxshiroq ma'lumot to'playsiz va olgan bilimlaringizni uzoqroq xotirangizda saqlay olasiz. Shuning uchun qiziqqan mavzuingizga oid ko'p so'zlar xotirangizda uzoq saqlanadi garchi unutish yoyi qoidasi bor bo'lsa ham.

**6. Besh hissiyotga yaqin bo'lgan xabarlar.** Bizda mavjud besh xil tuyg'u: hid bilish, ta'm bilish, eshitish, ko'rish, badan bilan sezish kabi tuyg'ulardan birortasini qo'zg'ata oladigan so'zlar xotiramizga osonroq muhrlanadi. Bunga "cold" - "sovuq", yoki "hot" - "issiq" so'zlarini misol qilish mumkin. Bu so'zlar bizda aniq hissiy tasavvur paydo qila oladi.

**7. Talaffuzda juda g'ayrioddiy tuyulgan so'zning ma'noli qismi yoki mantiqiy jihatdan ma'nodor bo'lgan bo'g'ini oson esda qoladi.** "*Housatonic*" (AQSh dagi daryo) so'zini olaylik. Albatta notanish bo'lgan so'z. Biroq uning birinchi bo'g'ini bizga ma'lum "House" - "Uy" so'zidan iborat va oxirgi bo'g'inlari g'ayrioddiy talaffuz qilingani uchun ham ikki karra bu so'zni eslab qolishingiz oshadi. Aynan shu bo'g'in yordamida keyinchalik biz butun so'zni eslay olishimiz mumkin.

Yuqoridagi 7 ta tamoyilni unitish yoyiga ta'sirini 11-rasmda ko'rsatibotildi va e'tibor bersangiz, unda har bir effekt ijobiy tomondan unitish yoyiga ta'sir qilmoqda. (*11-rasm. 66-betga qarang*).

Lekin, bu yettita tamoyildan qaysidir biriga to'g'ri kelmagan qismlar unutish yoyi bo'yicha harakat qiladi va vaqt o'tgan sari unutiladi. Vaqt shu darajada kuchliki, bu 7 ta tamoyilga muvofiq axborot esda qolsa-da, alohida takrorlanmasa, unutish yoyi ularga ham ta'sir qiladi va oqibatda unutishga olib keladi.

Oraliqli takrorlash hamda 7 ta tamoyilni ishlatish unutish yoyini yengishga yordam beradi. Bundan tashqari, keyingi boblarda tavsiya qilingan texnikalarni ishlatish hamda shunchaki takrorlashlar orqali xotirangizni yanada mukammallashtira olasiz.

7-bob.

**TURLI XIL YODLASH USULLARI**

*"Learn everything you can, anytime you can, from anyone you can; there will always come a time when you will be grateful you did."*

— Sarah Caldwell

*"Qoʻlingizdan kelgan hamma narsani hamma vaqt har kimdan oʻrganavering; siz bunday qilganingizda xursand boʻladigan payt albatta keladi."*

— Sara Kolduel

Yangi maʼlumotni oson va qiziqarli usulda yodlash borasida yuzlab usullar va tavsiyalar bor desak, adashmaymiz. Albatta, ularning barchasi bilan tanishib chiqish, ularni oʻrganish mumkin. Lekin oʻquvchi bu tavsiya va uslublarning hammasidan bir xil unumli tarzda foydalana olishi deyarli mumkin emas.

Biz bu bobda turli uslublarni taqdim etsakda, ularning barchasini toʻlaqonli ishlata olmasligingiz mumkinligini yaxshi tushunamiz. Biroq, ushbu usullar bilan yaqindan tanishib chiqishingiz lozim. Chunki bu usullar bilan yaxshi tanish boʻlmay turib, ularni amalda qoʻllamay turib, ularning aynan qaysilari sizga mos kelishini aniq bila olmaysiz.

Bir narsa aniqki, soʻz yodlashing turli xil usullari mavjud va ularning hammasi oʻquvchilarga mos kelmasligi mumkin. Eng muhimi esa hammasini birdaniga ishlatish emas balki oʻzingizga qulay usulni tanlab oʻrganishda davom etishingiz kerak.

Quyida oʻzbek oʻquvchilar uchun eng yaxshi samara berishi mumkin boʻlgan usullar tasvirlangan.

**1. Siz allaqachon ingliz tilida anchagina soʻz bilasiz! "Qanaqasiga? Axir men umrimda ingliz tilini oʻrganmaganmanku?" deyishingiz mumkin. Biroq, ishoning,**

*ingliz tili bo'yicha so'z boyligingiz ancha keng. Keling allaqachon biladigan inglizcha so'zlaringiz ro'yxatini ko'rib chiqaylik:*

Albatta bu ro'yxatni yanada kengaytirish va oldindan biladigan inglizcha so'zlarning soni 100 tadan oshiq ekanligini ko'rish mumkin. Birinchi usulga ko'ra, o'zbek va ingliz tilida bir xil jaranglab, bir ma'no beradigan so'zlarni ro'yxatga jamlash lozim. Shunda o'quvchi ingliz tilida avvaldan nechta so'z bilishini bilib oladi.

1.	<b>Internet</b>	<b>Internet</b>
2.	<b>Wi-fi</b>	<b>Vay-fay</b>
3.	<b>Router</b>	<b>Router</b>
4.	<b>Server</b>	<b>Server</b>
5.	<b>Domain</b>	<b>Domen</b>
6.	<b>Computer</b>	<b>Kompyuter</b>
7.	<b>Printer</b>	<b>Printer</b>
8.	<b>Monitor</b>	<b>Monitor</b>
9.	<b>Scanner</b>	<b>Skaner</b>
10.	<b>Smart-phone</b>	<b>Smartfon</b>
11.	<b>Gadget</b>	<b>Gadjet</b>
12.	<b>Sms</b>	<b>Sms</b>
13.	<b>Flash-card</b>	<b>Flesh-karta</b>
14.	<b>Business</b>	<b>Biznes</b>
15.	<b>Director</b>	<b>Direktor</b>
16.	<b>Manager</b>	<b>Menedjer</b>
17.	<b>Office</b>	<b>Ofis</b>
18.	<b>Conference</b>	<b>Konferensiya</b>
19.	<b>File</b>	<b>Fayl</b>
20.	<b>Sergeant</b>	<b>Serjant</b>
21.	<b>Lieutenant</b>	<b>Leytenant</b>
22.	<b>Captain</b>	<b>Kapitan</b>
23.	<b>Major</b>	<b>Mayor</b>
24.	<b>General</b>	<b>General</b>
25.	<b>Marshal</b>	<b>Marshal</b>

## Soʻz yodlash sirlari

2. Yangi soʻzlar ishtirokida gaplar tuzish. Ushbu usulda gapda ifodalangan holat va ish-harakatlarni oʻquvchi oʻzining tasavvurida jonlantirishi va yangi soʻzni yodlayotganda uni tasavvurdagi muayyan manzara bilan bogʻlash muhimdir.


Masalan: — The picture was particularly beautiful.

— Rasm gʻoyat goʻzal edi.

Ushbu gapdagi ajratilgan soʻzni yodlayotgan oʻquvchi koʻz oldiga chiroyli suratni keltirishi va shu suratning qanchalik goʻzal ekanligini ajratilgan soʻz yordamida ifodalashi lozim. Bu gapni qachon ishlatish mumkinligini va oʻsha holatni tasavvuriga keltirib, xayolan shu gapni aytishi bu gapni haqiqiy hayotda oʻrinli ishlatishiga sabab boʻladi.

Faqatgina gap emas balki frazalar, iboralarni ham yodlash foydali boʻladi. Yoki doimo birga "sayohat" qiluvchi soʻzlar bilan ham oʻrganing. Flock soʻzini yodlashni oʻrniga, flock of sheeps deb yodlang, yoki occur fe'lini yodlamoqchi boʻlsangiz "If any problems occur" iborasini yodlash, sizga hech boʻlmasa oʻsha soʻzni hayotda birgina holatda boʻlsa ham ishlatishga koʻmaklashadi.

3. Kartochkalardan foydalanish (Flesh-karta usuli). Bu ham eng ommabop va ishlatish uchun qulay yodlash usuli hisoblanadi.



Buning uchun kichik hajmdagi kartochkalar tayyorlaysiz va ularning bir tarafiga o'zbekcha, ikkinchi tarafiga inglizcha so'zlar yozasiz. O'quvchi qulay fursat topganda kartochkalarni ko'zdan kechiradi va so'zlarni yodlashga harakat qiladi. Bu usulning afzalligi kartalarni o'zingiz bilan (cho'ntakka solgan holda ham) xohlagan joyda takrorlashingiz mumkin. Qiynalgan so'zlaringizni alohida olib takrorlash imkoni ham bor. Kartochkalar bilan turli o'yinlar o'ynab yodlash jarayonini yanada qiziqarli qilsa bo'ladi.

Shunchaki so'zlarni yozishning o'zi katta foyda berishi uchun takrorlayotgan paytda topa olmagan so'zlaringizni X bilan belgilashingiz yoki bo'lmasa alohida daftarga yozib borishingiz mumkin.

---

**4. Inson his tuyg'ular bilan yashaydi. Shuning uchun ham til va so'zni o'rganganda o'sha so'zlarga his-tuyg'ularni qo'shib yodlash ham katta foyda beradigan usullardan biri hisoblanadi.**

Olimlarning ta'kidlashicha, gaplashganimizda 15 foiz so'zlardan foydalanamiz, qolgan 85 foiz holatda esa mimika, qo'l va tana harakatlariga, hissiyot, tuyg'ular va ovozning ohangiga qarab gapning asosiy mazmunini tushunamiz. Tanamiz tilimizga, tilimiz esa tana va tuyg'ularimizga chambarchas bog'liq. Shuning uchun so'z yodlashda his tuyg'u va obrazlarga alohida e'tibor berish kerak. Iloji bo'lsa, qaysidir aktyorga monand gapirishga, biror mashhur insonga taqlid qilib, yodlagan so'zlarini o'sha insonning obraziga kirib gapirib ko'rish foydaliroq bo'ladi. Hissiyot bilan yodlangan so'zlar xotiraga chuqur muhrlanadi va haqiqiy nutq holatiga ham osonlik bilan ko'cha oladi.

*Misol uchun:* Stiv Jobsning mashxur 2005 yildagi Stenford Universitetida bergan nutqiga qarab **courage - mardlik** degan

## *Soʻz yodlash sirlari*

---

so'zni boshqacha ehtiros bilan aytganiga e'tibor berib, aynan siz ham o'sha intonatsiya va hissiyotni jo qilib va aynan Stiv Jobs aytganidek gapirishga urunish orqali yodlashingiz mumkin.

*"Your time is limited, so don't waste it living someone else's life. Don't be trapped by dogma - which is living with the results of other people's thinking. Don't let the noise of others' opinions drown out your own inner voice. And most important, have the **courage** to follow your heart and intuition. They somehow already know what you truly want to become. Everything else is secondary."*

---

**5. Etimologiyani o'rganish. Etimologiya so'zlarning kelib chiqish tarixini o'rganuvchi fandır. U tufayli biz so'zning qayerdan, qaysi tildagi qaysi so'zdan qachon kelib chiqqani haqida ma'lumotga ega bo'lamiz. Tan olib aytish kerakki, agar bir so'z haqida shuncha ma'lumotga ega bo'la olsak, bu juda katta yutuq bo'ladi.** Misol uchun, "Rubicon" so'zining etimologiyasi, ya'ni kelib chiqishi quyidagicha: "**Rubicon**" iborasi asosan, qilinishi mumkin bo'lmagan narsalarni amalga oshirish ma'nosini bildiradi. U tarixda Yuliy Sezarning bunga huquqi bo'lmagan holda Rubikon daryosini kesib o'tgani va shu tufayli Rim Senati bilan qarama qarshilikka duch kelganligi bilan bog'liq." Mazkur so'zni ushbu tarixiy voqeaga bog'lab o'rgangan o'quvchi uni bir umrga eslab qolishi aniq.


---

**6. Bir-biriga bo'g'liq so'zlarni birgalikda yodlash bu eng mashhur va foydali lug'at yodlash usuli hisoblanadi.**

Yangi so'zning o'zini shunchaki yodlash katta foyda bermaydi. U bilan birgalikda uning sinonimlari, qaysi holatlarda ishlatilishi, uning artikl va ba'zi predloglar bilan ishlatilishi, talaffuzi, qanday so'zlar bilan ishlatilishi haqidagi

ma'lumotlarni bilib borish muhim hisoblanadi.

Misol uchun quyidagicha tarmoqlangan aloqador so'zlar tizimini yaratishingiz mumkin. Bu yerda "market" - "bozor" so'zi bilan birgalikda "sell" - "sotmoq", "store, shop" - "do'kon" sinonimlari, "demand, supply" - "talab va taklif" aloqador so'zlar, "grocery" - "oziq ovqatlar rastasi", "sale" - "chegirma", "clothes" - "kiyimlar do'kon" kabi so'zlarni birga yozish, "market" so'zini eslab qolishga va shu bilan bir qatorda qo'shimcha so'zlarni o'rganishga yordam beradi.



O'zingiz ham shunday aloqadorlikni hosil qilib ko'ring, yangi so'zni o'rtaqaga yozing, keyin esa undan shoxchalar chiqarib aloqador so'zlarni yozishniboshlang.

**7. Aql xaritasidan foydalanish.** Aql xaritasi Ingliz tilida "Mindmapping" deb ataladi va u Toni Buzan tomonidan xotiramiz uchun yordamchi usul sifatida kashf qilingan. Aql xaritasidan foydalanish miyamizning ishlash tamoyiliga mos bo'lib, unda asosiy g'oya markazga qo'yilib, unga bog'liq boshqa g'oyalar markazdan tarmoqlar vositasida chiqariladi. Bunda markaziy g'oyaga aloqador tushunchalar yoziladi, ularning rasmlari chiziladi va umumiy manzara shu tarzda eslab qolinadi. (13-rasm). (13-rasm. 67-betga qarang).



Aql xaritasi hayotimizning ko'plab jabhalarida ishlatilishi mumkin: nutqni tartibga solish, qaror qabul qilish, biznes tahlili kabilar. Aql xaritasidan foydalanish so'z yodlashda yaxshi samara berishi mumkin. Bunday xaritaga e'tibor bersangiz, rasmni umumiy tarzda bir qarashda ko'rasiz va bu usulda rasmlar chizib, ongingizga erk berasiz, so'zlarning boshqa so'zlar bilan aloqasini ko'rasiz, rang-baranglik va qiziqarli o'rganish jarayoni miyangizning ikkala yarimsharining ishlashiga olib keladi. Hozirgi zamonaviy tadqiqotlar rang-baranglik miyamizga yoqishini ko'rsatmoqda. Shuning uchun turli xil rangdagi ruchkalardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Miyamiz ro'yxat bilan kelgan lug'at so'zlarini yaxshi eslab qolmaydi, aql xaritasidan foydalangan inson uchun esa bunday muammoning o'zi bo'lmaydi. Agarda rasmlardan foydalanilsa, eslab qolish darajasini yanada yaxshilanadi. Hatto, buyuk olimlar ham o'z kundalik daftarlariga rasmlarni chizib konspektlar tuzish bilan band bo'lishgan.

Aql xaritasi usuli orqali yodda saqlab qolishning yaxshi tomonlari shundaki, u turli ranglar, turfa rasmlar va kerakli ma'lumotning kalit so'zlarini qamrab oladi. U nafaqat yaxshi eslab qolishga, balki miyamizning chap va o'ng yarimsharlarini ranglar va rasmlar orqali bir me'yorda ishlashiga yordam beradi.

---

**8. So'zlarni guruhlariga bo'lib yodlash va ularni tartibga solish tufayli qayta eslash oson kechadi. Bunda bizga ma'lum bo'lgan biror so'z va undan yasalgan boshqa so'zlar bir guruhga jamlanadi.** Misol uchun, "achieve" - "erishmoq" so'zini bilish orqali, "achievement" - "yutuq", "achieving" - "erishayotgan", "achieved" - "erishilgan", "achievable" - "erisha bo'ladigan".

Lug'at daftari tutish haqidagi bobda ta'kidlaganimizdek, so'zlarni guruhlarga ajratishda har bir guruhni alohida rangli ruchkalarda yozib borish foydali bo'ladi. Qora ruchka bilan fe'llarni, ko'k ruchka bilan otlarni, va qizil ruchka bilan sifatlarni va ba'zida iboralar duch kelsa, ularni yashil ruchka bilan yozish tavsiya etiladi.

Undan tashqari shu tarzda yozib borish bir so'z turkumidagi so'zni boshqa turkumlardan farqlab olish va bir turkumdan boshqa turkumga o'tish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishingizga yordam beradi.

---

**9. O'quvchilar qo'shiq tinglaganda so'zlarni yaxshiroq eslab qoladi, bu juda oddiy hol.** Bu usulni o'z foydangizga ishlatishingiz darkor. Bunday so'z yodlash ijodiy fikrlashni oshiradi va so'zlarning ma'nosini yaxshiroq anglash imkonini beradi. Shuningdek, qo'shiqlarda bo'lgani kabi, bir so'zga qancha takror duch kelsangiz, uni shuncha yaxshi eslab qolasiz. Qo'shiqni his etib, uning mazmunini tushunib, keyin esa uni o'zingiz aytishingiz so'zlarni yodlashning juda ajoyib va unumli usullaridan biri hisoblanadi.

---

**10. Sherik topib u bilan yangi so'zlarni ishlatish bo'yicha musobaqa o'ynab, har bir gapda bitta yangi so'z ishlatishni amalda sinab ko'rishingiz mumkin.** Yana, kimdir yangi so'zni tushuntirib gap tuzib bersa, o'sha so'zni eslab qolish ehtimoli ortadi. Demak, yangi so'zni yaxshi biladigan insondan so'rasangiz, albatta bu foydali bo'ladi.

So'z bilmaslikni tan olish va uni o'rganishga bo'lgan qiziqishni so'ndirmaslik lozim. Hatto juda tajribali o'qituvchilar ham payti kelganda qaysidir inglizcha so'zni bilmay qoladi va xatoni tan olib, tirik lug'at emasliklarini eslatib, so'zni lug'atdan ko'rib tushuntirib berishi mumkin.

**7-mashq. Har soniyada lug'at boyligini oshirish.**

Atrofingizga nazar soling. Atrof-muhitni tasvirlashga va so'zlarni aytishga harakat qiling. Doimiy bu mashq bilan shug'ullanish so'z boyligingizdagi kamchiliklar, bo'shliqlarni topib beradi va bularni rivojlantirish bilan lug'at boyligingizni yanada oshirasiz.

*Masalan:* ko'chada yo'lni kesib o'tayotgan insonni nima kiyib olganini ta'riflashga uruning va bunda o'zingizga savol bering - bu inson kiyib olgan hamma kiyimlarini nomini bilamanmi? Ranglarinichi? Harakatarini ingliz tilida qanday aytaman?

Qaysi holatda ingliz tilidagi so'zni bilmasangiz o'sha so'zni qidirib topishga odatlaning va shu orqali lug'at boyligingizdagi kemtiklar ustida ishlab borasiz.

**11. Aslida, til o'rganishda eng muhim narsa bu so'z boyligi. Grammatikani o'rganishingiz mumkin, lekin yangi so'zlarni yodlamasdan grammatikani chuqur o'rganish yaxshi natija bermaydi.** Grammatikada eng asosiy qonunlarni o'rganganingizdan keyin ham ular yordamida gaplashib, amaliyotda shug'ullanish darkor. Yangi til o'rganuvchilarga **Dmitriy Petrovning** videolarini tomosha qilishni tavsiya qilgan bo'lardik. Petrovning til o'rganish uslublari aynan miyamizning faoliyat prinsiplari bilan hamohang tarzda ishlaydi. Uning ayrim fikrlarini e'tiboringizga havola qilamiz:

➡ Doimiylik hajmdan ko'ra muhimroq, so'zlarni yakkama-yakka emas, balki so'z birikmalarida yodlash kerak."

➡ Tildan foydalanishni avtomatizmgacha olib borilish kerak. Bolaligingizda velosiped minishni yoki keyinchalik mashina boshqarishni qanday qilib o'rgangansiz? Boshida hamma narsani nazorat qilib turasiz, keyin sekin-asta

avtomatik tarzga o'tasiz. Gapirishda ham aynan shunday qilish kerak."

➤ Tayyor iboralardan kengroq foydalanish kerak."

➤ Erkinlik to'g'rilikdan muhimroq. 500 ta so'z va siz gapira boshlaysiz."

---

**12. Ko'proq o'qishga va eshitishga odatlaning.** Agar siz faqat so'z yodlab yuraversangiz tilning asosiy vazifasi bo'lmish ma'lumotni tushunish va bor axborotni yetkazib berish kabi imkoniyatlaridan chetda qolasiz.

Shuning uchun, imkoniyat doirasida ingliz tilida olib boriluvchi ko'rsatuvlarni tomosha qiling. Bugunga kelib, bunday ko'rsatuvlar O'zbekiston telekanallarida talaygina. Yana, raqamli televideniya orqali Yevropa va Amerikaning ingliz tilida olib boriluvchi dasturlarini tomosha qilish lozim.

Subtitrlı, ya'ni ostki yozuvli filmlarni tomosha qilish ham juda katta foyda beradi. Bir tarafdı, qiziqarli film ko'rib, vaqtingizni maroqli o'tkazasiz. Ikkinchidan, ko'plab inglizcha so'zlarni yodlaysiz. Bunday filmlarning so'z yodlashdagi qulayligi shuki, so'zlarni filmdagi aniq voqealarga bog'lab yodlab borasiz. Talaffuzini aniq ilg'ay olmagan so'zlaringizni film subtitralaridan bemalol o'qib olasiz.

---

**13. O'ziga xos va yangicha so'z yodlash usullarini o'rganing.** Bir o'quvchi so'z yodlashda telefonidan foydalanib, yangi so'zlarni tarjimalari bilan eshitish uchun audio shaklida yozib olgan. Keyinroq esa bo'sh vaqtida o'sha ovoz yozuvlarini qayta eshitishga uringan. Bu usulning afzalligi shundaki, audio yozuvni eshitish bilan bir qatorda boshqa ishlar bilan bemalol shug'ullanish mumkin.

So'z yodlashda telefondan foydalanishning yana bir usuli,

## *So'z yodlash sirlari*

inson telefoniga lug'at daftari tutib oladida va shu lug'atda ko'rgan barcha so'zlarni telefonning o'zida rasimga olib, telefon xotirasida so'zlarni to'plab boradi va har gal telefonini qo'lga olganda bu rasmlar yoki so'zlarni takrorlayveradi.

---

**14. Sinonimlar lug'ati (tezaurus) ishlatishni boshlang.** Ingliz tilidagi so'zlarni o'rganish bo'yicha eng katta urinishni amalga oshirgan shaxs bu Doktor Samuel Jonsondir. U XVIII asrda ingliz tilida ma'lum bo'lgan barcha so'zlarni bir kitobga jamalashga qaror qildi. Jonson bu so'zlarning ma'nolari, qaysi so'z turkumiga oidligi, asosiy ishlatilish holatlari va tarixiy kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlarni ushbu kitobga kiritdi. Doktor Samuel Jonson yaratgan «The Dictionary of the English Language» («Ingliz tilining lug'ati») barcha zamonaviy ingliz tili lug'atlariga asos bo'lib xizmat qildi.

Bir necha yillardan so'ng yana bir olim Rojet ingliz tilida mavjud bo'lgan barcha so'zlarni bitta kitobga jamlashga qaror qildi, lekin bu kitob Jonsonning kitobidan farq qilardi. Rojet barcha so'zlarning ma'nolarini berish o'rniga, ularning sinonimlarini lug'atga jamladi.

Demak, agar siz ingliz tilida kitob yozayotgan, nutq so'zlayotgan yoki she'r yozayotgan bo'lsangiz va ularda rangbaranglik bo'lishini xohlasangiz, bu lug'at sizga kerak bo'lgan har bir ma'nodosh so'zni bera oladi. Muallif bu kitobni "Rojet'sThesaurus" ("RojetningSinonimlarLug'ati") deb nomlagan. Bu kitob yozilganda beri ingliz tilida ijod qiluvchi har bir buyuk mutafakkir yoki ijodkor undan foydalangan va bu kitob barcha til o'rganuvchilar uchun ham ajoyib ish quroli hisoblanadi.

Keling, yaxshisi Rojet's Thesaurus lug'atidagi ba'zi so'zlarga nazar solaylik.

**Intelligence, wisdom:** Mental Capacity. NOUNS (aqliy qobiliyat, bilimdonlik)

1. *intelligence*, understanding, Verstand [Ger.], comprehension, apprehension; savvy [slang, US]; sense, wit, mother wit, natural or native wit; intellect; intellectuality, intellectualism; mentality, rationality, intellectual power; capacity, caliber, reach or compass of mind; I.Q., intelligence quotient, mental ratio, mental age; sanity- knowledge.

2. *smartness, braininess* [coll.], brightness, brilliance, cleverness, aptness, aptitude, native cleverness; sharpness, keenness, acuteness; quickness, nimbleness.

3. *sagacity*, sagaciousness, astuteness, acumen, gumption [coll. & dial.], flair; long head [coll.], longheadedness, hardheadedness

4. **wisdom**, wiseness, sageness, sapience, good or sound understanding; erudition

5. **sensibleness, reasonableness**, reason, rationality, sanity, saneness, soundness; sense, good ~ common or plain sense

6. **genius, Geist** [Ger.], spirit, soul; **inspiration**, afflatus, divine afflatus; fire of genius, lambent flame of intellect, coal from off the altar; talent; creative thought

Yuqorida berilgan so'zlarning barchasi insonning aqliy qoliyati va uning donolik hamda tafakkur quvvatini ta'riflovchi so'zlardir. Demak, o'zaro ma'nodosh va sinonim bo'la oladi. Qarang, bir tushunchani qanchalik rangbarang so'zlar bilan ifodalash mumkin.

Agar sinonimlar lug'atidan foydalanishni boshlasangiz, bu nafaqat so'z boyligingizni kengaytiradi, balki turli so'zlarni turli nutq holatlarida o'rinli ishlata olishingizga imkon yaratadi.

## So'z yodlash sirlari

Xulosa qilib aytish mumkinki, so'z yodlash usullaridan unumli foydalanmoqchi bo'lgan o'quvchi avvalo ular bilan yaxshilab tanishib chiqishi va ularni amalda qo'llashi kerak. Shundagina bu usullarning aynan qaysi birlari uning ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos kelishini aniqlay oladi. Albatta, bularning hammasini birdan unumli qo'llash deyarli mumkin emas.

So'z yodlashning yana bir o'ziga xos jihati shuki, o'quvchi ularga ijodiy yondashib, yangi usullar o'ylab topishi va amalda qo'llashi mumkin. Asosiysi - mehnat qilishdan va yangilikka intilishdan to'xtamaslik lozim.


---

**15. Novatorlik uslublarini yaratishdan qo'rqmang.** Hech qachon o'zingiz uchun yangi usul yaratishdan tortinmang. Bitta usul hammaga to'g'ri keladi degan fikr noto'g'ri. Aslida, har bir inson o'ziga xos tarzda fikrlaydi va Deyl Karnegi aytganidek, betakror hisoblanadi. Shuning uchun, o'zingiz uchun eng ma'qul va eng qulay usulni izlashdan, lozim bo'lsa uni yaratishdan to'xtamang. Biror uslubning so'z yodlashingizga yaxshi yordam berayotganini sezsangiz, albatta uni takomillashtirishga harakat qiling.

Shunchaki so'z va iboralarni yodlashdan ko'ra, hikoyalar orqali matn bilan yodlash ham juda foydali hisoblanadi. Miyangiz kontekstni yaxshi ko'radi va agarda hikoyani qiziqarli tuzsangiz, yangi so'zlardan o'ziga jalb qiluvchi matn hosil qila olasiz. Shuningdek, bunday hikoyalar tuzish tasavvurni ham boyitadi. Tuzgan hikoyangizni biror obraz, joy va hayotiy vaziyatga bog'lashingiz mumkin. Bizning mushtariy bo'lgan Bobur Mirzamitdinov o'zi yodlagan so'zlardan alohida hikoya tuzib, uni yozib borar ekan. (14-rasm. 68-betga qarang).

Yana bir o'quvchining o'ziga xos noodatiy usul orqali ko'p so'zlarni yodlaganini ko'rdik. U har safar audio-kitobni olib uni o'zi uchun tarjima qilib, audio-kitobni bir hafta davomida 30 marta eshitib, hamma so'zlarni to'liq yodlaganiga amin bo'lganidan keyin, yangi kitobni olib uni yodlashga kirisharkan. Qarabsizki, bu orqali ham so'zlashuv ko'nikmasini, so'z boyligini va o'qib tushunish ko'nikmasini ham rivojlantirishga harakat qilar ekan. Mana shu haqiqiy novatorlik! O'zingizga va qobilyatlaringizga hech qachon chegara qo'ymang!

Zamonaviy va ommabop usullardan yana biri bu telefonga elektron lug'atni o'rnatib olib (*screenshot*), yangi so'z qidirilganidan keyin uni telefonning o'zidan rasmga olib, keyin esa telefondagi rasmlarni ko'rayotganda o'sha so'zga duch kelish va uni takrorlashdir.



15-rasm



## So'z yodlash sirlari

Ba'zi zamonaviy texnologiyalar bilan yaxshi tanish o'quvchilarni esa **Anki programmasi** yoki **Memrise.com** saytlari orqali yanada zamonaviy yodlash usulari bilan tanishishga chorlab qolar edik. Agar maqsad sari dadil odimlash niyatida bo'lsangiz, bu usullar sizni maqsadingizga yetishish yo'lida asosiy yordamchi bo'lib qoladi.

### 8-mashq.

Biz sizlarga turli usullar yordamida so'z yodlashni o'rgatdik. Aslida ham ingliz tilidagi so'zlarni eslab qolish o'ylagandek oson emas. Ammo harakat qilsangiz bo'ladi. Shunday osonlashtiruvchi usullardan biri bu "crazy definitions" ("ahmoqona ta'rif berish") deb nomlanib, unda til o'rganuvchi o'z fantaziyasidan kelib chiqib, so'zlar uchun ta'rif o'ylab topadi va shu tarzda eslab qoladi. Masalan, bir bolakay prune (olxo'ri qoqisi)ga - a plum that has sunbathed too much (juda uzoq oftobda toblangan olxo'ri) deb ta'rif bergan ekan. Shunday ekan siz ham bu usuldan foydalanishingiz mumkin. Savol: shu bolakay "bread" va "vacuum cleaner" so'zlarini qanday ta'rif berib yodlab qolgan deb o'ylaysiz?

**16. Ko'chma ma'noga ega** bo'lgan iboralarni yodlashda ularning lug'aviy ma'nolariga e'tibor berish.

Bu uslubning mohiyati shundan iboratki, ko'chma ma'noga ega bo'lgan turg'un iborani o'rganish uchun uni tashkil qiluvchi so'zlarning haqiqiy, tom ma'nosini ko'z oldimizga keltiramiz va shu holatni esda saqlab qolishga harakat qilamiz.

Buning uchun **"put oneself in someone else's shoes"** - **"o'zini bironing o'rniga qo'yib ko'rmoq"** iborasisini olaylik. Bu iboraning so'zma so'z tarjimasini **"o'zini bironing oyoq**



3-rasm.

## MAKON USULI




Makon usuli - bu eng ko'p ishlatiladigan ommaviy xotira texnikasi hisoblanadi chunki u juda ham sodda va har kim bu metodikani o'rganishi bilanoq hech qanday amaliyotsiz ishlataverishi mumkin. Ushbu usul siz allaqachon tartibini biladigan makonlarni (misol uchun , mahallangiz yoki uyingizda) ishlatib, ularga siz eslab qolmoqchi bo'lgan yangi so'zlarni yoki ma'lumotni tartib bilan joylashtirib chiqish orqali foydalaniladi.

4-rasm.


So'z yodlash sirlari

No	English	Uzbek
210	shady [ʃeɪdɪ] ↳ in summer people try to find SHADY places	fersoya = cool, dark
211	a soldier = fighter, trooper, rifleman, serviceman	
212	To remember	yadda tutmoq <span style="border: 1px solid black; padding: 2px;">Remember to remember</span>
213	May day <sup>SOS</sup> = May-day	oqohlantirish Mayday we need a help
214	sustainable wetland	barqaror <sup>2</sup> green <sup>3</sup> renewable
215	To sue → me	sudlashmoq  lawsuit prosecute
216	Web-camera	+
217	tools = instruments	asboblari
218	child-like	yosh bolalarcha = child-like experin
219	* <span style="border: 1px solid black; padding: 2px;">Anathema</span> = curse - punishment	qarqush la'natlanish
220	registry ↔ register registration ↳ cash register, class register, registration form (coll) You have to register first!	[redzister] ro'yxat sadlanadiv joy "registry office"
221	to barter (v)	almashirmoq = to trade <span style="border: 1px solid black; border-radius: 50%; padding: 2px;">1 ↔ 2</span>
222	Vague I found this word on page 145 of Dead End m	tingmas, not clear, or not explicit
223	gilded (adj-silbi)	oltin b-o'yoqlanuv
224	Stick  Mr. Stick	fayoq <sup>2</sup> sticker yopishirmoq <span style="border: 1px solid red; border-radius: 15px; padding: 5px; color: red;">with my gilded sword, I shall fight the enemy</span>

8-rasm.



11-rasm.



13-rasm.

## So'z yodlash sirlari

### Sunday. Trying "Oshna's Method Day 1 "Being a Manager"

There are some prerequisites to be a despot. A candidate should be munificent and perscible. He should produce facile, parochial iterations of his products. He must know that shabby and ersatz things are always nugatory in eyes of Koi-polloi who prefer arresting offers like peshudes for bedfews. He should not be clandestine and mendacious as well as mimic that usually ape ideas of others. Besides, he should not be ambivalent or better say equivocal at crisis times. He should patronize and condescend green workers. By being forgiving he must teach students to outstrip and overtake their opponents.

### Monday. Trying "Oshna's Method Day 2 "Guards of Apple"

Shera Lee and Nura Lee were convivial verdant workers in Apple Co. Shera Lee was sanguine, complaisant and pragmatic. Tangential to him, Nura Lee was taciturn, tremulous autodidact who was kinda catalyst who can inform other proponents. When Apple was in a crisis, he posited that nobody should pan future of the company as a coda. He was superstitious positively. Unbeknownst to Shera Lee, Nura Lee was inundated and dumbfounded about risible ephemeral statements of Shera Lee. As an emblematic of CEO, Abdul Va Lee trumpeted and cashbarked Shera Lee for his disuse ideas. On the other hand, directors were casting a blind eye on everything. They were inured to unconscionable future acts. To the anger of others, these kinds of progenies were overrun in the company. They never coalesce with real sentiments of Apple. Ahmad Alee call them recidivists who always swindle from dismissed people. Shera Lee and Nura Lee have coalesced. They were simpatico who are not chary of enigmas and delusion. They ranked against CEO who were fecundating directors who are not prescient in nature. Finally, Shera Lee and Nura Lee were heralded (heralded) as saviors of Apple. Nowadays Apple is abreast of technology.

*kiyimiga solmoq*” bo'ladi. Uni eslab qolish uchun o'zingizni xuddi birovning oyoq kiyimini kiyib ko'rayotganday tasavvur qiling. Natijada o'zingizni boshqacha holatda his qilasiz. Shundan kelib chiqib, **"put oneself in someone else's shoes"** degan iboraning ko'chma ma'nosi aslida o'zingizni boshqa insonning o'rniga qo'yish degani ekanligini uqib olasiz.

## || YANA BA'ZI MASLAHATLAR ||

➡ Har doim sabablarni o'rganishga urinish kerak. Nimaga bu so'zning shakli bunday? Bu so'z nima sababdan bunday o'qiladi? Nima sababdan bu so'zni yodlashga juda qiynalyapman? Tarzidagi savollarni o'zingizga berishga odatlaning.

➡ So'zlarning xususiyatlarini turli manbalardan (lug'at, ensiklopediya va boshqalar) foydalangan holda chuqurroq o'rganing, ular bilan o'yinlar o'ylab toping va o'ynang.

➡ Har bir soz'ning ma'nosini ongingizda jonlantirishga urining, zero tasavvur bilimdan ko'ra kuchliroq. Har qanday fakt yoki yangi so'zni tasavvurlar orqali ko'rib borish uni eslab qolishni yaxshilaydi.

➡ Ijodiy fikrlarshni o'rganing. O'zingiz yangi o'rgangan so'zlar bilan qofiyadosh so'zlarni topib o'rganing va ular ishtirokida kichik she'rchalar tuzing.

➡ Yangi yodlangan so'zlarni qaytarishdan charchamang.

➡ Uyqudan avval va uyg'ongach, erta tongda so'zlarni takrorlang. Negaki, uyqudan keyin xotira ayniqsa takrorlashga moyil bo'ladi.

8-bob.

36 TALIK TESTGA MOSLASHGAN  
LUG'AT YODLASH

*One language sets you in a corridor for life. Two  
languages open every door along the way.*

— Frank Smith

*"Bir til sizni hayot so'qmog'iga olib chiqadi. Ikkitasi esa  
yo'ldagi barcha to'siqlarni yengishga yordam beradi"*

— Frenk Smit

Kitobchamizni qo'liga olib o'qib turgan yigit va qizlarning ko'pchiligida bir xil maqsad va orzu bor. U ham bo'lsa, oliy o'quv yurtiga o'qishga kirish, o'qishni tamomlash va yaxshi mutaxassis bo'lib yetishish. Biroq bu maqsad yo'lida bir dona to'siq bor - imtihondan o'tish. Imtihondan o'tish uchun esa, albatta, ingliz tilidan 36 ta test savollariga javob berish shart.

Ingliz tilidan test savollariga to'g'ri javob bera olish uchun ingliz tili grammatikasi qoidalarini yaxshi bilish bilan bir qatorda, 4500-5000 atrofida inglizcha so'zni bilish lozim. Chunki, barcha test savollari ingliz tilida berilgan bo'lib, ularning salmoqli qismini inglizcha matnlar tashkil qiladi.

Xo'sh, 36 ta ingliz tili test savollariga to'g'ri javob berishda o'quvchilarga qanday yordam berish mumkin? Avvalo, ko'p so'z yodlash kerakligi sizni cho'chitmasin. Maqolda aytilganidek, "Qalovini topsang, qor ham yonadi."

O'quvchi test yechish uchun so'z yodlar ekan, demak yangi so'zlarni ham aynan shu test variantlaridan olishi kerak. Masalan, testvariantlarini yechayotib, o'zi duch kelgan yangi so'zlarni yozib borsin.

Endi, yangi so'zlarni ro'yxat qilib bo'lgach, ularni alohida so'zlar va iboralarga saralash mumkin. Agar alohida so'z bo'ladigan bo'lsa, yuqorida keltirilgan usullar bo'yicha yodlashni boshlashi kerak.

Birinchi navbatda, o'quvchi ingliz tilida eng keng

qo'llaniladigan so'zlar va iboralarni guruhlashtirib, shular asosida ish olib borishi lozim. *Masalan*, ingliz tilining yirik lug'atlarida ingliz tilida eng ko'p qo'llanuvchi so'zlar alohida ajratib ko'rsatiladi. Eng zaruriy so'zlarni aniqlab olgach, yuqorida ta'riflangan yodlash va xotirada saqlash usullari yordamida ularni o'rganishga kirishish mumkin.

So'z yodlashni osonlashtiruvchi keyingi usul-eng ko'p qo'llaniladigan iboralarni o'rganishdir. Quyida ingliz tilida (shu bilan birga test savollarida ham) eng ko'p qo'llaniluvchi fe'li iboralar (phrasal verbs) ko'rsatilgan.

### || 20 TA ENG KERAKLI FE'LLI IBORALAR ||

Ingliz tilida eng ko'p ishlatiluvchi fe'li iboralarni taqdim qilishdan oldin ular haqida ikki og'iz so'z: fe'li iboralar fe'l + predlog/ravish tuzilishiga ega bo'lgan iboralar bo'lib, odatda bunday iboraning ma'nosi uni tashkil qiluvchi fe'l yoki predlogning ma'nosiga bog'liq yoki o'xshash bo'lmaydi. *Masalan*: "**let down**" - "*pand bermoq*". Bu iboraning ma'nosida na "**let**" - "*ruxsat bermoq*" va na "**down**" - "*pastga*" ma'nolariga aloqadorlik bor.

Fe'li iboralarni yodlashning eng samarali usuli bu ular ifodalagan ma'noni ko'z o'ngimizda shakllantirish (garchi bu iboraning shakliga zid bo'lsa ham) va ular ishtirokida turli gaplar tuzishdir. Tuzilgan gaplar qanchalik g'ayrioddiy va kulgili bo'lsa, iboraning esda qolishini shuncha osonlashtiradi. Demak, fe'li iboralarni yodlash jarayonida ikkita omil - mehnat va o'z tasavvuringizga suyanishingiz sizga katta yordam beradi.

**1) Look forward to - sabrsizlik bilan kutmoq.** Tasavvur qiling, birovning kelishini sabrsizlik bilan kutyapsiz. Bunday holatda nima qilgan bo'lardingiz? Albatta, ko'chaga chiqib oldinga (forward) tomon (to) qaragan (look) bo'lardingiz. Demak, birovni sabrsizlik bilan kutayotgan inson oldinga, uning kelajak yo'lga tikilib qaraydi. Tasavvur qila oldingizmi? Keling endi shu ibora bilan gap tuzaylik:



## Soʻz yodlash sirlari

— I am looking at the calendar all the time because **I am looking forward to my birthday.**

— Men kalendarga tinmay qarayapman, chunki tugʻilgan kunimni sabrsizlik bilan kutayapman.

2) **Look for** - izlamoq. Biror narsani izlayotgan (look for) odam uni topish uchun (for) atrofga qaraydi (look). Bu iboraning mantiqiy asosi ham endi bizga maʼlum.



*Masalan:*

— Yesterday **I looked for** this book in the library.

— Kecha men bu kitobni kutubxonadan izladim (topish uchun qaradim).

3) **Look round** - atrofga qaramoq (tomosha qilmoq).

Bu ibora oʻz maʼnosini oʻzi taʼriflab turibdi. Biror joyni tomosha qilayotgan odam albatta atrofga qarash (look round) orqali bu ishni bajaradi. *Masalan:*

— **I was looking round** in the shop when the shop assistant came up to me.

— Yonimga sotuvchi kelganida men doʻkonni tomosha qilayotgan edim.

4) **Go on** - davom etmoq. Tasavvurimizda, bir odam yurishda (go) davom etaveradi, etaveradi, hech toʻxtamaydi. Natijada gap hosil boʻladi: **He goes on and on. He never stops.**

— **U yuraveradi va yuraveradi** (yurishda davom etaveradi). **U hech toʻxtamaydi.**

5) **Put up with** - koʻnikmoq, chidamoq. "Put up" - "toʻxtamoq" degani. Biror narsaga koʻnikkan, chidashga

rozi (put up with) bo'lgan inson kurashishdan, holatni o'zgartirishga urinishdan to'xtaydi (put up), har qanday holat bilan (with) ko'nikib yashashga rozi bo'ladi. *Masalan:*

— **He put up at a bad hotel and put up with the bad condition there because he was very tired.**

— *U yomon mehmonxonada to'xtadi va u yerdagi yomon holatga ko'nikdi, chunki u juda charchagan edi.*

**6) Find out** - so'rab bilmoq, surishtirib bilmoq. Biror ma'lumotni surishtirib bilgan (find out) shaxs bu ma'lumotni avval topadi (find) va keyin uni yuzaga, tashqariga (out) chiqaradi.

— **I found out that he had found out all the information.**

— *Men uning hamma ma'lumotni surishtirib bilib bo'lganini so'rab bildim.*



**7) Take off** - parvoz qilmoq, yerdan ko'tarilmoq. Bu ibora ham ikki qismdan iborat. "Take" - "olmoq" va "off" - "ustidan".

Uchayotgan (take off) samolyot shundoq oladida (take), yerning ustidan (off) tepaga ko'tariladi. *Masalan:*

— **I took a picture of a plain which was taking off.**

— *Men yerdan ko'tarilayotgan samolyotning rasmini oldim.*

**8) Take after** - fe'l atvor jihatidan o'xshamoq. O'zbeklarda "Ot o'rnini toy bosar" degan maqol bor. Ya'ni, toy ulg'ayib otning o'rnini oladi (take). Albatta otning o'rnini olgan (take) toy otdan keyin (after) dunyoga keladi va unga o'xshaydi. Shunga o'xshash har qanday inson farzandi o'z ota-onasidan keyin (after) dunyoga keladi va ularning o'ziga xos jihatlarini ulardan oladi (take). *Masalan:*

## Soʻz yodlash sirlari

— **He is a very good natured boy. He takes after his father.**

— *U juda xushtabiat bola. U otasiga oʻxshaydi.*

9) **Do well in** - biror sohada muvaffaqiyatga erishmoq. Bu iborani tahlil qiladigan boʻlsak, undan quyidagi maʼnolarni uqib olishimiz mumkin. Biror sohada muvaffaqiyatga erishmoqchi boʻlgan odam shu sohada **yaxshi ishlashi/harakat qilishi** (do well) kerak. Va albatta bu xatti-harakatlar oʻsha sohaning ichida (in) amalga oshiriladi. Demak, biror sohaning ichida yaxshi ishlamoq (do well in) unda muvaffaqiyatga erishishga olib kelar ekan. *Masalan:*

— **He is working very hard on his English and he is doing very well in it.**

— *U ingliz tilisi ustida juda qattiq mehnat qilmoqda va bu sohada muvaffaqiyatga erishmoqda.*

10) **Run out** - tugab qolmoq. Bir qarashda bu iborani tashkil qiluvchi soʻzlar va bu iboraning maʼnosi oʻrtasida hech qanday bogʻliqlik yoʻqday. Biroq bogʻliqlik albatta bor! Faqat buni koʻra bilish kerak. Tasavvur qiling, mashinangizning benzini tugab qoldi (run out). Boshqacha qilib aytsak, benzin mashinaning ishlash jarayonida motor tomon yuguradi (run) va u benzin bakidan tashqariga (out) chiqib ketadi. Natijada benzin tugab qoladi (run out). *Masalan:*

— **On the way to Samarkand the petrol in my car run out.**

— *Samarqandga ketayotib mashinamning benzini tugab qoldi.*

11) **Give up** - tashlamoq (biror odatni). Bu iborani eslab qolish uchun bir manzarani koʻz oldingizga keltiring: koʻpincha, detektiv filmlarda politsiya qurollangan jinoyatchiga qurolini tashlashni (give up) buyuradi. Shunda jinoyatchi qurolni politsiyachiga beradi (give) va darhol qoʻllarini tepaga (up) koʻtaradi. Endi u qurolini tashladi, qurolsiz. *Masalan:*

— **The criminal gave up his gun in order not to be shot by the police.**

### 36 talik testga moslashgan lug'at yoshlash

---

— *Jinoyatchi politsiya tomonidan otib tashlanmaslik uchun qurolini tashladi.*

**12) Send for - birovgga (chaqirgani) odam jo'natmoq.** Agar bizga birovni chaqirtirish lozim bo'lsa, o'sha odamni chaqirtirish uchun (for) uning oldiga boshqa bir odamni yuboramiz (send). *Masalan:*

— **We usually send for the doctor when my grandfather feels ill.**

— *Odatda, bobom o'zini kasal xis qilganda doktorga yuboramiz.*

**13) Get into - chiqmoq/ot'tirmoq (mashinaning ichiga).** Ma'lumki, mashinaga o'tirayotgan (get into) odam uning ichiga (into)kiradi (get). *Masalan:*

— **John ordered Mary to get into his car.**

— *Jon Mariyaga uning mashinasiga o'tirishni buyurdi.*

**14) Stand by - guvoh bo'lmoq.** Biror voqea hodisaga guvoh bo'lgan odam o'sha joyning yonida (by) turadi (stand). *Masalan:*

— **The police took accounts of the accident from two witnesses who happened to be standing by at the time of the crash.**

— *Politsiya halokat haqida ma'lumotni to'qnashuv paytida tasodifan o'sha yerda turib guvoh bo'lib qolgan ikki kishidan oldi.*

**15) Pull up -to'xtatmoq.** Bu iborani eslab qolish ham juda oson. Ma'lumki, ot yoki ot arava mingan odam o'sha hayvon yoki ulovni to'xtatish uchun uning yuganini tepaga (up), ya'ni o'ziga qarab tortishi(pull) kerak. Shunda u o'zi boshqarayotgan ulovni to'xtatadi(pull up). *Masalan:*

— **The driver pulled the bus up only just in time to avoid hitting the child.**

— *Haydovchi bolani urib yubormaslik uchun avtobusni aynan kerakli paytda to'xtatdi.*

**16) Keep away - o'zini olib qochmoq.** Agar siz biror shaxs yoki narsadan o'zingizni olib qochmoqchi (keep away) bo'lsangiz, o'sha shaxs yoki narsadan uzoqda (away)saqlaysiz (keep)o'zingizni. *Masalan:*

— **I don't quite like Peter. I try to keep away from him.**

— *Men Piterni unchalik yoqtirmayman. Men undan o'zimni olib qochishga harakat qilaman.*

**9-mashq. Frazelogik fe'llar ustida mashq.**

Agar yuqoridagi hamma fe'lli iboralarni yodlagan bo'lsangiz, bilimingizni tekshirib ko'ring. Quyidagi iboralarning ma'nolarini yuqoriga qaramagan holda yozib chiqing va ularni mustaqil izohlashga harakat qiling.

**Look forward to**

**Look for**

**Look round**

**Go on**

**Put up with**

**Take off**

**Find out**

**Do well in**

**Run out**

**Take after**

**Give up**

**Send for**

**Move in**

**Stand by**

**Put on**

**Stay up**

**Hold up**

**Keep away**

**Pull up**

**Get into**

**10-Mashq.** 9- mashqni bajarib, bilimingizga qoniqish hosil qilgan bo'lsangiz, endi xuddi shu usul bilan o'zingiz duch kelgan boshqa fe'lli iboralarni ham tahlil qiling. Ularning ma'nosini izohlang va yod oling. Biz ushbu mashq uchun quyidagi fe'lli iboralarni taklif qilamiz: blow up, bring up, carry on, turn up, watch out, break up, fall out with, keep on.

**17) Move in - ko'chib kirmoq.** Siz yangi uyga ko'chib kiryapsiz (move in). Eski makoningizdan barcha kerakli ashyolarni olasizda, ularni yangi uyning ichiga (in) qarab jildirasiz (move), ya'ni olib kirasiz. *Masalan:*

— **Jane lives in a large block of flats where lots of people move in and out.**

— *Jeyn ko'pchilik ko'chib kiradigan va ko'chiqib chiqadigan katta ko'p qavatli uyda turadi.*

**18) Stay up - uxlamaslik/bedor bo'lish.** Bu ibora go'yoki o'zini o'zi ta'riflaganday. Axir, uxlamagan (stay up) odam tik (up) ya'ni yotmagan holatda qoladi (stay). *Masalan:*

— **The children were allowed to stay up at night as next day they wouldn't go to school.**

— *Bolalar ertasi kuni maktabga bormasliklari bois ularga tunda uxlamaslikka ruxsat berishdi.*

**19) Put on - kiymoq.** Agar bu ibora so'zma so'z tarjima qilinsa, ustiga joylashtirmoq degan ma'noni bildiradi. Darhaqiqat, biror kiyimni kiyganda biz uni ustimizga (on) joylashtiramiz (put). *Masalan:*

— **The teacher put on his hat and left the classroom.**

— *Muallim shlyapasini kiydi va sinfdan chiqdi.*

**20) Hold up - namoyish qilmoq.** Samarqandga 2001-yil sayohat qilganimda men ketayotgan avtobus Jizzax shahrida to'xtagan. Shunda turli oziq-ovqat sotuvchilar o'z mahsulotlarini tepada (up)ushlab (hold) ularni namoyish qilishgandi.

*Masalan:*

— **On the day of his graduation he held up his diploma so that everyone could it.**

— *O'zining bitiruv kunida u hamma ko'rishi uchun diplomini namoyish qildi.*

|| INGLIZ TILIDA ENG KO'P ADASHTIRILADIGAN SO'ZLAR ||

Ingliz tilida shunday murakkab, bir-biriga o'xshash va chalg'ituvchi so'zlar borki, ularni shunchaki yodlash kam foyda beradi. Bunday so'zlarni mukammal o'rganish uchun ulardagi farqlarni o'rganish juda muhim hisoblanadi. Ikkita bir-birlariga o'xshash so'zlarni farqiga borish ularni tushunishga bo'lgan ilk qadam hisoblanadi. Misol uchun, affect so'zi bilan effect so'zining farqi nimada? Quyida bu masalaga bir oz oydinlik kiritamiz.

**brake** - tormoz

**break** - sindirmoq, buzmoq

Masalan:

— **I broke the brake of my car.**

— *Men mashinamning tormozini buzib oldim.*

**disinterested** - holis, biror tarafga yon bosmaydigan

**uninterested** - qiziqmaydigan

Masalan:

— **I am uninterested in football that's why I watched the match between Barcelona and Real Madrid in a disinterested manner.**

— *Men futbolga qiziqmayman shuning uchun ham Barselona va Real Madrid o'rtasidagi matchni biror tarafga yon bosmay tomosha qildim.*

**advice** - tavsiya (ot)

**advise** - tavsiya bermoq (fe'l)

Masalan:

— **I advise you to take my advice.**

— *Men senga mening maslahatimni olishni maslahat beraman.*

**affect** - ta'sir ko'rsatmoq

**effect** - natija, samara

*Masalan:*

— If you want to affect your brother show him the effect of your work.

— *Agar sen ukangga ta'sir ko'rsatmoqchi bo'lsang, unga o'z ishingning natijasini ko'rsat.*

rise - ko'tarilmoq (o'timsiz fe'l)

raise - ko'tarmoq (o'timli fe'l)

*Masalan:*

— In the morning when the sun rises, we raise the flag of our country.

— *Ertalab quyosh ko'tarilganda, biz mamlakatimiz bayrog'ini ko'taramiz.*

eminent - *mashhur*

imminent - *kelishi, ro'y berishi aniq*

*Masalan:*

— When a person becomes particularly eminent, the danger for his life becomes imminent.

— *Inson g'oyat mashhur bo'lganda, uning hayoti shubhasiz xavf ostida bo'ladi.*

Bear - *ayiq*, beer - *pivo*

Bear hamda beer so'zlarini eslab qolishda ikkala so'z qatnashgan gapni eslab aniq tasavvur hosil qiladigan bo'lsangiz yanda yaxshiroq eslab qolasiz "**A beer drink beer**". Tasavvur qilganizda pivoning idishida **BEER**, ikkita ee bilan yozilganiga e'tibor qarating.

Ba'zi ingliz so'zlariga shunchaki gaplar tuzish yoki mnemonik qoidani ishlatib ham yodlab qolish mumkin.



**11-mashq. Quyidagi so'zlarning ma'nosidagi farqlarini toping:**

*ensure - insure - assure; all together - altogether; accept - except; censor - censure - sensor; complement - compliment; farther - further; ideal - idyll - idol - idle; lie - lay; lose - loose; principal - principle; rain - reign - rein; torrid - torpid - turbid - turgid; tortuous - torturous; weather - whether; conscious - unconscious - sub-conscious; practice - practice.*

### TESTNI TO'G'RI YECHISH STRATEGIYALARI

Abiturient 5000 yoki 10 000 ta so'zni yodlab olishi mumkin lekin test yechish strategiyalarini yaxshilab o'rganmasa, o'qishga kirishi va umuman ingliz tilidan yuqori ball to'plashi mushkul bo'lib qoladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, sizga test yechishda qo'l keladigan quyidagi strategiyalarni taklif qilishimiz mumkin:

➔ Ko'p xato qilgan testlar ustida ishlang. 36 ta testdan necha dona xato qilayotganingizni yozib boring, va har bir xatoni tahlil qiling. Aks holda siz ayni xatoni takrorlayverasiz va natijangiz yaxshilanmaydi.

➔ Qaysi mavzu bo'yicha xatoingiz ko'p bo'lsa o'sha mavzu ustida ko'proq ishlang. Bilingki, hozir siz ko'p xato qilib keyinchalik ularni takrorlamaslikka o'rganishingiz darkor. Kimdir artiklga oid savollarda ko'p xatoga yo'l qo'yadi, kim uchundir shart mayli muammo kasb etadi. Demak, abiturient uchun aynan shu mavzularga chuqurlashish lozim bo'ladi.

➔ Ingliz tili darsliklarini qunt bilan o'rganing. Zero imtihon paytida siz javob berishingiz kerak bo'lgan savollar mavzularining ko'pchiligi Bonk, Merfi, Golitsinkiy kabi maulliflarning darsliklaridan olinadi.

## 36 talik testga moslashgan lug'at yoshlash

---

### 2011-yil ingliz tili test variantlari, 105 variantning

#### 5 savoli quyidagicha:

Choose the appropriate non-finite form of the verb.

- *Oh, I see you look younger today.*
- *Thank you, I've just had my hair ... .*

a) to have cut; b) cutting; c) cut; d) to cut

Bu test savoli orttirma nisbatga oid bo'lib, bu nisbat haqida R. Murphy muallifligidagi English Grammar in Use kitobining 45-darsida so'z boradi. Mazkur savolning to'g'ri javobi "C) cut" bo'ladi.

➡ Test savollariga javob berishni boshlashdan oldin topshiriq aynan nimani talab qilayotganini aniq bilib oling. Shu o'rinda o'quvchilar uchun xushxabar shuki, oxirgi yillarda chiqayotgan test savollarida aksar topshiriqlar lo'ndagina «Choose the right answer» (*to'g'ri javobni tanlang*) shakliga ega.

➡ O'z vaqtingizni to'g'ri boshqarishga ham e'tibor bering. Birinchi marta 36 talik testni yechayotganingizda vaqtga emas sifatga asosiy e'tiborni qarating. Imtihonga 2-3 oy qolganda esa testlarni vaqtga e'tibor bergan holda yeching. Testlarni aniq necha daqiqada yecha olishingizni bilib oling. Taqqoslash uchun aytish mumkinki, ingliz tilini yaxshi bilgan inson 36 talik testlarni 7 daqiqa ichida yecha oladi.

➡ Test yechishning oltin qoidasi shuki, agarda biror savolga javob topishga qiynalsangiz, hecham siqilmang. Shunchaki boshqa savollarga javob berib, keyin bu savolga qaytishga urining. Bilingki, testda doimo eng oson savollarni birinchi yechib olish kerak, qiyin va o'ylantirgan savollarga nuqta qo'yib keyin yana qaytishga harakat qiling.

➡ Testning yana bir oltin qoidasi bu "**Process of Elimination**" - "Noto'g'ri javoblarni chiqarib tashlash"dir. Bu degani muqobil javobli testlarda **A B C D** javoblardagi

## Soʻz yodlash sirlari

siz aniq notoʻgʻri deb hisoblagan javobni darhol chiqarib tashlashdir. Bu narsa toʻgʻri javobni topish imkoniyatingizni oshiradi.

Ingliz tili boʻyicha 2008-yilgi test variantlarining 107-sida quyidagicha topshiriq bor:

*Choose the answer which correctly completes the sentence.*

**I feel tired this morning. I didn't sleep ... last night.**

- a) better;    b) best;    c) well;    d) good

Bu topshiriqqa javob topishda gapning mazmuniga eʼtibor beramiz. Maʼlum boʻladiki, bu gapda hech qanday taqqoslash yoʻq, demak, a) va b) variant javoblar chiqarib yuboriladi, chunki ular qiyosiy va orttirma nisbat maʼnolariga ega. c) va d) variantlar qoladi. d) variantdagi soʻz "good" boʻlib, u faqat ot bilan ishlatila oladi. Natijada, u ham chiqarib yuboriladi va yagona toʻgʻri javob - "c) well" tanlanadi.

— Muqobil javoblarni topayotganda koʻpincha nuqtalar oʻrniga kerakli soʻzni qoʻyish talab qilinadi. Aniq javobni topishdan oldin, shu nuqtalar oʻrniga aynan qaysi soʻz turkumiga oid soʻz qoʻyilishini bilib olish ham juda foydali.

Ingliz tili boʻyicha 2010-yilgi test variantlarining 105-sida quyidagicha topshiriq bor:

*Choose the answer which correctly completes the sentence.*

**Martha always has a good ... of food in the house.**

- a) supplies; b) supplied; c) to supply; d) supply

Bu topshiriqda sifat soʻz turkumidan keyin soʻz qoʻyish kerak. Bizga maʼlumki, sifat gapda asosan, aniqlovchi vazifasida keladi va oʻzidan keyin ot soʻz turkumini talab qiladi. Good soʻzidan oldin noaniq artikl turganini eʼtiborga olsak, bizga birlik shaklidagi ot soʻz turkumiga oid soʻz kerak. Bu oʻrinda yagona toʻgʻri javob - "d) supply".

9-bob.

**BIRDANIGA 14 000 TA SOʻZNI OʻRGANING!**

*Words are some of the most powerful and important things I know.... Language is the tool of love and the weapon of hatred. It's the bright red warning flag of danger - and the stone foundation of diplomacy and peace.*  
— Ludwig Wittgenstein

*"Soʻzlar men bilgan eng muhim va eng qudratli narsalardandir... Til muhabbatning vositasi, nafratning qurolidir. U xavfdan darak beruvchi qizil bayroqdir, diplomatiya va tinchlikning tamal toshidir."*  
— Lyudvig Vitgenshtein

Soʻz ildizlarini va old qoʻshimchalarni oʻrganish ham juda katta foyda berar ekan. Bir manbada yozilishicha, ingliz tilidagi 14 ta prefiksni (old qoʻshimchani) bilishning oʻzi 14 000 dan ortiq soʻzning maʼnosini tushunish imkonini berarkan. Albatta, 14 ta old qoʻshimchani oʻrganish darhol 14000 ta soʻzning maʼnosini bilib olish degani emas. Lekin aynan shu old qoʻshimchalar tufayli soʻzning maʼnosini toʻgʻri taxmin qila olishingiz va hatto uni toʻgʻri tushuna olishingiz ham mumkin. Bu old qoʻshimchalarga quyida batafsil toʻxtalsakda, keling shu oʻrinda bir misolga eʼtibor qaratsak.

Ingliz tilida **"inter-**" old qoʻshimchasi mavjud boʻlib, uni oʻzbek tiliga **"-aro"** qoʻshimchasi yoki **"oʻrtasida"** koʻmakchisi yordamida tarjima qilish mumkin. Endi inglizcha **"interchange"** va **"interpersonal"** soʻzlarini olsak. Birinchi soʻzning oʻzagi **"change"** - **"oʻzgarish/almashish"** ekanligini bilgan holatda bu soʻzdan **"oʻzaro almashish"** maʼnosini chiqarish mumkin. **"interpersonal"** soʻzi esa **"shaxslar aro/shaxslar oʻrtasidagi"** deb tarjima qilinishi mumkin.

Demak, old qoʻshimchalar maʼnosini bilishingiz va ularni oʻzingizga allaqachon maʼlum boʻlgan oʻzaklar bilan birgalikda

## Soʻz yodlash sirlari

ishlata olishingiz lugʻat boyligingizning keskin oshishiga olib keladi.

**"anti-"** old qoʻshimchasi "qarshi" degan maʼnoga ega. Bu qoʻshimcha bilan yasalgan soʻzlar oʻzbek tilida ham koʻp qoʻllaniladi, masalan: "antivirus", "antibiotik" va boshqalar.

anti-abortion - abortga qarshi  
anti-war - urushga qarshi  
anti-damage - buzilishga qarshi

**"bi-"** bu old qoʻshimcha ikki degan maʼnoni beradi.  
bicycle - velosiped (ikkigʻildirakli transport vositasi)  
bilingual - ikki tilli  
bilateral - ikki tomonlama

**"co-"** bu old qoʻshimcha "birgalikda", "ham - " degan maʼnolarni beradi. U qatnashgan barcha soʻzlar nimanidir birgalikda amalga oshirish maʼnosini beradi.

co-operate - hamkorlik qilmoq, birgalikda ishlamoq  
co-exist - birgalikda yashamoq/mavjud boʻlmoq  
co-author - hammuallif

**"counter-"** oʻzbek tiliga bu old qoʻshimchani "qarama-qarshi", "aks", "zid" maʼnolari bilan tarjima qilish mumkin.

counter-argument - qarama-qarshi dalil  
counter-question - qarama-qarshi savol  
counter-balance - posongi (aks muvozanat)

**"hyper-"** old qoʻshimchasining maʼnosi "oʻta/keragidan ortiq" degani.

hyper-active - oʻta faol, tinim bilmaydigan  
hyper-real - oʻta haqiqatga yaqin  
hyperacid - oʻta kuchli kislota

**"multi-"** bizga yoshligimizdan sevimli boʻlib qolgan "multifilm" soʻzi aslida "koʻp film" degan maʼnoni bildiradi. Demak, oʻzbekchaga "multi-"ni "koʻp" deb tarjima qilish mumkin.

multitasking - koʻp vazifani bir paytda bajarish

multilayer - koʻp qatlamli

multifunctional - koʻp funksiyalarga ega

**"non-"** bu old qoʻshimcha inkor maʼnosini bildiradi. Qanday soʻzda kelishiga qarab uni oʻzbek tiliga "emas", "no-", "boʻlmagan" deb tarjima qilish mumkin.

non-payment - toʻlamaslik

non-ability - noqobilik

non-adjustable - moslashtirib boʻlmaydigan

**"over-"** bu old qoʻshimchani asosiy maʼnosi "ust, yuqori" boʻlib, qanday soʻz tarkibida kelishiga qarab "oshiqcha", "oʻta", "yuqori" deb tarjima qilinishi mumkin.

overestimate - oʻta yuqori baho bermoq

overdo - oshirib bajarmoq

overfeed - oʻta koʻp ovqatlantirmoq

**"post-"** bu old qoʻshimcha vaqtga nisbatan ishlatilganda "keyingi", joyga nisbatan ishlatilganda esa, "orqada" degan maʼnolarni ifodalaydi.

post-industrial - sanoatlashtirishdan keyingi davrga oid

post-mortem - vafotdan keyingi

postnuptial - nikohdan keyingi

**"pre-"** old qoʻshimchadi paytga va oʻringa nisbatan ishlatiladi va har ikkala holatda ham "oldingi/oldindan" degan maʼnoni bildiradi.

pre-arranged - oldindan kelishilgan

pre-cooked - oldindan pishirilgan

## So'z yodlash sirlari

pre-eminent - hammadan oldinda, hammadan ilg'or

"**re-**" old qo'shimchasi ingliz tilida eng keng qo'llaniluvchi old qo'shimchalardan biridir. Uni o'zbekchaga "qayta/yana bir marta" deb tarjima qilish mumkin.

re-activate - qaytadan ishga tushirish

re-collect - qayta to'plamoq

rerecord - qaytadan yozmoq

"**self-**" bu old qo'shimcha "o'z" degan ma'noni bildirib, ingliz tilida juda keng qo'llaniladi.

self-abandonment - o'zligini unutish

self-education - o'z-o'ziga ta'lim berish

self-realization - o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish

"**sub-**" bu old qo'shimcha "ostida/ostki" degan ma'nolarga ega. Nafaqat tom ma'nodagi pastlikni balki o'zaro taqqoslagandagi pastroq darajani ham bildiradi.

submarine - suv osti kemasi

subway - metro (yer ostidagi yo'l)

suburb - shahar atrofi (shaharga tobe' bo'lgan hudud)

"**super-**" old qo'shimchasi "o'ta, eng oliy, yuqori" kabi ma'nolarni ifodalaydi.

super-accurate - o'ta aniq, hatoga yo'l qo'ymaydigan

super-hero - "super qahramon", o'ta yuqori qobiliyatlarga ega bo'lgan qahramon

supermarket - o'ta katta do'kon.

Yuqorida ko'rib chiqilgan old qo'shimchalarni o'rganish va ularni mustahkamlash uchun quyidagi mashqni tavsiya qilamiz:

1) *Kattaroq hajmli inglizcha-ruscha yoki inglizcha-inglizcha lug'atni qo'lingizga oling;*

2) *Alifbo tartibi bo'yicha o'zingiz o'rgangan old qo'shimchaga ega so'zlarni ushbu lug'atdan toping;*

3) Bunday soʻzni topgach uning tarjimasi yoki inglizcha izohini oʻqishga shoshilmang, balki, olgan bilimingiz asosida bu soʻzning maʼnosini taxmin qilib koʻring;

4) Qilgan taxminingizning toʻgʻri yoki notoʻgʻriligini lugʻatdan yekshiring;

Yana bir foydali maslahat: taxmin qilayotgan soʻzlaringizni alohida lugʻat daftariga yozib boring va har 10 ta soʻzdan nechtasini toʻgʻri taxmin qila olganingizni hisoblab boring. Natijada, taxmin qilish qobiliyatingizning necha foiz ekanligi va uning rivojlanishini kuzatish imkoniga ega boʻlasiz.

## || O'ZAKLARNI YODLASH ||

Ingliz tilidagi yangi soʻzlarni yodlashda ajoyib natijalarga erishishning eng yaxshi usullaridan biri - biz odatda koʻp foydalanadigan inglizcha soʻzlarning oʻzaklarini oʻrganishdir.

Agar ingliz tilida koʻp ishlatiladigan soʻzlarning oʻzaklarini qunt bilan oʻrgansangiz, nafaqat lugʻat boyligingiz va undan toʻgʻri foydalanish qobiliyatingizni rivojlantirasiz, balki yana bir muhim narsani bilib olasiz: soʻzlar aslo zerikarli, mavhum va tushunarsiz emas, aksincha ular juda qiziqarli, maʼno-mazmunga egadir.

Soʻzlarning oʻzaklarini oʻrganish bu ularning paydo boʻlish va til boʻylab tarqalishi haqida bilim beruvchi ajoyib va qiziqarli mashgʻulotdir. Soʻzlarning kelib chiqish yoʻllarini oʻrganuvchi olimlar "etimologlar" deb nomlanadilar. Soʻzlarning oʻzaklarini oʻrganish orqali siz ham etimologga aylanasiz. Etimologiya" soʻzining oʻzini oʻrganib chiqadigan boʻlsak, u yunon tilidagi "etymon" - "haqiqiy maʼno" va "logia" - "taʼlimot", "fan" sozlarining birlashuvidan hosil boʻlgan; "logia" soʻzi esa oʻz navbatida "logos" - "soʻz" soʻzidan kelib chiqqan. Demak, oldingi boblarda taʼkidlaganimizdek, "etimologiya" soʻzini oʻzbek tiliga "soʻzning haqiqiy maʼnosi haqidagi fan" deb tarjima qilishimiz mumkin ekan. Inglizcha



## So'z yodlash sirlari

so'zlarning asl ma'nolarini o'rganuvchi shaxs sifatida, o'zingizni ham "etimolog" deb atashingiz mumkin.

Har bir o'zak so'z ichiga qamab qo'yilgan jonzotga o'xshaydi. Siz o'zakni o'rganish orqali shu jonzotga erkinlik berib, unga o'zining go'zalligi, tarixi va asl mohiyatini ochib berishga imkon berasiz, go'yo. *Masalan*, g'arb mumtoz musiqa asarlarini kuzatsangiz, ularga "Opus 1" yoki "Opus 104" deb nom berilganini ko'rishingiz mumkin. Bunday musiqani tinglagan odam "menimcha, "opus" so'zi "ijodiy ilhom" yoki "musiqiy shedeвр" degan ma'nolarni bildirsa kerak", deb o'ylashi mumkin. Aslida opus so'zining ma'nosi qanday?

Agar so'zning o'zagini bilsangiz, bu savolga qiynalмай javob topasiz. Lotin tilidan kelib chiqqan bu so'zning o'zagi oddiygina "ish" degan ma'noga ega. Bu ma'lumotni bilishingiz bilanoq ko'z o'ngingizda musiqiy asar yaratish maqsadida tinimsiz ishlayotgan bastakor gavdalanadi. Siz va biz tinglayotgan go'zal musiqalar o'tkinchi qiziqish yoki faqatgina ilhomning natijasi emas, balki har bir musiqiy asar tinimsiz mashaqqat, mehnatlarning natijasidir.

O'zaklar ongimizdagi kichik markazchalarga o'xshaydi, chunki ularning har biridan biz bilgan minglab so'zlar paydo bo'ladi va tarqaladi. Biz xuddi shunday o'zaklarning Lotin va Yunon tilidan ingliz tiliga kirib kelgan 25 tasini o'rganib chiqamiz.

**1. liber** - ma'nosi: *ozod* (lotincha "liber", "libertas"). Bu o'zak yordamida siz ongingizni ozod qilasiz.

*Misollar:*

**Liberalize** - *ozod qilmoqlerkinlashtirmoq* fe'l.

— **Poets, painters and philosophers have, throughout history, attempted to liberalize minds from ignorance.**

— *Shoirilar, rassomlar va faylasuflar butun tarix davomida insonlar ongini bilimsizlikdan ozod qilishga uringanlar.*

**2. dic/dict** - ma'nosi: *aytmoqle'lon qilmoq* (Lotincha

"dictare"). Bu o'zak so'z yodlashdagi yutuqlaringiz indikatori (ko'rsatkichi) bo'ladi.

*Misollar:*

**Dictionary - lug'at** ot. So'zlarning ma'nosini aytib beruvchi kitob.

— **A dictionary is a very useful book to have when you are learning a foreign language.**

— *Lu'gat - siz chet tilini o'rganayotganingizda yoningizda bo'lishi juda ham foydali bo'lgan kitobdir.*

**Prediction** - bashorat/oldindan aytish ot. Kelajakda nima bo'lishini oldindan aytish.

— **It is my confident prediction that more and more people will become interested in developing their vocabulary.**

— *Men shuni ishonch bilan oldindan aytishim mumkinki, o'z lug'at boyligini oshirmoqchi bo'lgan odamlar soni borgan sari ortib boradi.*

**Diction** - diksiya ot. Nutqda so'zlardan to'g'ri foydalana olish va ravon gapirish qobiliyati.

— **He spoke clearly and beautifully- his diction was close to perfect.**

— *U tushunarli va chiroyli gapirar edi - uning diksiyasi deyarli mukammal edi.*

**3. intellect / intellig** - Ma'nosi: bilish va fikrlash qobiliyati (lotincha "inter" - orasida va "legere" - tanlamoq). Bu o'zak yordamida siz ko'proq narsalarni bilasiz va sizning fikrlash qobiliyatingiz yanada o'sadi.

*Misollar:*

**Intellectual - intellektual** ot. Kuchli bilish, fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxs.

— **Because of his vast learning, he was considered one of the university's top intellectuals.**

— *Juda ko'p o'qib organganligi tufayli u universitetning eng kuchli intellektuallaridan biri deb hisoblanardi.*

Yoki bo'lmasam intelligible, intelligentsia.

**Intelligible** - oson tushuniladigan sifat.

— **Despite the complexity of the subject, her clear explanation made it completely intelligible to her audience.**

— *Mavzuning murakkabligiga qaramasdan, uning aniq tushuntirishi mavzuni tinglovchilarga butunlay tushunarli qilib berdi.*

"**Intelligentsia - inteligensiya - ziyolilar tabaqasi** ot. Jamiyatning ziyoli, san'at, musiqa va tafakkur bilan shug'ullanuvchi qismi.

— **Plato thought that it was from the intelligentsia that the rulers of the state or nation should be chosen.**

— *Platon davlat yoki millatning hukmdorlari inteligensiya/ziyolilar tabaqasidan saylanishi kerak deb hisoblagan.*

**4. arch** - ma'nosi: *hukmdor* (yunoncha "archos"). Bu ildiz yordamida siz o'zingizning ingliz tilini o'rganishdagi kelajagingiz arxitektori (architect)ga aylanasiz va ko'p so'z biluvchilar iyerarxiyasi (hierarchy) (pog'onasi)da yuqoriga ko'tarilasiz.

*Misollar:*

**Matriarch** - Matriarxot. Oilaning yoki qabilaning boshlig'i bo'lgan ayol kishi.

— **Tomaris was a real matriarch.**

— *To'maris haqiqiy matriarx bo'lgan.*

**Patriarch - Patriarx** ot. Oilaning yoki qabilaning boshlig'i bo'lgan erkak kishi.

— **The film The Godfather is about an ultimate patriarch - Don Corleone.**

— *Cho'qintirilgan Ota filmi mutloq patriarx - Don Korleone haqidadir.*

**Oligarchy - Oligarxiya** ot. Mamlakatni boshqarishda ishtirok etuvchi shaxslarning kichik guruhi.

— **Russia, America and Great Britain are famous for their oligarchy.**

— *Rossiya, Amerika va Buyuk Britaniya o'zlarining oligarxiyasi bilan mashhurdir.*

**5. logo/log** - Ma'nosi: *so'z* (yunoncha "logos"). So'z ma'nosiga ega bo'lgan o'zak albatta yangi so'zlarni yodlashda qo'l keladi.

*Misollar:*

**"Prologue** - prolog ot. Badiiy asarning boshidagi kirish so'z.

— **The prologue of the story made it clear that I would enjoy reading it.**

— *Hikoyaning prologidan uni o'qib yoqtirishimni tushundim.*

**"Logopedist** - logoped ot. So'zlarni talaffuz qilishdagi kamchiliklarni bartaraf qiluvchi mutaxassis.

She had to attend a logopedist for three months due to the problems in her speech. Nutqidagi kamchiliklar tufayli u uch oy davomida logopedga qatnashga majbur bo'ldi.

**6. magna / magni** - Ma'nosi: buyuk, katta, ulkan (lotincha "magnus"). Bu o'zak bilan siz ulkan so'z boyligiga ega bo'lasiz.

*Misollar:*

"Magnify - kattalashtirmoq fe'l.

— **Microscopes magnify even the smallest objects and make them visible to us.**

— *Mikroskoplar hatto eng kichik jismlarni ham kattartiradi va ularni biz uchun ko'rinadigan qiladi.*

Qo'shimcha : magnate, magnanimous.

**7. mem** - Ma'nosi: eslamoq (lotincha "memor" - esda saqlovchi, e'tiborli). Lug'at boyligini kengaytirish ustida ish olib borayotgan o'quvchi uchun "eslamoq" ma'nosiga ega bo'lgan o'zakni bilish juda ham muhim.

## Soʻz yodlash sirlari

### **Misollar:**

Memoir - memuar ot. Inson eslab qolishni xohlagan narsalarning yozilgan shakli.

— **Peter thought this life had been so exciting and original that he decided to write a memoir of it in the form of an autobiography.**

— *Piter oʻz hayotini shunchalik ajoyib va oʻziga xos deb hisoblaydiki, u hayoti haqida tarjimai hol shaklida memuar yozishga qaror qildi.*

Qoʻshimcha : memorabilia, immemorial.

**8. neo** - Ma'nosi: yangi (yunoncha "neos"). Lugʻat yodlash va oʻzaklarni oʻrganish endi siz uchun yangi narsa emas.

### **Misollar:**

**Neophyte** - yosh/gʻoʻr ot. Biror faoliyat turi bilan shugʻullanishni endigina boshlagan shaxs.

— **As a neophyte at the office he decided to listen first and speak second.**

— *Idoradagi yosh xodim sifatida u avval tinglash va keyin gapirishga qaror qildi.*

Qoʻshimcha : Neolithic, Neology.

**9. nov** - Ma'nosi: yangi (lotincha "nova", "novus"). Bu yangi oʻzakni oʻrganing va yangiliklar sari intiling!

### **Misollar:**

**Novelist** - romannavis ot. Yangi badiiy asar yozuvchi muallif.

— **After many years of factual writing, the author decided to use his imagination to write a major new work of fiction; he decided to become a novelist.**

— *Koʻp yillar davomida ilmiy dalillar haqida yozib kelgan muallif oʻz tasavvurini yangi badiiy asar yaratishda qoʻllashga qaror qildi; u romannavis boʻlishga qaror qildi.*

**Supernova** - o'ta yangi yulduz ot. Portlash natijasida yangi shaklga o'tayotgan yulduz. Bu jarayonda u o'zining odatiy yorug'ligidan millionlab marta yorqinroq nur sochadi.

— **The crab nebula is a giant cloud-like structure which is the gigantic remains of a star that became a supernova many millions of years ago.**

— *Qisqichbaqa tumanligi ulkan bulutsimon tuzilma bo'lib, ko'plab million yillar oldin o'ta yangi yulduzga aylangan yulduzning qoldiqlaridan iboratdir.*

**10. pict** - Ma'nosi: chizmoq ("pictor", "pingere").

— **Picture yourself as a verbal genius, and you will increase the probability of becoming one.**

— *O'zingizning ingliz tili bilag'oni ko'rinishingizni chizing va bir kun kelib shunday bilimdonga aylanasiz!*

— **Pictorial** - tasviriy sifat.

— **She had a very pleasing and pictorial way of communicating ideas.**

— *U fikrlarni juda yoqimli va tasviriy tarzda yetkazib berardi.*

Qo'shimcha : Pictography, Picteresque .

**11. soph** - Ma'nosi: aql, donishmandlik (yunoncha "sophia"). Bu kichik o'zak o'ziga katta donishmandlikni mujassam qilgan.

*Misollar:*

"Sophiology - sofiologiya ot. Inson tafakkuri haqidagi fan.

— **Being interested in what the greatest minds of the past had thought about things, he began to study sophiology.**

*Turli masalalar borasida o'tmishdagi eng buyuk tafakkur egalari qanday fikrlar bildirganiga qiziqqanligi sababli, u sofiologiya fanini o'rganishni boshladi.*

"Sophisticate - donishmand ot.

His knowledge in many areas was superb; most people considered him a sophisticate.

## So'z yodlash sirlari

**12. tech** - Ma'nosi: malaka/ko'nikma/san'at(yunoncha "technikos"). Bu so'z bilan lug'at boyligingizni kengaytirishning yangi ko'nikmalarini o'rganasiz.

*Misollar:*

Pyrotechnics - pirotexnika ot. Alanga, olov, ayniqsa, mushaklar bilan ishlash san'ati.

— **On the 1st of September we can observe pyrotechnics in practice.**

— *1-Sentabr kuni biz pirotexnikani amalda kuzatishimiz mumkin.*

Technocracy - texnokratiya ot. Texnika bo'yicha ekspertlarning yuqori qatlami tomonidan amalga oshiriluvchi boshqaruv.

— **Technocracy is an oligarchy of those with specialized technical skills.**

— *Texnokratiya- bumaxsus texnik bilimlarga ega bo'lgan shaxslar oligarxiyasidir.*

**13. ultima** - Ma'nosi: oxirgi, so'nggi (lotincha "ultimas"). O'zaklarimizning eng oxirgilaridan biri "oxirgi" degan ma'noga ega.

*Misollar:*

Ultimo - o'tgan oyda ravish. Hozirgi oydan oldingi.

— **This month I have learned a lot of new words; ultimo I learned none.**

— *Bu oy men ko'pgina yangi so'zlarni yodladim; o'tgan oyda birorta ham yangi so'z yodlamagan edim.*

Qo'shimcha : Penultimate Ultimate.

**14. ven / veni / vent** - Ma'nosi: kelmoq (lotincha "venere"). Biz bu bobga yana yangi bir yangi o'zakni o'rgangan keldik.

*Misollar:*

**Venture** - tavakkalchilik ot. Jasorat talab qiladigan sayohat yoki biznes tadbir.

— **They entered enthusiastically into their new venture**

together, convinced of their success.

— *Ular yangi tavakkalishgaxursand bo'lib birga kirishdilar, zero ular muvaffaqiyatga ishonishar edi.*

**Adventitious** - to'satdan, kutilmaganda ro'y beruvchi sifat.

— **The sudden and unexpectedly large inheritance was an adventitious event that changed the family's fortunes.**

— *To'satdan kelgan va kutilmagan darajada katta miqdordagi meros oilaning moliyaviy holatini o'zgartirib yuborgani kutilmaganvoqea bo'ldi.*

**15. ver / very** - Ma'nosi: haqiqiy/sof (lotincha 'verus'). Siz endi so'zlarning haqiqiy inglizcha yoki boshqa tilgan kirib kelganligini bila olasiz.

*Misollar:*

**Veracity** - haqiqat/rostgo'ylik ot.

— **He was an extremely ethical fellow, and spoke with complete sincerity and veracity.**

— *Juda tarbiyali yigit edi va to'la samimiyat hamda rostgo'ylik bilan gapirar edi.*

Qo'shimcha : Verify ,Veridical.

**16. viv / vivi / vita** - Ma'nosi: tirik/jonli (lotincha "vita"). Bu o'zak sizning lug'at boyligingizga tiriklik nafasini beradi.

*Misollar:*

**Vitamin** - vitamin ot. Hayot uchun zarur bo'lgan darmon modda.

— **Many nutritionists recommend vitamin supplements to a regular diet in order to improve the quality of life.**

— *Ko'p diyetologlar, hayot sifatini yaxshilash maqsadida, odatiy taomlarga vitaminli qo'shimcha qo'shishni tavsiya qilishadi.*

**Vivacious** - bardam/jonli sifat. Kuch quvvatga to'la.

— **Her sparkling, vivacious personality made her the belle of every ball.**

— *Uning yorqin, bardam shaxsiyati uni barcha ballarning yulduziga aylantirar edi.*



**12-mashq.**

Quyidagi o'zaklarni o'rganishga harakat qiling. Bu mashqda faqat sizlar o'zingizning ijodiy qobilyatingizni ishlatib misollarga yana bittadan misol qo'shib yozing. Bunday mashq bilan shug'ullanish, sizga o'zakni faol ravishda yodlashga yordam beradi.

O'zaklar	Ma'nosi	Misollar	O'zingizning misolingiz
-ast(er)-(G)	yulduz		asteroid, astronomy
-audi- (L)	eshitmoq		audible, audience
-auto- (G)	o'zi		automatic, autopsy
-bene- (L)	yaxshi		benefit, benign
-bio- (G)	hayotbiography,		biology
-chrono- (G)	vaqt		chronic, synchronize
-gen- (L)	tug'ilish		gene, generate
-geo- (G)	yer		geography, geology
-graph- (G)	yozmoq		autograph, graph
-jur-, -jus- (L)	qonun		jury, justice
-log-, -logue- (L)	fikr		logic, obloquy
-luc- (L)	yorug'lik		lucid, translucent
-man(u)- (L)	qo'l		manual, manure
-omni- (L)	barcha		Omnivorous
-path- (G)	his etmoq		empathy, pathetic
-phon- (G)	ovoz		phonics, telephone
-photo- (G)	yorug'lik		photograph, photon
-scrib-, -script- (L)	yozuv		ascribe, script
-sens-, -sent- (L)	sezmoq		resent, sensitive
-tele- (G)	uzoq		telecast, telephone
-terr- (L)	Yeh		terrain, territory
-vid-, -vis- (L)	ko'rmoq		visible, video

\* (G) - grek yoki yunon tilidan olingan, (L) - lotin tilidan kelib chiqqan.

**SUFFIKSLARNI YODLASH**

So'z yasovchi suffikslar (so'zdan keyin qo'shiluvchi qo'shimchalar) ni bilish so'zning ma'nosini to'g'ri taxmin qilish yoki uni osonroq o'zlashtirishga katta yordam bera oladi. Chunki, ingliz tilidagi suffikslarning har biri aniq ma'noga ega bo'lib, muayyan so'z turkumiga oid so'zlarni hosil qilishda ishlatiladi. Quyida ingliz tilida so'z yasashda eng ko'p ishtirok etadigan suffikslarni ko'rib shiqamiz.

**1) Ot yasovchi suffikslar (qo'shimchalar):**

Suffikslar	Ma'nosi	Misol
-acy	holat	<b>-democracy</b> - demokratiya <b>-accuracy</b>
-al	xatti-harakat, jarayon	<b>refusal</b> - rad qilish
-ance, -ence	holat yoki xususiyatning mavjudligi	<b>eminence</b> - mashhurlik
-dom	mavjudlik o'rni yoki holati	<b>kingdom</b> - qirollik
-er, -or	bajaruvchi shaxs	<b>translator</b> - tarjimon
-ism	ta'limot, g'oya	<b>patriotism</b> - vatanparvarlik g'oyasi
-ist	shug'ullanuvchi shaxs	<b>chemist</b> - kimyogar
-ity, -ty	-ning xususiyati	<b>velocity</b> - tezlik xususiyati
-ment	-ning holati	<b>argument</b> - tortishuv
-ness	mavjudlik holati	<b>kindness</b> - muloyimlik
-ship	o'rin, mavqe'	<b>friendship</b> - do'stlik
-sion, -tion	mavjudlik holati	<b>transition</b> - o'tish

**2) Fe'l yasovchi suffikslar (qo'shimchalar)**

-ate	holatni o'zgartirish	<i>eradicate</i> - qo'porib tashlamoq
-en	holatni o'zgartirish	<i>enlighten</i> - bilim bermoq
-ify, -fy	holatni o'zgartirish	<i>terrify</i> - dahshatga solmoq
-ize, -ise	holatni o'zgartirish	<i>civilize</i> - madaniylashtirmoq

**3) Sifat yasovchi suffikslar (qo'shimchalar)**

<b>-able, -ible</b>	xususiyatga ega	<i>edible - yesa bo'ladigan</i>
<b>-al</b>	-ga oid	<i>regional - hududiy (biror hududga oid)</i>
<b>-esque</b>	eslatuvchi	<i>picturesque - manzarali</i>
<b>-ful</b>	-ga ega	<i>fruitful - mevali</i>
<b>-ic, -ical</b>	-ga oid	<i>musical - musiqiy</i>
<b>-ious, -ous</b>	xususiyatga ega	<i>nutritious - to'yimli</i>
<b>-ive</b>	xususiyatga ega	<i>creative - ijodiy</i>
<b>-less</b>	yo'q, -siz	<i>endless - so'ngsiz</i>
<b>-y</b>	xususiyatiga ega	<i>sleazy - zaif, mo'rt</i>

**4) Ravish yasovchi (suffiks) qo'shimcha:**

Ingliz tilida ravish hosil qilishda eng ko'p ishlatiladigan suffiks bu "-ly" dir. Biroq bu qo'shimchanning lug'aviy ma'nosini o'zbek tilida izohlash mumkin emas. Zero, ingliz tilida ravish hisoblangan so'zlarning asosiy qismi o'zbek tilida sifat hisoblanadi. Biroq, shuni esda tutmoq lozimki, "-ly" qo'shimchasi o'zi qo'shilgan sifatdan xuddi shunday ma'nodagi ravishni hosil qiladi:

He is a very kind (sifat) person. He always speaks kindly (ravish). - U juda muloyim (sifat) inson. U har doim muloyim (sifat) gapiradi.

**13-mashq.**

Quyidagi matnlarda prefikslar va suffikslar qatnashgan so'zlarni ajratib yozing va ulardagi qo'shimchalarning ma'nolarini tahlil qiling.

*2007-yil 110-variant*

**AN APPLE A DAY**

An apple a day keeps the doctor away, as the saying goes. And not just any doctor. An apple a day may help keep the neurologist away - along with the diseases like Alzheimer's and Parkinson's. Food scientist Chang Y. Lee found that an antioxidant, called quercetin, in apples can protect brain cells from damage. "Quercetin has much higher antioxidant activity compared to Vitamin C," says Lee. His work has shown that quercetin may help brain cells and hurt cancer cells. Apples are a main source of quercetin. It is also found in onions, tea, blueberries and cranberries. Choose a fresh apple over applesauce or apple juice for a snack, Lee suggests, because quercetin is found mostly in the skin of the fruit. "processed food may lose active components," he adds.

|| **TARJIMA QILISH SAN'ATI** ||

Ingliz tilida so'z o'rganishning yana bir sinalgan usuli bu ingliz tilidan ona tilingizga tarjima qilish hisoblanadi. Shuningdek, ko'pchilik abituriyentlar bilan bo'lgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar odatda oddiy tarjima qilish qoidalarini bilmay o'zbek tiliga to'g'ri tarjima qila olmaydi. Xo'sh, tarjima qilishning qanday foydasi bor va qanday qilib tarjima qilish ko'proq so'zlarni yodlashga hamda ingliz tilini yaxshi o'rganishga olib keladi?!

*2008-yil 101-variant*

### **THE PERFECT EXCUSE**

A Taiwanese bank robber has just won an award for the most absurd robbery. 45-year-old Mr. Sun Cruk turned up at a bank and demanded money using a toy gun to threaten the bank staff. Then, instead of running away, he just sat and waited to be arrested. When the police arrived at the bank, they found Cruk sitting in a chair holding 230 000 new Taiwan dollars (about 6800 euros). Cruk later told journalists: "I didn't mean to rob the bank. I wanted the police to arrest me and send me to prison because there were some guys who wanted me to pay back some money they'd lent me." But the police doubted the story. Police officer Lee said: "If we hadn't arrived so soon, he would have grabbed the money and run away".

Avvalo, birinchi marta matnni o'qiyasiz, ikkinchi marta o'qiganin-gizda, o'zingizga noma'lum so'zlarni tarjima qilib chiqasiz va shundan keyin matnni ona tilingizga tarjima qilasiz. Matnni tarjima qila oldingizmi, demak, uni juda yaxshi tushundingiz. Matnning mazmuni va tarjima amaliyoti yangi so'zlarni ongingizga yanada kuchli muhrlaydi. Keyin esa o'z kuchingiz bilan tarjima qilingan matnni bir-ikki marta ortiqcha ko'rganingizda, tarjima qilish holati va mehnatingiz samarasi bilan so'zlar eslab qolish osonlashadi.

Ana endi savol tug'iladi, qanday qilib ingliz tilidan o'zbek tiliga to'g'ri tarjima qilish mumkin? Gap shundaki, o'zbek tili Turkiy tillar oilasiga, ingliz tili esa Hind-Yevropa tillari oilasiga mansub. Har bir tilning o'ziga xos gap tuzilishi mavjud bo'lib, biri boshqasiga umuman mos kelmaydi. Ingliz tilidagi gapni o'z tartibida o'zbek tiliga, yoki o'zbek tilidagi

## *Birdaniga 14 000 ta so'zni o'rganing!*

---

gapni o'z tartibida ingliz tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish umuman mumkin emas.

Tarjima sari qo'yiladigan ilk qadam bu ingliz tilidagi gap bo'laklari tartibini alohida o'rganishdir. Ingliz tilida gap bo'laklarining qat'iy tartibi mavjud bo'lib, u quyidagicha:

Ega + kesim+ boshqalar (aniqlovchi + to'ldiruvchi + hol)

*Masalan: I read interesting books every day.*

Misoldagi gapni ayni shu tartibda tarjima qilsak, "*Men o'qiyman qiziqarli kitob har kuni.*" tarzida noto'g'ri gap hosil bo'ladi. O'zbekcha "*Men har kuni qiziqarli kitoblar o'qiyman.*" shaklidagi gapimizni esa shu tartibda ingliz tiliga "**I everyday interesting books read**" deb tarjima qila olmaymiz.

Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda quyidagi 3 ta qoida mavjud:

1) Avval egani tarjima qilib olasiz, keyin to'ldiruvchilarni va oxirida kesimni tarjima qilasiz. Bunday usulda tarjima qilishga sabab Ingliz tili strukturasi bilan o'zbek tili strukturasi o'rtasidagi tafovut hisoblanadi. Negaki, ingliz tilida gapning tuzilishi -


**S + V + O (ketma-ketlikda)**

subject (ega), verb (kesim yoki fe'l), othersor object (boshqa bo'laklar va to'ldiruvchi)

O'zbek tilida esa gapning tuzilishi

**S + O + V**

shaklida bo'ladi. Gapning egasi birinchi keladi va boshqa bo'laklar egadan keyin, eng asosiy g'oyani ochib beruvchi bo'lak kesim gapning oxirida keladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Ingliz tilidan o'zbek tiliga o'tish uchun **S-V-O** ni **S-O-V**ga o'tkazishingiz kerak bo'ladi.(15-rasmga qarang)



16-rasm

2) tarjima qilishda iloji boricha ingliz tilidagi gapni oxiridan boshiga qarab o'zbek tiliga tarjima qilasiz. O'ngdan chapga qarab tarjima qilish ingliz tilidan o'zbek tiliga o'tishning eng asosiy tamoyillardan biri bo'lib qoladi.

*Misol uchun quyidagi matnni tarjima qilamiz.*

Nowadays, in England, tea is quite the most popular, and also the cheapest, of all drinks. Hozirgi kunda Angliyada choy(egani tarjima qivoldik) barcha ichimliklar orasida eng arzoni hamda eng mashhuri hisoblanadi. (E'tibor bering, biz orqadan tarjima qilib keldik.)

— **OF** qatnashgan birikma bo'lsa (**the key of the door**), o'ng tomon birinchi tarjima qilinib - ning qo'shimchasi bilan yana chapga qarab yurasiz - *eshikning kaliti*

People drink their tea in different ways. Odamlar choyni turli xil usulda ichishadi. (E'tibor bering, **DRINK** kesimi tarjimada gapning oxirida kelmoqda.)

3) Agarda ega bir so'zdan ko'p bo'lsa uni birinchi tarjima qilib olish kerak yoki to'ldiruvchi va hol ham bir so'zdan ko'p bo'lsa, ularni ham tarjima qilib olish kerak. Yoki **when** bog'lovchisi qatnashgan payt ergash gap bo'lsa, uni birinchi tarjima qilib, keyin bosh gap tarjima qilinadi.

During the last century, when tea was very expensive, it was kept locked up, and the lady of the house had the key. O'tgan asrda, choy qimmat bo'lgan paytlarda (when li gap birinchi tarjima qilindi) u qulflanib saqlangan va uyning

xonimi kalitni o'zida saqlagan.

At breakfast everyone drank beer! Ertalab hamma pivo ichardi. (Birinci kelgan hol ega bilan birga tarjima qilindi, qolganbo'laklar esa, keyingi o'rinda keldi.)

Endi boshqa bog'liqliklari bo'yicha tarjima qilishga misollar keltirsak:

Children have lost much of their freedom to explore their own neighbourhood or city without adult supervision. Bolalar ota-onalari hamrohligisiz shahar va o'z mahallalarini o'rganib chiqish uchun erkinligining katta qismi yo'qotishdi. (Bu yerda gapning o'rtasida kelgan **to explore** ning alohida gap sifatida tarjima qilib olamiz, lekin baribir qoida o'zgarmagan. Keyin **of** ko'makchisi ishtirok etgan iboralarni tarjima qilishda doimo birinchi **of**-ning ikkinchi qismi birinchi aytilib, yana chapdan o'ng tomonga yuriladi -much of their freedom, ularning erkinliklarining ko'p qismi)

Children's independent access to their local streets may be important for their own personal, mental and psychological development. Bu gapda endi ega murakkab ega hisoblanadi - **Children's independent access to their local streets may be** kesimigacha. Va their own personal, mental and psychological development iborasi ham qo'shma so'z bo'lib ularni tarjima qilishda bir qancha qoidaga e'tibor berish kerak. Egani avval alohida tarjima qilib olinadi, undan keyin qo'shma iborani tarjima qilib oxirida kesimga orqadan yetib keladi. Egada ham orqadan kelish mumkin: mahalliy ko'chalarga bolalarning mustaqil chiqishi. Sifat esa shaxsiy, aqliy va psixologik rivojlanishi. Shunda tarjima quyidagicha bo'ladi: Mahalliy ko'chalarga bolalarning mustaqil chiqishi ularning shaxsiy, aqliy va psixologik rivojlanishi uchun muhim bo'lishi mumkin.

Tarjima qilishni odatga aylantirib olish lozim. Yana ozgina vaqt o'tib endi tarjimalarga qaramasdan shunday o'qishga urinasiz va tarjimani qaytadan eslashga harakat qilasiz. Bir ikki kundan keyin o'zingiz o'sha matnni ko'rsangiz shunday



## *So'z yodlash sirlari*

tarjima qilishni boshlaysiz. Sizning ma'no chiqarishga urunishingiz yangi so'zni miyangizda "yopishib" qolishiga sabab bo'ladi.

Bunday tarjima mashqlarini bajarish orqali o'zbek tili bilan ingliz tili o'rtasidagi ba'zi bog'liqliklarni sezasiz va bu o'z navbatida ham tilni o'rganishingizga ham so'zni yodlashingizga yordam beradi.

Hozirgi kunda faqat muomala moslashgan ta'lim tizimida, tarjima qilishni o'rganish biroz urfdan qolgan. Ammo yakka o'rganuvchilar va o'qib-o'rganishni yaxshi ko'radiganlar uchun bu usul eng foydali hisoblanadi. Bunda tildagi muammolarni topasiz, ikki tildagi o'xshashliklarni tushunasiz, so'z yodlashga katta yordam beradi va tarjima qilgan matningizdagi so'z alohida yodlagandan ko'ra uzoqroq muddatga saqlanib qoladi.

### || 36 TALIK TESTLARDA MATNLI SAVOLLARGA JAVOB BERISH ||

Matnli test savollariga javob berish boshqa turdagi savollarga javob berishdan farq qiladi. Bunday savollarni tuzishdan asosiy maqsad matnning asosiy g'oyasini tushuna olganingizni tekshirishdir.

1) Matnli test **savollarini** o'qib chiqing. Negaki savollarni o'qib, sizdan aynan nima so'ralayotganini bilib olasiz.

2) Savollarni o'qiganda, matndagi eng kerakli so'zlarni belgilashni o'rganing. Masalan, ismlar, sanalar, joy nomlari va boshqalar.

Kalit so'zlar bu ingliz tilidagi gapda asosiy ma'noni bildiruvchi so'zlardir. Bular **S-V-O** ya'ni ega, egadan keyin keluvchi kesim va ega va kesimga bog'langan to'ldiruvchi. Shu uchala so'zni o'qish orqali biz gapning asosiy mazmunini ilg'ab olamiz. Aniqlovchi hamda hol ko'pincha shu so'zlarga qo'shimcha ma'no beradi va asosiy mazmunga katta ta'sir qilmaydi. Bundan tashqari savollarni o'qishda iloji boricha matn kim yoki nima haqida ekanligini topib olish kerak.

Misol uchun quyidagi matnga qarang:

Birinchi navbatda savollarni bir qator, tezlik bilan o'qib chiqamiz va kalit so'zlarni belgilab olamiz. Savolga e'tibor berib, past, England va today kalit so'zlarini belgilaymiz. Belgilaganda ham yumaloq belgi bilan yoki tagiga chizib, yoki to'rtburchakning ichiga olib belgilab qo'yish mumkin.

**1. Compared with the past, in England today ... .**

*A - javobdagi S-V-O so'zlarga e'tibor beramiz, va bizda People, prefer, tea, beer, soz'lari belgilanadi. Mazmuni - odamlar choydan ko'ra pivoni afzal ko'rishadi.*

A) more and more people prefer tea to beer

B - javobda **Tea** va **luxury** so'zlarini belgilash kifoya. Ya'ni choy dabdaba va hashamat deb bilingan.

B) Tea is regarded as a luxury

C - javobda esa **cheap** va **commonly available** so'zlarini belgilash yetarli, gap boshidagi tea shart emas, u siz ham matn choy haqidaligini sezdingiz.

C) tea is very cheap and commonly available

D - javobdagi bizga kerakli so'zlar sugar, less popular.

D) sugar is becoming less and less popular

To'rtta javob to'rt xil fikrni ifodalamoqda: A javobda choy va pivoni taqqoslash, B javobda choyga bog'liq hashamatbozlik, C javobda choyning arzon va hamma uchun mavjud ekanligi, D javobda esa shakarning borgan sari kam ishlatilayotganligi.

Endi, javob variantlarini tushunib olgach, to'g'ri javobni topishga kirishamiz. Bunday holatda javobni faqat matndagi aniq ma'lumotga tayangan holda topishingiz shart. Shaxsiy fikr yoki nuqtai nazar asosida javob berish mumkin emas.

Qolgan matnlar bilan ish olib borishda ham asosiy ma'noni ifodalovchi kalit so'zlarni tagiga chizib borish juda foydalidir. Shunday qilsangiz, matnning asosiy mazmunini osonroq tushunasiz va javobni ozroq vaqt sarflagan holda to'g'ri topasiz.

## *So'z yodlash sirlari*

Nowadays, in England, tea is quite the most popular, and also the cheapest, of all drinks. People drink their tea in different ways. Some like it with sugar, some without. Some drink it with milk, some with lemon; yet, one way or another just about everyone drinks tea. This, however, has not always been the case. During the last century, when tea was very expensive, it was kept locked up, and the lady of the house had the key. Tea drinking then was quite a ceremony, reserved for the evenings. At breakfast everyone drank beer!

### **1. Compared with the past, in England today ... .**

- A) more and more people prefer tea to beer
- B) tea is regarded as a luxury
- C) tea is very cheap and commonly available
- D) sugar is becoming less and less popular

### **2. It is obvious from the passage that ... .**

- A) English people have always regarded tea as better than beer
- B) over the years the popularity of tea in England has increased tremendously
- C) drinking tea with lemon is only a recent habit in England
- D) like tea, beer also is an extremely popular drink

### **3. In the passage it is explained that ... .**

- A) in England today people have different habits of tea drinking
- B) in the past in England only the wealthy were able to drink beer
- C) at breakfast English people also like to drink beer
- D) English people mostly prefer to have their tea in the evening

Matnni o'qiganda ham **S-V-O** larga ajratib chiqamiz faqat keyin gapga o'tganda uni oldingi gapga bo'g'liqligini ichimizda o'zimiz uchun aytib ketamiz.

### Test 1

Testdagi **A)** javob noto'g'ri, chunki borgan sari ko'proq odamlarni choyni pivoga qaraganda afzal ko'rayotgani haqida matnda ma'lumot keltirilmagan.

Testdagi **B)** javob noto'g'ri, chunki matn topshirig'ida choyga odamlarning shu kundagi munosabati so'ralgan. Javobda esa choyga odamlarning o'tmishdagi munosabati ifodalangan.

Testdagi **D)** javob noto'g'ri, chunki borgan sari shakarga talab kamayayotgani haqida matnda ma'lumot yo'q.

Testdagi **C)** javob esa to'g'ri javob, chunki matnda choyni shu kunlarda eng arzon ichimlik ekanligi va keng ko'lamda iste'mol imkoni borligi haqida ma'lumot bor. Ushbu ma'lumotlar esa matn topshirig'idagi choyni o'tmish va ayni vaqtdagi holatini qiyoslab kelmoqda.

1. **Compared with the past**, (During the last century, when tea was very expensive, it was kept locked up, and the lady of the house had the key. Tea drinking then was quite a ceremony, reserved for the evenings.) **in England today** tea is very cheap and commonly available. (Nowadays, in England, tea is quite the most popular, and also the cheapest, of all drinks. . . . one way or another just about everyone drinks tea.)

2. Ushbu bobga xulosa qilib aytadigan bo'lsak, matnli savollarga to'g'ri javob berish uchun faqatgina inglizcha so'zlarni ko'plab bilish yetarli emas, balki matn bilan ishlash qonun qoidalarini ham o'zlashtirish zarurdir.

**10-bob.**

**MENTAL SET (AQLIY MUNOSABAT)**

*"Language shapes the way we think, and determines what we can think about."*

— Benjamin Whorf

*"Til bizning fikrlash tarzimizni shakllantiradi va nimalar haqida fikr yurita olishimizni belgilab beradi."*

— Benjamin Vorf

Til o'rganish uchun faqatgina qattiq mehnat va ko'p dars qilishning o'zi kamlik qiladi. Ayniqsa, agar o'z kelajagingizni ingliz tili bilan bog'lashga ahd qilgan bo'lsangiz. Siz uchun juda foydali bo'lgan yana bir omil bu ingliz tiliga bo'lgan aqliy munosabatingizdir. Aqliy munosabatning o'zi nima? Aqliy munosabat aqlingizning ingliz tilini qabul qilishga tayyorligi, ingliz tilini o'rganish zaruratini anglab yetishingiz va albatta bundan kutilgan natija kelib chiqishiga ishonishingizdir. Qisqa qilib aytganda, ingliz tilini o'rganishga kirishishdan oldin, ushbu jarayonga nisbatan aqlimizni kerakli tarzda "sozlab" olishimiz juda muhim. Quyida esa aqliy munosabatni qanday shakllantirish foydali bo'lishi haqida to'xtalib o'tamiz.

➡ Doimo yangi so'z o'rganing! So'zlarga bo'lgan qiziqishingizni oshiring va ular bilan do'st bo'ling, negaki so'z yodlashni yomon ko'rib ko'p so'z yodlay olmaysiz.

➡ Qisqa muddatli xotiradagi ma'lumotlar 2 soniyadan keyin esdan chiqib qoladi. Buning davosi - yaxshilab takrorlab olish yoki ba'zi manbalarda ta'kidlanishicha, eslab qolinmoqchi bo'lgan so'zga 7 soniya atrofida e'tibor qaratib turish tavsiya etiladi. Keyin esa, o'sha so'zni qayta eslashga harakat qilish lozim. To'g'ri, yangi so'zni darhol qayta eslash qiyin bo'lishi mumkin, lekin bu ishni qaytaraverish dangasalikni yengadi va qayta eslay olish tezligini oshiradi.

➡ Barcha ishlaringizni va ingliz tili bo'yicha darslaringizni tartibga keltirishga urining. Boshqacha qilib aytganda, ingliz tili bilan shug'ullanadigan vaqtingizni qat'iy tartib asosida belgilang; dars qilinadigan joy (uydagi xonangiz, sinf xonasi, kutubxona)larda aynan qaysi vaqt, kim bilan va qay tarzda dars qilishni to'g'ri rejalashtirib oling. Esda tuting: Tartibsizlik, dangasalik kabi illatlar - til o'rganishingizdagi eng katta dushmaningizdir.

➡ Iroda kuchini shakllantiring, ya'ni bajarishingiz kerak bo'lgan mashqlarni va o'rganishingiz lozim bo'lgan so'zlarni to'liq uddalamaguningizga qadar aslo ortga chekinmang. Irodali bo'ling!

➡ O'zingizda tuganmas motivatsiyani kuchaytiring. Motivatsiya bu qilayotgan ishingizdan yuzaga keluvchi natijani maqsad qilib olish va unga intilishdir. Ingliz tilini o'rganishdan ko'zlagan maqsadlaringiz ulkan, albatta. Shubhasiz, tilni mukammal o'rganishni, chet davlatlarda ta'lim olishni va kelajakda kuchli mutaxassis bo'lib yetishishni xohlaysiz. Shu maqsadlar ongingizni tark etmasin. Shundagina qo'ygan maqsadingiz sari hormay-tolmay intilaverasiz.

➡ Ingliz tili bilan shug'ullanish siz uchun odatga aylansin. Odat bo'lganda ham, yaxshi kayfiyat va ichki qoniqish hissini beruvchi odatga aylansin. Agar shunga erisha olsangiz, nafaqat aqliy jihatdan balki ruhiy jihatdan ham ingliz tilini o'rganishga rag'batigingiz ortadi. Bunga erishish uchun esa, darslarni muntazam bajarish va ushbu jarayonni imkon boricha qiziqarli va jonli bo'lishiga erishish lozim.

➡ O'zingizni nazorat qilishni o'rganing. Ko'p hollarda o'qituvchilar o'quvchilarga qattiq talab qo'ymaydilar. Bu esa o'quvchilarda dangasalik va beg'amlik hollarini keltirib

## *Soʻz yodlash sirlari*

chiqaradi. O'sha dangasa o'quvchilardan biriga aylanib qolmang. O'zingizni, darslaringizni va o'rganish jarayoningizni nazorat qilishga o'rganing. Buning uchun albatta iroda va motivatsiya kerak bo'ladi. Lekin bu bajarish mumkin bo'lgan ish. Abraham Linkoln, Charlz Dikens kabi buyuk shaxslar aynan shu xislatlari tufayli buyuklikka erisha olganlar.

➡ Ingliz tilini o'rganish uchun kerakli bo'lgan o'quv jihozlari: lug'at, darslik, badiiy adabiyot, lug'at daftari, ruchka, qalam va boshqalarni doim shay va tartibli holda saqlang. Bundan o'zingizning ko'nglingiz ochiladi va dars qilishga ishtiyoqingiz yanada ortadi.

➡ Til o'rganish davomida eng qiyin va muammoli bo'lgan jihat ustida ko'proq ishleng. Ko'p muammo tug'dirgan masala albatta qo'rquv, hayiqish hissini paydo qiladi. Tasavvur qiling, sizning qo'rquvingiz bu dahshatli ajdarho. Siz esa jasur bahodirsiz. Qorquvingizga qarshi boring va mehnatingiz bilan uning ustidan g'alaba qozoning.

➡ Til o'rganish uchun kerakli muhitni yarata bilish juda muhim. Do'stlar va yaqinlaringiz aynan atrofingizdagi muhitni hosil qiluvchi insonlardir. Ingliz tilini yaxshi biladigan va uni o'rganishga ishtiyoqmand bo'lgan insonlar bilan do'st o'rtoq tutining, ular bilan ko'p muloqotda bo'ling. Ko'pchilikning yagona maqsad sari intilishi, insonda bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirib yuboradi.

➡ Dars qilmaslik, so'z yodlamaslik uchun aslo bahona qidira ko'rmang. Bunday qilish zaif va dangasa odamning ishidir. Bunday insonlar esa, dangasaligi va jur'atsizligi uchun hech qachon jiddiy yutuqqa erisha olmaydilar. Bahona qilish o'rniga darsingizni qiling!

➡ O'rganishning erta kechi yo'q. Hatto eng katta yoshdagi

insonlar ham o'zlarini yosh o'quvchidek tutib, ta'lim olishadi. Misol tariqasida Lev Tolstoyning 78 yoshida qadimgi yunon tilini o'rganishni boshlaganini aytish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, beshikdan to qabrgacha ilm izlashga tayyor bo'ling.

➡ Har kuni kamida 5 dona yangi so'z yodlashga va kamida ikki kunda bir muntazam mashqlar bilan shug'ullanishga odatlaning. Xatolaringizni tahlil qiling va bilmaganingizni so'rab o'rganishdan tortinmang.

➡ So'z detektiviga aylaning. Lug'atlar va ensiklopediyalardan foydalanib, o'zingizni qiziqtirayotgan so'zlar haqida imkon boricha batafsil ma'lumotga ega bo'lishga harakat qiling.

➡ Hamma turli xil usulda o'rganishga moyil, o'zingizning o'rganish uslubingizni toping.

➡ Tilda so'z yodlashda yana bir muhim jihat - bu siz allaqachon biladigan narsalarni qo'shimcha yana bino qurmoqlikdir. Nimalarni bilishingizni aniq bilib oling va bularni bilganingizga aniq ishonch hosil qilsangiz, ana endi nimani bilmasligingizni bilib, o'shani rivojlantirishga intiling. Har qanday qiyinchilik va tog'larni aniq maqsadlar bilan yengish mumkin.

➡ Doimo miyangizda saqlashingiz kerakki, eng yaxshi yodlash usuli bu sizni motivatsiya qilishga olib keladigan usul hisoblanadi. Negaki ba'zida kimdir maslahat bergan usuldan foydalanarmiz, lekin vaqt o'tib bu usulda shug'ullanish zerikarli bo'lib qolishi mumkin va shunda sizni yanada ruhlantiradigan usulga ehtiyoj tug'iladi.

➡ Har bir narsa va har bir o'qituvchi siz uchun potensial o'rganish vositasi bo'lsin. Biz odatda yon atrofdagi insonlardan ko'p narsani o'rganishga moyilmiz. Muhimi bundan uyalmaslik kerak.



## || SOʻZ BOYLIGINING AHAMIYATI ||

Shaxsning biror tildagi soʻz boyligi oʻsha shaxsning oʻqib oʻzlashtira olgan materiallarining miqdorini aks ettiruvchi koʻrsatkichdir. Shuning uchun ham xorijdagi turli oʻquv yurtlariga hujjat topshiruvchilarning soʻz boyligini tekshiruvchi imtihonlarni asosiy qabul mezonlaridan biri sifatida qoʻllaydilar va koʻpincha oʻquvchilarning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi ularning soʻzlarni toʻgʻri ishlata olishi, ularni toʻgʻri tushuna olish qobiliyatiga bogʻliq boʻladi.

Maʼlum boʻlishicha, shaxsning bir sohadagi muvaffaqiyati bilan uning bisotidagi soʻz boyligi oʻrtasida juda yaqqol bogʻliqlik bor ekan. Muammoga yondashish yoki hissiyotlarni yoʻnaltira olishga ham eʼtibor berish kerak. Nima boʻlsa ham, bu jihat oʻzini koʻrsatadi. Sizning soʻz boyligingiz hayotiy muvaffaqiyatingiz kaliti!

Albatta, soʻz boyligining ahamiyati oʻquv yurtlari hamda taʼlim olish doirasidan ancha kengroqdir: oʻz sheriklaridan koʻra koʻproq soʻz ishlata oladigan tadbirkor ularning oldida aniq ustunlikka ega boʻladi. Kundalik hayotda ham oson tushunadigan vaoʻz fikrini qiziqarli qilib yetkazib beradigan odamlar ham albatta ustunlikka ega boʻladilar.

11-bob.

**TAXMIN QILISH HISSINI RIVOJLANTIRING**

*"The quality of our thoughts is bordered on  
all sides by our facility with language."*

**J. Michael Straczynski**

*"Fikrlarimizning sifati har tomonlama bizning  
til bilish qobiliyatlarimiz bilan bog'liqdir."*

**J. Maykl Strachinski**

Test yechayotganingizda notanish so'z uchrab qolsa, shoshib qolmang yoki ingliz tilida matn o'qiyotganingizda tez-tez lug'atga qarashga odatlanmang. Negaki, bunday uslubda o'qish sizni zeriktirib yuborishi va ingliz tilini qabul qila olish qobiliyatingizning pasayishiga olib kelishi yoki test paytida vaqtdan yutqazishingizga hamda o'rinsiz xavotirlanishga olib kelishi mumkin.

Tasavvur qiling, siz qaynoq somsa yeyapsiz. Qorningiz esa juda och. Somsa qaynoq bo'lganligi tufayli uni puàlab-puflab yeyish kerak. Bo'lmasa, og'iz kuyadi. Sekinroq yeyin desangiz, qorningiz juda och. Qisqasi, bu jarayonda puflashga chalg'iyverganingiz uchun na taomdan lazzat olasiz, na qorningiz to'yganini bilasiz. Demak, yangi matn o'qish yoki til materiallari bilan tanishishda har bir yangi so'zni lug'atdan qidiraverish sizni asl maqsaddan chalg'itadi, natijada, na matnni yaxshi o'zlashtira olasiz, na yangi so'zlarni yodlay olasiz.

Xo'sh, unda nima qilish kerak?!

Buning uchun o'zingiz tanishayotgan yangi materialning (xoh u hikoya, roman yoki she'r bo'lsin) umumiy mazmunini tushunishga harakat qiling, shu mazmundan kelib chiqqan holda bilmagan so'zingizning ma'nosini taxmin qilib ko'ring. Siz qidirayotgan bo'lak qaysi ekanligini biling va bu bo'lakni aniqlashtirib kelgan kalit so'zlarni toping. Nima ma'no berayotganini biling.

*Misol uchun siz "The lady looked so mesmerizing that all the gentlemen in the hall kept looking at her." —* degan gapdagi "*mesmerizing*" so'zini tushunmadingiz. Boshqa hamma so'zlar esa ma'lum. Taxminan "Bu xonim shunchalik ... ediki, zaldagi barcha janoblar unga qarashdan to'xtashmadi" degan ma'noni hosil qila oldingiz. O'ylab ko'ring, barcha janoblarni o'sha xonimning qanday xususiyati jalb qilishi mumkin? Agar biz "*mesmerizing*" so'zini gapning mazmunidan kelib chiqib, "go'zal"deb taxmin qilsak, to'g'ri bo'ladi. Natijada, "Bu xonim shunchalik go'zal ediki, zaldagi barcha janoblar unga qarashdan to'xtashmadi." shaklidagi gap hosil bo'ladi. Qizig'i, bu jarayonda lug'atdan foydalanilmadi. Keyinroq, matnni o'qib bo'lgach, lug'atga qarasangiz, o'sha siz bilmagan so'zning ma'nosi "maftunkor" ekanligini bilib olasiz. Notanish so'zning ma'nosini to'g'ri taxmin qila oldingiz!

Sizga noma'lum so'zlarning ma'nosini to'g'ri taxmin qila olishdagi yana bir yordamchingiz - bu grammatikadir, aniqrog'i gap bo'laklarini bilish, tushunish hamda ingliz tilidagi gap tuzilishini yaxshi bilishdir.

Ma'lumkin, ingliz tilida gapning eng muhim mazmunini ochib beruvchi bo'laklar bu - **EGA** va **KESIM** (va ular deyarli doimo gapning boshida keladi), keyingi navbatdagi ahamiyatli gap bo'lagi esa **TO'LDIRUVCHI** hisoblanadi. Ya'ni, siz gapning asosiy mazmunini tushunishingiz uchun **EGA+KESIM+TO'LDIRUVCHI**ning o'zinigina o'qishingiz kifoya qiladi. Qolgan gap bo'laklari bo'lmish **ANIQLOVCHI** va **HOL** asosan, gapning markaziy mazmunini bo'yoqdorroq qilib yetkazib berish vazifasini bajarib, gapning mag'ziga katta ta'sir qilmaydi. Ma'nosini bilmayotgan soz'ning qaysi gap bo'lagi ekanligini aniqlash orqali uning ma'nosi rostdan ham zarurmi yo'qmi ekanligini bilib olasiz. Keling, misol tariqasida bir mashqni o'rgatsak:

1) *Ingliz tilidagi xohlagan matningizni oling. Aslida, qilayotgan ishimiz aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishini*

ta'minlash maqsadida ingliz tili imtihoni variantlarida uchraydigan matnlar, IELTS imtihonida beriluvchi o'qish bo'yicha topshiriqlar, yoki kichikroq hikoyalardan foydalanishni tavsiya qilamiz.

2) O'zingiz tanlagan matnni hech qanday lug'at yoki boshqa yordamchi vositasiz o'qib chiqing.

3) Matnni o'qib bo'lgach, uni olib qo'ying va o'ylab ko'ring: matndan nimalarni tushundingiz? Siz bilmagan so'zlar matnning mazmunini tushunishga xalaqit beryaptimi, yoki ularsiz ham matnni anglash mumkinmi?

4) Agar so'z matnni tushunishga xalaqit bermasa, unga hozircha e'tibor bermay turing. Muhim bo'lgan so'zlarning ma'nolarini esa avval taxmin qilib ko'ring.

5) Taxminingizni tekshirish uchun lug'atga murojaat qiling.

Misol uchun: 2009-yil uchun chiqarilgan ingliz tili fani bo'yicha test kitobchasining 104-variantidagi, 35, 36-savollarga oid matndan bir parchani ko'rib chiqsak.

We lived in an old, fashionable part of the city, in a big house in which the servants **outnumbered** the family. There were four of us. But the houseman, the cook, the parlour maid, the laundry maid, the chauffer, and the nurse were the majority and dominated...

Aytaylik, siz **outnumbered** so'zini bilmadingiz. So'z o'zagi number bo'lganligi uchun gap miqdor/son haqida borayotganini bilib olasiz. Outnumbered gapda kesim vazifasida kelmoqda. Bu gapning egasi esa servants (xizmatkorlar). Biz bilmayotgan so'z xizmatkorlarning soni/miqdori haqida ma'lumot bermoqda. Gapning davomida oila a'zolarining 4 kishi ekanligini ko'ramiz. Undan keyingi gapda ta'riflangan xizmatkorlarni sanasak, ularning 6 kishi ekanligi ma'lum bo'ladi. Natijada, outnumbered so'zi "miqdor jihatidan yuqori bo'lish" degan ma'noga egaligini taxmin qila oldingiz. Keyinroq, bu so'zni lug'atdan topganingizda ham xuddi

## So'z yodlash sirlari

ma'noni ko'rishingiz mumkin.

**Yuqoridagi fikrlarga qisqacha xulosa yasaydigan bo'lsak.**

a) *Matnni to'la tushunishga emas, balki undagi eng zarur so'zlarni tushunishga harakat qiling.*

b) *Birinchi navbatda lug'atga emas, balki o'zingizning fikrlay olish va taxmin qila olish qobiliyatingizga suyaning.*

c) *Taxmin qilgan so'z ma'nolarini, asosiy matnni o'qib bo'lgach, lug'atdan tekshiring.*

d) *Yuqoridagilarga amal qilishga erinmang!*

Undan tashqari quyidagi holatlar kelganida siz so'zlarni taxminiy ma'nosini chiqarishga harakat qiling.

Undan tashqari quyidagi holatlar kelganida siz so'zlarni taxminiy ma'nosini chiqaring.

### **1. MATNDAN KELIB CHIQQAN HOLDA TAXMIN QILISH**

In every country you visit, you will find a sport that captures the passions of the nation. New Zealand has its rugby supporters, England has its legions of football fans, the Japanese have taken baseball to their hearts and Scotland still proudly supports its curling heroes.

*Birinchi gapdan so'z sport haqida borayotganini tushunish mumkin. Demak, butun abzatsning mavzusi ham sport ekanligi aniq. Keyingi gaplarda esa, har bir mamlakat aholisi nimanidir yaxshi ko'rishi yoki qo'llab quvvatlashi haqida so'z bormoqda. Mavzu sport haqida ekan, har bir mamlakatda eng mashhur bo'lgan sport haqida so'z borayotganini anglab olish mushkul emas.*

### **2. QARAMA-QARSHILIK BOR GAPLARDA OLDINGI GAPGA NISBATAN QARAMA QARSHI DEB HISOBLAB TAXMIN QILISH**

It should come as no surprise that younger people spend much of their leisure time on their feet, engaged in energetic activities, but older people opt for more sedentary pursuits

**like going to the theatre or watching television.**

*Ushbu misoldagi sedentary so'zining mazmuni bilan tanish bo'lmagan inson uchun buning ma'nosini bilib olish unchalik qiyin emas. Bizga bu gapda ishlatilgan zidlov bog'lovchisi but yordam beradi. Birinchi gapda yoshlarning bo'sh vaqtlarini on their feet ya'ni oyoqda, faol tarzda o'tkazishlari ta'kidlangan. But bo'g'lovchisi esa, shu gapga zidlov, qarama-qarshi ma'noli gapni bog'lab kelmoqda. Demak, ikkinchi gapdagi sedentary so'zining ma'nosi faol, oyoqda degan ma'nolarga qarama-qarshi bo'lmog'i lozim. Agar biz bu so'zni o'troq, harakatsiz deb tarjima qilsak, adashmagan bo'lamiz va bizga bu ma'noni taxmin qilishga but bog'lovchisi yordam beradi.*

### **3. NOTANISH SO'ZGA BERILGAN IZOHDAN FOYDALANISH**

**There are many examples of the cooperation between people and dogs. Guide dogs, for example, give essential assistance to the blind, while beagles, small dogs with short legs, are often used by hunters.**

*Notanish so'zdan oldin va keyin kelgan so'zlarga e'tibor berish juda muhim hisoblanadi. Chunki, ba'zi hollarda, siz uchun notanish bo'lgan so'zlarning ta'rifi shundoqqina ulardan oldin yoki keyin berilgan bo'lishi mumkin. Bunday hollarda odam o'zini xuddi matn ichidagi izohli lug'atga duch kechganday his qiladi. Yuqoridagi misolga e'tibor bering-a, beagles so'zidan keyin uning aynan qanday ma'noga ega ekanligi izohlanmoqda. Demak, biz uchun noma'lum bo'lgan beagles ko'proq ovchilar foydalanadigan qisqa oyoqli kichik it turi ekan.*

### **4. NOTANISH SO'ZGA NISBATAN BILDIRILGAN FIKRDAN FOYDALANISH**

**In my opinion, boxing is an abhorrent sport. Modern**

**society should be opposed to such violent contact sports.**

*Misolimizda gap boks sporti haqida bormoqda. So'zlovchi bu sport haqida o'z fikrini aytib uni abhorrent deb ta'riflamoqda. Biz esa bu so'z nima ma'no anglatishini bilmaymiz. Ikkinchi gapga e'tibor beramiz. Unda so'zlovchi jamiyatning bu sportga qarshi chiqishi kerakligini ta'kidlamoqda. Demak, shu fikrdan kelib chiqib, abhorrent so'ziga yomon, nohush kabi taxminiy ma'nolarni berishimiz mumkin bo'ladi. Bu so'zning asl ma'nosi yomon, manfur ekanligini bilib olgach, to'g'ri taxmin qilganimizga ishonch hosil qilamiz.*

### **5. MANTIQNI VA ODDIY TAJRIBANI ISHLATISH**

**Although technology has made mountain climbing both safer and easier, it is not a sport without risks. Bad weather can come quickly and last for long periods and the effects of severely cold weather can lead to hypothermia and, if untreated, death.**

*Bu yerda o'zingiz bir o'ylab ko'ring, agarda inson uzoq muddat qattiq sovuqda qolib ketsa, bu nimaga olib kelishi mumkin?!*

*Bu qobilyatingizni yanada rivojlantirish uchun ko'proq Ingliz tilidagi matnlarni O'qing, o'qing va yana o'qing. Boshida yengil kitoblardan boshlab keyin qiyin kitoblarni o'qib boring va yangi so'z chiqqanda darrov lug'atga qarab emas ma'nosini chiqarib o'qishni o'rganing. Bunday hissiy tarjima qilish rivojlanganidan keyin sizda so'zlarni ma'nosini topishda intuitsiya ham paydo bo'lsa ne ajab!*

---

## XULOSA O'RNIDA

Agar xulosani o'qiyotgan bo'lsangiz, demak, kitobni boshidan oxirigacha o'qib bo'libsiz. (Qiziqishingiz tufayli oxirgi sahifani kitobni o'qishga kirishishdan oldin ochib ko'rmagan bo'lsangiz, albatta.)

Hurmatli o'quvchi, umuman olganda, xorijiy tilni o'rganish mashaqqatli ish, chunki tilni faol tarzda egallashni xohlagan odam uni har taraflama mukammal o'zlashtirishi kerak. Buning uchun esa, tilning lug'at tarkibi, grammatikasi, fonetikasi va og'zaki-yozma nutq ko'nikmalari yaxshilab o'rgalishi lozim.

Biz bu kitobimiz yordamida til o'rganish jarayonidagi qiynchiliklardan butunlay xalos qilishning iloji yo'qligini ham yaxshi tushunamiz. Lekin kitobni katta qiziqish bilan o'qidingiz deb umid qilamiz. Undagi ma'lumotlarni o'zingiz uchun foydali deb topgan bo'lsangiz nur ustiga a'lo nur. Yana umid qilamizki, so'z yodlash va til o'rganishga bo'lgan munosabatingiz aynan shu kitobni o'qish orqali yaxshi tomonga o'zgardi.

Kitobni yozish jarayonida biz avvalo, so'z yodlash va xotirani kuchaytirish sohasidagi eng ilg'or jahon tajribalarini sizlar bilan o'rtoqlashdik. Qolaversa, bu usullarning aniq natija bera olishiga ishonch hosil qilish uchun uni o'z o'qituvchilik tajribamizdan kelib chiqqan holda taqdim qildik. Ingliz tilidagi yangi so'zlarni yodlash bo'yicha amaliy tavsiyalarning har birini o'zimiz o'qitadigan o'quvchi va talabalarimiz yordamida tajribadan o'tkazdik.

Bizga yordam bergan barcha o'quvchilarimiz va hamkasabalarimizga ulkan minnatdorchilik bildirib, shuni aytib o'tish lozimki, aynan ularning beminnat yordamlari va qimmatli fikrlari tufayli kitob hozirgi shaklga ega bo'ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kitobda sizga ingliz tilidagi so'zlarni o'rganishni osonlashtirishga harakat qildik. Agarda siz qaysidir qoidalarni o'zingiz uchun foydali deb ishlata olsangiz va bu qoida sizning tilni o'rganishingizga oz bo'lsada foyda bergan bo'lsa, asosiy maqsadimizga erishgan bo'lamiz. Asosiysi, o'zingizning so'zlarni yodlashga bo'lgan ishonchingizdir.



ILOVA

13-mashq.

Quyidagi ingliz tilidagi soʻzlarning tarjimasini hamda assotsiatsiya soʻzlari keltirilgan. Ushbu mashqda siz shu assotsiatsiya va tarjima qilinga soʻzlar orqali, mnemonika texnikalarini ishlatgan holda yorqin tasavvur yoki gap tuzishingiz kerak b'ladi.

Ingliz tilidagi soʻz	Assotsiatsiya	Tarjima	Tasavvur yoki gap
A wall	Devor	Devor	
Ago	Egov	Oldin	
All	Ol	Barcha	
Almost	Olmos	Deyarli	
Any	Eni	Har bir	
Applause	Palos	Qarsak chalmoq	
At least	Atlas	Eng kamida	
Avoid	E, Vohid	Oldini olmoq	
Become	Bekam	Bo'lmoq	
Bribe	Bir ayb	O'g'irlamoq	
Building	Bilding?	Bino	
Burn	Burun	Yondirmoq	
By	Bay-bay	Yonida	
Call	Qo'l	Qo'ng'iroq qilmoq	
Cancel	Kelsin	Bekor qilish	
Capture	Kaptar	Ushlab olmoq	
Cattle	Qotil	Qoramol	
Cause	Ko'z	Sabab	
Chopper	Chopar	Qassob pichog'i	
Class	Qilas	Sinf	
Clay	Kley	Loy	
Clear	Qilar	Toza	
Considered	Qonsiradi	E'tiborga olindi	
Deaf	Deb	Kar	

Dome	Dom	Gumbaz
Engine	Anjan	Motor
Fast	Past	Tez
Feel	Fil	His qilmoq
How	Ho'v!	Qanday
In	In	-da
Iron	Ayron	Dazmollamoq
Lunch	Lanj	Tushlik
Jolly	Anjelina	Quvnoq
	Jolie	
Many	Meni	Ko'pgina
Most	Mast	Aksariyat
Move	Movi	Harakat qilmoq
Notorious	Noto'g'risi	Ma'lum
Part	Pat	Qism
Patch	Pechka	Yamoq
Pay	Paynet	To'lamoq
Pocket	Paket	Cho'ntak
Quality	Quvvatli	Sifat
Said	Said	Aytildi
Sense	Sensiz	His qilmoq
Sewing	Seving	Tikmoq
Shadow	Shoda	Soya
Ship	Ship	Kema
So far	Safar	Shu paytgacha
Support	Suv porti	Qo'llamoq
Tall	Tol	Baland
Something	Somsasi	Nimadur
Touch	Toj	Ushlab ko'rmoq
Turn	To'n	Burilmoq
Under	Ande-mande	Tagida
Useful	Yuz pul	Foydali
Way	Vay!	Usul
Weep	VIP	Ko'z yosh to'kmoq
Your	Yor	Sizniki

---

**TAKLIF VA MULOHAZALAR UCHUN!**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**TAKLIF VA MULOHAZALAR UCHUN!**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

Shohruh-Mirzo RAHMANOV  
Iskandar SATTIBAEV

# SO'Z YODLASH SIRLARI

Ingliz tilidagi so'zlarni  
tezkor yodlash bo'yicha qo'llanma

"Istiqlol Nuri" nashriyoti 2013 y.  
Litsenziya raqami № 128  
Toshkent, Navoi ko'chasi, 30-uy.

Muharrir: I.Avazov  
Musahhih: D.Abdullayeva  
Rassom: I.Atahanov  
Dizayner: J.Karabaev

Bosishga ruxsat etildi: 16.07.2015 y.  
Qog'oz bichimi 84x108 1/32. Ofset bosma. "Palatino"  
garniturasi. Nashr b.t. 7. Shartli b.t. 7  
Adadi: 1000 nusxa. Birinchi zavod.  
Shartnoma № 52, Бюрогта № 71